

10  
(2- qism)

Umumuy o‘rta ta’lim maktablarining  
10 - sinfi uchun darslik

*O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi  
tomonidan tavsiya etilgan*

# ONA TILI

„O‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI  
TOSHKENT-2020

UO‘K 811.512.133(075.3)

KBK 81.2 O‘zb-922

O-58

### **Tuzuvchilar:**

BAXTIYOR MENGLIYEV, SHAROFAT TOSHMIRZAYEVA,  
SAODAT ATOYEVA, SAIDA MAJIDOVA, DILFUZA MANNOPOVA

### **Mas’ul muharrir**

G‘OFIR HAMROYEV – *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

### **Taqrizchilar:**

DILOROM YO‘LDOSHEVA – *pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*


XOSIYAT SUVONOVA – *Shayxontohur tumanidagi 59- DIUM olyi  
toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

### **Ekspertlar guruhi:**


G. YO‘LCHIYEVA – *Toshkent shahar Sirg‘ali tumani 6-maktab olyi toifali  
Ona tili va Adabiyot fani o‘qituvchisi*

X. ZIYOXONOV – *Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va  
dizayn instituti katta o‘qituvchisi*

### **SHARTLI BELGILAR**




– o‘qing




– tinglang



– gapiring



– yozing



– fikrlang



– bilib oling



– uyga vazifa

**Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari  
hisobidan chop etildi.**

## I FASL. USLUBLAR JILOSI

### 1- mavzu. NUTQ USLUBLARI



**1.1-mashq.** Matnni o‘qing va mazmuni haqida fikr yuriting.

#### BIRINCHI MO‘JIZA

Qadim zamonlardan beri **odamlar** olamda yetti mo‘jiza bor deb hisoblashadi. Bular Misr **fir’avnlarining ehromlari**, **Bobilning** osma bog‘i, ov xudosi Artemida **ma’badi**, Zevsning haykali, Galikarnas maqbarasi, quyosh xudosi Geliosning haykali va, nihoyat, nahri Nilda Faros orolidagi mayoqdir. Darhaqiqat, ular benihoya **ulug‘vor**, benihoya noyob va go‘zal. Ular yaratilgandan beri necha asrlar o‘tdi. Lekin yetti mo‘jiza inson aqlining, tafakkurining, qalbining **otashin** madhiyasi, inson **dahosining** ulug‘ligiga qo‘yilgan mangu obida bo‘lib kelmoqda. Biroq shunday bo‘lsa-da, olamda yana bir mo‘jiza borki, uning buyukligi, muqaddasligi yetti mo‘jizaning jamiki ulug‘vorligi, go‘zalligidan kam emas. XX asr odamining hayotiga u nondek, havodek, **radiodek** singib ketgan, shuning uchun uni qo‘lga olganimizda mo‘jiza bilan uchrashganday larzaga tushmaymiz, uning muqaddasligidan orziqib-entikib ketmaymiz, tilimiz lol bo‘lmaydi. Bu mo‘jiza – kitob.

Kitobning mo‘jiza, mo‘jiza bo‘lganda ham birinchi mo‘jiza ekanini ko‘pgina buyuk odamlar **qayd qilgan**. „Kitob – bilim manbayi“, – degan edi Aleksey Maksimovich Gorkiy. „Kitob bizning jips sahifalarga joylashtirilgan ko‘p asrlik tajribamizdirki, u yer yuzidagi inson aqliga mangu hayot bag‘ishlaydi“, – deb yozadi Leonid Leonov. Mashhur Avstriya yozuvchisi Stefan Sveyg kitobning kashf qilinishini **g‘ildirakning** ixtiro qilinishi bilan baravar qo‘yadi. U ham kitob madhiga benihoya ehtirosli, jo‘shqin misralar bag‘ishlagan: „Kitob bor joyda odam o‘z-o‘zi bilan, o‘z **saviyasining chor devoriga** o‘ralib, ortiq **yolg‘iz** qololmaydi, balki u o‘tmishdagi va hozirgi jamiki hodisalarga oshno bo‘ladi, butun insoniyatning fikrlari va hislaridan **bahramand bo‘ladi**“.

... Adabiyot inson kashf qilgan hamma mo‘jizalar, hamma buyuk ixtiolar ichida eng buyugi, eng ulug‘voridir. U – ajoyib **buloq**. U shun-

day buloqki, unda koʻz yoshining musaffoligi, qizlar **xandasining** qoʻn-gʻiroqdek ohangdor jarangi, **kamalak** nurlaridek rang-barang tovlanish bor. Bu musaffo buloqdan toʻyib-toʻyib ichishga, ota-bobolarimiz, **ajdodlarimiz** bizga meros qoldirib ketgan asriy tashnalikni – **ziyo**, nur, fikr tashnaligini qondirishga shoshiling, odamlar! (*Ozod Sharafiddinov*)



**1.2-mashq.** „Birinchi moʻjiza“ matnidagi ajratilgan soʻzlarni nutq uslublari boʻyicha guruuhlang:

- 1) kitobiy:
- 2) betaraf:
- 3) soʻzlashuv:



**1.3-mashq.** Izohli lugʻat asosida berilgan soʻzlarning maʼnosini aniqlang.

Firʼavn, maʼbad, Bobil, nahr, xanda, saviya.



### Nazariy matn

Til keng imkoniyatga ega. U nutq sharoiti, qoʻyilgan maqsad, qoʻllanish doirasi, muloqot qiluvchilarining kimligiga qarab turli voqelanadi. Bunda bir tushuncha har xil ifodalar, bir fikr turli sintaktik qurilmalar bilan beriladi. Tilning bunday koʻrinishi nutq uslubidir.



**1.4-mashq.** Berilgan soʻz birikmalarini qaysi uslubga xosligi boʻyicha tasniflang.

Ijodkor yoshlar, boshidan qolmoq, tajriba asosida, yillar armoni, zafar quchmoq, jinoiy toʻda, islohotlar samarasi, yuksak orzular, bu yerdan surmoq, oʼq ildiz, quyoshli yurt, toʻgʻrisini aytmoq, qoʼshma gap, koʻzları jiqla yosh, yeb tashlamoq, quyida imzo chekuvchilar, xolaginasi girtton, atmosfera bosimi, ijara ga oluvchi, zimmasiga yuklatilmoq, barmogʼini tishlab, qaynash nuqtasi, farazga koʻra, xotamtoy yigit.

*Namuna:*

- 1) soʻzlashuv: *yeb tashlamoq*, ...
- 2) ilmiy: *tajriba asosida*, ...
- 3) publitsistik: *ijodkor yoshlar*, ...
- 4) rasmiy: *quyida imzo chekuvchilar*, ...
- 5) badiiy: *yillar armoni*, ...



**1.5-mashq.** Nazariy matn mazmunini og‘zaki bayon qiling.

**1.6-mashq.** Testlarni yeching. Javobingizni izohlang.

## I. Berilgan matnlarning qaysi uslubga xos ekanligini toping.

1. Vashillab yonayotgan ko‘m-ko‘k olovga tikilaverib ko‘zni ishdan chiqargan ekanman. Qulq ham uncha-muncha gapni olmaydi. Hayronman, halitdan shundoq bo‘lsam, qariganda nima bo‘larkanman?

2. An'anaviy hikoyachilikning tugun, kulminatsiya va yechim kabi tarkiblaridan iborat bo‘lgan eng qisqa hikoyalar tanlovida O. Genri g‘olib bo‘lgan: „Chekib olgan haydovchi qancha yonilg‘i qolganini ko‘rish uchun benzobak tomon egildi. Marhumning yoshi yigirma uchda edi...“

3. Biz jonsiz idish-tovoq, yangisini olsa bo‘ladigan kiyimimizni, yangisini qursa bo‘ladigan eshigimizni ayaymiz. Lekin ro‘paramizdagи tirik insonlar-chi? Axir ular bir sinsa, qayta butun bo‘lmaydi, bir so‘lsa, qaytib ochilmaydi, bir ketsa, qaytib kelmaydi! Har bir odam – o‘z xonadoni ning bog‘boni. Ko‘ngli abgor bog‘bonning bog‘i qanday gurkirasin? Har bir bog‘ga ziyon yetaversa, jamiyatimizning salomatligini bir o‘ylang...  
(T. Sodiqova)

4. Men, Toshkent shahar 2-Qorasuv dahasi 214-uy 5-xonadonda yashovchi Ahad Ismoilovich Bahodirov, yon qo‘schnim Naim Abdullayevich Qahhorovga shaharning 7-aloqa bo‘limidan mening nomimga kelgan pochta jo‘natmasini olish uchun ishonch bildiraman. (N. Mahmudov)

5. Lahza o‘tmay, uni yana esnoq tutib, ko‘z oldida g‘alati halqachalar paydo bo‘la boshladi. „Bir, ikki, uch...“ deya halqachalarni sanashga kirishganda ular shu qadar ko‘payib ketishdiki, o‘ntaga yetganda adashib qoldi. Bolalar, sinf, doska va partalar ayqash-uyqash bo‘lib, xira pardaga chulg‘andi. Muallima opaning ingichka ovozi uzoqdan kelayotgan mayin bir kuyday vujudini allalay boshladi. Bog‘chada maza edi. Ovqat yeishardi, o‘ynashardi, uxlashardi – shu. Bu yerda esa nuql qo‘ng‘iroq chalishadi – o‘qishadi, nuql qo‘ng‘iroq chalishadi – o‘qishadi...  
(Sh. Isaxonova)

- A. 1-badiiy, 2-ilmiy, 3-publisistik, 4-rasmiy, 5-so‘zlashuv.
- B. 1-so‘zlashuv, 2-ilmiy, 3-publisistik, 4-rasmiy, 5-badiiy.
- C. 1-, 5-badiiy, 2-, 3-publisistik, 4-rasmiy.
- D. 1-, 2-, 5-badiiy, 3-publisistik, 4-rasmiy.

## II. Berilgan matndagi nuqtalar o‘rniga qaysi so‘zlarni qo‘yish kerak? Jumboqning javobini topishga urinib ko‘ring.

Bir mamlakatda Rostgo‘ylar, Yolg‘onchilar, rostgo‘ylar va ... aralash yashaydigan Aralash qishloqlari bor ekan. Mos ravishda, birinchi qishloqda faqat rostgo‘ylar, ikkinchisida faqat yolg‘onchilar, uchinchi qishloqda esa har ikki toifa aralashib... qilishar ekan.

To‘satdan o‘t o‘chirish... siga qo‘ng‘iroq bo‘libdi:

- Bizning qishloqqa o‘t ketdi!
- Siz qayerda yashaysiz?
- Aralash qishlog‘ida.

*Savol:* o‘t o‘chiruvchilar qaysi qishloqda yashaydi? (O. Sayimov)

A. Yolg‘onchilar, istiqomat, kompaniya; Aralash qishlog‘ida.

B. Aldoqchilar, umrguzaronlik, ofis; Aralash qishlog‘ida.

C. Yolg‘onchilar, istiqomat, idora; Yolg‘onchilar qishlog‘ida.

D. Yolg‘onchilar, istiqomat, idora; Rostgo‘ylar qishlog‘ida.



**1.7-mashq.** O‘tkir Hoshimovning mulohazalari bilan tanishing. Kitob, sizningcha, nechanchi mo‘jiza: birinchimi yo sakkizinchi?



Tasavvur qiling: siz tasviriy san’at muzeyiga kirdingiz. Polotnolar-dagi ranglarni, odamlarning qiyofasini ko‘zingiz bilan ko‘rib, hayajonga tushasiz.

Tasavvur qiling: siz magnitofondan musiqa tinglayapsiz. Cholg‘u ohanglari, xonandaning ovozini qulog‘ingiz bilan eshitib, hayajonga tushasiz.

Deylik, konsertga tushdingiz. Sozanda soz chalyapti, xonanda qo‘sinqaytyapti. Raqqosa raqs tushyapti. Siz tomoshani ko‘zingiz bilan ko‘rib, qulog‘ingiz bilan tinglab zavqlanasiz.

Endi tasavvur qiling: siz kitob o‘qiyapsiz. Oq qog‘ozda qora chiziqlar – harflardan bo‘lak hech nima yo‘q. Rang ham, ovoz ham, raqqosaning harakatlari ham... Ammo asarni o‘qishga kirishishingiz bilan ko‘z o‘ngingizda rangin manzaralar paydo bo‘ladi. Qulog‘ingiz ostida ajib ohanglar jaranglay boshlaydi. Kitobdagи odamlarning qismatiga sherik bo‘lib, o‘zingiz bilmagan holda beixtiyor larzaga tushasiz...

Hech shubhasiz, badiiy adabiyot – dunyodagi sakkizinchi mo‘jiza!



## Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Til birliklari ta'sirchanlik imkoniyatlarini qaysi nutq uslubida kengroq namoyish eta oladi?
2. Uslublarning qay birida nutqiy ohang katta ahamiyatga ega?
3. Publitsistik va badiiy uslublarning qanday o'xshash tomonlari bor?



## Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

**1.1-topshiriq.** Ajratilgan so‘zlarni sinonimlari bilan almashtiring. Sodir bo‘lgan uslubiy va grammatik o‘zgarishlarni aniqlang. Hikoyadan chiqargan xulosangizni bir jumlada ifodalang.

### HIKOYAT

Sulton Mahmud o‘tin orqalab ketayotgan bir **cholni** uchratib, **rahmi kelibdi**:

- Hoy qariya, – debdi u, – shu og‘ir **mehnatdan** qutulishing uchun senga uch-to‘rt dinor oltin beraymi yoki bitta eshak bersam bo‘ladimi, uch-to‘rt qo‘y **in’om qilaymi** yoki biror bog‘ ajratib beraymi?
- Ey sultonim, **oltin** bersang, belimga bog‘lab olar edim, bergen eshagingni minib, qo‘ylarni oldimga solib, bog‘ga borar edim va qolgan **umrimni** seni duo qilib chorborg‘da o‘tkazar edim, – debdi chol.

Sultonga bu gap ma’qul tushib, xuddi shunday qilishga **farmon beribdi**. (*Ubayd Zokoniy*)

**1.2-topshiriq.** Quyidagi so‘zlarning ma’nolarini izohli lug‘atdan aniqlab, lug‘at daftaringizga ko‘chiring: *fasohat, yukanmoq, safolat, arkon, havza, sirg‘oq, valakisalang, mahhud*.

## 2-mavzu. PUBLITSISTIK USLUB



**2.1-mashq.** Quyida nutq uslublari janrlariga xos misollar berilgan. Ularni davom ettiring.

*Hikoya, roman, drama, g‘azal...*

*Ocherk, felyeton, reportaj, intervju...*

*Ariza, e'lon, dalolatnoma, farmon...*

*Ma'ruza, monografiya, maqola, patent...*

*Askiya, gurung, alqash, qarg'ish...*



## 2.2- mashq. Berilgan parchalarni ifodali o'qing.

I. Hayot – ajoyib o'qituvchi: insho yozdiradi, o'zingga tekshirtiradi, bahoni esa boshqalar qo'yadi. U hech kimga yo unvon, yo guvohnoma bermaydi. Faqat ba'zi o'quvchilargina „chipta“ni o'zлari yasab olishadi, yonveridagilarni aldab-ishontirib yurishadi. Hayot esa bir kulib qo'yib, o'zining abadiy inshosini davom ettiradi. O'zingga tekshirtiradi. Bahoni boshqalar qo'yadi... (*Omon Matjon*)

II. X asrning mashhur olimi, jarrohlik ilmining otasi sanalmish Qosim al-Zahraviy bugungi kunda ham jarrohlik amaliyotlarida qo'llanib kelayotgan bir qancha anjomlarni ixtiro qildi. Bu asboblar qatorida skalpel, jarrohlik qaychisi va ignasi bor edi. Bundan tashqari u tibbiyotda ketgut – tanada so'rilib ketadigan tikuv ipini ham kashf qilgan. (*t/me: onalar kanali*)

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 3-apreldagi 173-sonli qaroriga asosan xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni nostrifikatsiyalash to'g'ridan to'g'ri (maxsus sinovlarsiz) amalga oshiriladigan holatlar kengaytirildi.

Eslatib o'tamiz: diplomni nostrifikatsiya qilish bo'yicha arizalar Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini orqali qabul qilinadi. ([www.edu.uz](http://www.edu.uz))

IV. Kechqurun to'y! Bu shodiyonadan hamma xursand, men ham yig'ilgan bolalarga qo'shilib shov-shuv ko'taraman, dam shotutga o'rmalab, kaptar uyalaridan tuxum qidiraman... To'satdan mirzaterakka chirmashib o'sgan aymoqli tok orasidan buvimning boshi ko'rindi. U meni imlab chaqiradi, qo'lidagi ro'molidan do'ppimga ikki-uch bosh chillaki uzum soladi:

- Bor, mehmonxonaga eltib ber. Tog'ang bilan kelinoying... tatib ko'rishsin. (*Odil Yoqubov*)

V. Bakovul oqsoqollar beliga bittadan to'nlik beqasam boyladi.

- Balli, kuchlaringiz barobar ekan! – dedi. Oqsoqollar bo'sh kelmadi.
- Eb-ey, nimalar deyapsiz, rais bova? – dedi Hotam polvon. – O'n-gimga kelib edi-yu, tag'in, Bo'ri polvonning biron yeri lat yemasin dedim-da!

– Nima-nima? – dedi Boʼri polvon. – Ukkagʼar Hotam polvon-e! Sizga oʼxshaganlarni manavi chinachogʼim bilan yiqitaman, ha! (*Togʼay Murod*)



### 2.3- mashq.

Parchalarning qaysi uslubga xosligini aniqlang.

Uslubni tavsiflash rejasи:

- 1) uslub nomi;
- 2) qoʼllanish sohasi;
- 3) janri;
- 4) oʼziga xos soʻzlari;
- 5) qoʼshimchalar qoʼllanishidagi oʼziga xoslik;
- 6) gap qurilishidagi oʼziga xoslik.



### Nazariy matn

Nutq uslublari maqsadiga koʼra nomlangan. Bir uslub ilmiy maqsadga xizmat qilsa, boshqa biri ogʼzaki soʻzlashuvga xos. Har bir uslubning oʼz janrlari bor. Masalan, hikoya – badiiy uslub janri, gurung soʻzlashuv uslubiga xos. Sinonim soʻzlar uslublarga xoslanadi (*apteka* soʻzi soʻzlashuv, *dorixona* soʻzi esa ilmiy, badiiy, rasmiy va publitsistik uslublarda qoʼllanadi). Shuningdek, -*gay* qoʼshimchasi badiiy uslubga (*kuygay*) xos. Soʻzlashuv uslubida -*gach* qoʼshimchasi qoʼllanmaydi. Murakkab qoʼshma gaplar koʼpincha kitobiy uslublarda qoʼllanadi. Bir uslubda unga xoslanmagan soʻz, qoʼshimcha, gap qurilishlarini qoʼllash nutqiy meʼyor emas.



### 2.4- mashq.

Nazariy matn mazmunini uqing va uni ogʼzaki bayon qiling.



### 2.5- mashq.

Gazetadan olingan xabar matnini oʼqing.

Sanoat rivojida ekologik soflikka eʼtibor berish katta ahamiyatga ega. Jumladan, konfet yoki qadoqlangan sharbatlarni oling. Bu shirinliklarni oʼrashda foydalilanligan qogʼoz, sellofan va plastik idishlarni ishlab chiqaradigan fabrikalar ekologiyaga katta zarar yetkazadi. Ammo haqiqiy „shirinlik fabrikasi“ boʼlgan mevali daraxtlarning mahsulotlari vitaminga

boy, to'yimli va chiqindiga aylanmaydigan qoplam bilan ajoyib tarzda o'ralgan. Bu „fabrikalar“ ulkan dastgohlarga o'xshab shovqin chiqarmaydi, „yoqilgi“si esa chirindi va tuproq kabi tabiiy narsalardan iborat. Shamollarni to'sish, soya berishdan tashqari betakror go'zalligi bilan insonlarga zavq bag'ishlaydi. („Ma'rifat“ gazetasidan)



**2.6- mashq.** Matndagi publitsistik uslubga xos leksik, morfologik, sintaktik o'ziga xosliklarni aniqlab, qisqa satrlarda ifodalang.



### Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. „Jurnalist qalamining o'tkirligi“ deganda nimani tushunasiz?
2. O'ylab ko'ring-chi, siz gazetxonlik madaniyatiga rioya qilasizmi?
3. *Bloger* so'zini qanday izohlaysiz?
4. Bugungi kun ommaviy axborot vakillarining nutqi haqida o'z fikrlaringizni aytинг.
5. Quyida jurnalist Qulmon Ochilning yozuvchi Said Ahmad bilan bo'lgan intervyyusidan parcha berilgan. Uni o'qib, adabiy til me'yorlaridan chetga chiqish holatlari yuzasidan mulohaza yuriting. Sarlavhaga diqqat qarating.

### SUYANADIGAN CHINORLARIM KO'P

- Bir kuni Siz ustozingiz G'afur G'ulomdan „Tengdoshlaringizdan qaysi birining asarlarini yaxshi ko'rasiz?“ – deb so'raganingizda u kishi gapni hazilga burib yuborgan ekanlar. Endi shu savolni o'zingizga bersam, nima deysiz?
- Qariganimda tengdoshlarimning biri yaxshi, biri yomon deb baloga qolmay. Yaxshisi, shogirdbachchalardan so'rang.
- Mayli, shogirdlaringizni aytинг, bo'lmasa.
- U „bezobrazniy“larni shogird deyishga tiling bormaydi. Qolaversa, ularning o'zi endi katta ustoz bo'lib qolishgan. Erkinning qanchadan qancha shogirdlari bor. O'tkirning ortidan qancha yosh talantlar ergashib yuribdi. Ne'matni aytmay qo'ya qolay. U hajvchilikda o'ziga xos mifik yaratyapti....

– Shogirdlaringiz bilan qanday til topshasiz?

– Ularning fe'l-atvori menga ma'lum. O'tkir donolik qilib kuydiradi. Nosir gapni chimchilab-chaqib aytadi. Ne'mat gunoh qilib qo'yganda Buxoro lahjasida ikkita latifa aytib, kuldirib qutuladi. Xudoyberdi „pora“ beradi. Uzoq kelmay ketsa, biron paqir shaftolimi, shotut murabbomi olib keladi. Yegan og'iz uyalar, deganlaridek, uni koyishga tilim bormay qoladi. Do'st safarlarda bilinadi. Bu shogirdbachchalarim ko'p safarlarda sinalganlar. Shunday suyansam bo'ladigan chinorlarim borligidan quvonaman.



## Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

### 2.1- topshiriq. Gazeta uchun xabar matni yozing.

Taxminiy mavzular:

1. „Hayotimdagи unutilmas hodisa“.
2. „Kitobxonlik tanlovi“.
3. „Men havas qiladigan mashhur inson“.
4. „O'zi ham, so'zi ham, ishi ham ibrat“.

Bajarish tartibi:

- 1) yozishga arziydigan voqeа yoki hodisani toping;
- 2) muhim jihatlarini eslang, dalillarni aniqlang;
- 3) hodisa ro'y bergan vaqt, joyni ko'rsating; qatnashchilarni qayd qiling;
- 4) ularning har birini qisqacha tavsiflang (bu juda muhim);
- 5) voqelikka munosabatingizni aniqlab oling;
- 6) tasvirlar ekansiz, voqeani baholang, munosabatingizni bayon qiling.

### 2.2- topshiriq. Matn mazmunini audionutq sifatida tayyorlab bayon qiling.

### 3-mavzu. RASMIY USLUB



**3.1-mashq.** Berilgan rezyume – ma'lumotnoma bilan tanishib chiqing.

#### MA'LUMOTNOMA

##### G'ulomova Shahnoza Qahramon qizi

2019-yil 3-yanvardan:

**Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti**

**Tug'ilgan yili:**

19.11.1992

**Tug'ilgan joyi:**

Buxoro viloyati Buxoro shahri



**Millati:**

o'zbek

**Partiyaviyiligi:**

yo'q

**Ma'lumoti:**

oliy

**Tamomlagan vaqtি:**

2014-y. Buxoro davlat universiteti (kunduzgi)

2016-y. O'zbekiston Milliy universiteti (magistratura)

**Ma'lumoti bo'yicha**

**mutaxassisligi:**

lingvistika (o'zbek tili)

**Ilmiy darajasi:**

yo'q

**Ilmiy unvoni:**

yo'q

**Qaysi chet tillarini biladi?**

ingliz tili, rus tili

**Davlat mukofotlari bilan taqdirlanganmi (qanaqa)?**

Navoiy nomidagi davlat stipendianti

**Xalq deputatlari respublika, viloyat, shahar va tuman kengashi deputatimi yoki boshqa saylanadigan organlarning a'zosimi (to'liq ko'rsatilishi lozim):** yo'q

#### MEHNAT FAOLIYATI

2010–2014-y. – Buxoro davlat universiteti talabasi

2014–2016-y. – O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

2016–2017-y. – Buxoro davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasи o'qituvchisi

2017–2019-y. – Buxoro davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasи o'qituvchisi

2019-y. – h.v. – Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

**Xodimlar bo'limi boshlig'i**

N. G. Nusratova

## G'ulomova Shahnoza Qahramon qizining yaqin qarindoshlari haqida

### MA'LUMOT

Qarindoshligi	Familiyasi, ismi va otasining ismi	Tug'ilgan yili va joyi	Ish joyi va lavo- zimi	Turar joyi
Otasi	G'ulomov Qahra- mon Asqar o'g'li	1967-yil, Buxoro shahri	Nafaqada (Buxoro shahar Ichki ishlar mayori)	Buxoro viloyati Buxoro shahri Beruniy ko'chasi 48-uy
Onasi	Teshayeva Lola Bo'rixon qizi	1968-yil, Buxoro shahri	Buxoro shah- ridagi 32-maktab o'qituvchisi	Buxoro viloyati Buxoro shahar Beruniy ko'chasi 48-uy
Opasi	G'ulomova Sarvi- noz Qahramon qizi	1989-yil, Buxoro shahri	Buxoro viloyati pulmonologiya va ftiziatriya markazi hamshirasi	Buxoro viloyati Buxoro shahri A. Temur ko'chasi 19-uy 6-xonodon
Singlisi	G'ulomova Shahri- noz Qahramon qizi	1999-yil, Buxoro shahri	Buxoro davlat tibbiyot instituti talabasi	Buxoro viloyati Buxoro shahri Beruniy ko'chasi 48-uy
Ukasi	G'ulomov Askar Qahramon o'g'li	2006-yil, Buxoro shahri	Buxoro shahridagi 14-maktab o'quvchisi	Buxoro viloyati Buxoro shahri Beruniy ko'chasi 48-uy
Turmush o'rtoғ'i	Burhonov Jasurjon Jamshid o'g'li	1991-yil, Toshkent shahri	Seul Milliy universiteti Rekonstruktiv plastik xirurgiya yo'nalishi	Janubiy Koreya Respublikasi Seul shahri
Qizi	Jamshidova Jas- mina Jasurjon qizi	2015-yil, Buxoro shahri	Buxoro shahridagi 46-maktabgacha ta'llim muassasasi tarbiyalanuvchisi	Buxoro viloyati Buxoro shahri Turon ko'chasi 1-muyulish 11-uy
O'g'li	Jamshidov Javohir Jasurjon o'g'li	2018-yil, Buxoro shahri	Uy tarbiyalanuv- chisi	Buxoro viloyati Buxoro shahri Turon ko'chasi 1-muyulish 11-uy
Qaynatasi	Burhonov Jamshid Ne'mat o'g'li	1968-yil, Buxoro shahri	„Ne'matilla zamini“ fermer xo'jaligi rahbari	Buxoro viloyati Buxoro shahri Turon ko'chasi 1-muyulish 11-uy
Qaynanasi	Ochilova Yulduz Norqul qizi	1968-yil, Buxoro shahri	Uy bekasi	Buxoro viloyati Buxoro shahri Turon ko'chasi 1-muyulish 11-uy



**3.2-mashq.** Rezyume – ma'lumotnomadagi asosiy qismlarni ajratib oling.



### Nazariy matn

Hozirgi kunda ishga kiruvchilardan, odatda, rezyume – ma'lumotnomada so'raladi. U ish qog'ozlaridan, rasmiy uslub janrlaridan biri. Uning birinchi sahifasida shaxsnинг surati, ismi, otasining ismi va familiyasi, tug'ilgan joyi, qayerda ta'lim olganligi, ma'lumoti, qayerda va qanday tashkilot(lar)-da ishlaganligi, mukofotlar olgan/olmaganligi, harbiy xizmatga aloqasi, qaysi chet tillarini bilishi kabilalar aks etadi. Orqa sahifada shaxsnинг yaqin qarindoshlari: ota-onasi, aka-ukalari va opa-singillari, (agar turmush qur-gan bo'lsa) turmush o'rtog'i, qaynata-qaynanasi hamda farzandlari haqida ma'lumot beriladi.

Rezyume – ma'lumotnomada ma'lumotlar aniq va to'g'ri berilishi shart. Soxta ma'lumotlar berish qonunga zid.



**3.3-mashq.** Berilgan tartib asosida rezyume – ma'lumotnomada yozing.



**3.4-mashq.** Rezyume – ma'lumotnomada mazmunini og'zaki bayon qiling.



**3.5-mashq.** O'rtog'ingizning rezyume – ma'lumotnomasini tahrir qiling.



**3.6-mashq.** Testlarni yeching. Javobingizni izohlang.

I. 1887-yilning 7-yanvarida 300 nafar eng taniqli adiblar, shoir, musavvir, bastakorlar birlashib, me'mor Gustav Eyfel yangicha uslubda barpo ettirayotgan minoraning qurilishiga doir shahar munitsipalitetiga **protest** yo'llaganlar. Ular orasida kichik Aleksandr Dyuma, Sharl Guno, Gi de Mopassan va boshqalar bo'lgan.

Matnda ajratib ko'rsatilgan hujjat nomining ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

- A. Tashakkurnoma.
- B. Norozilik bayonoti.

- C. Ayblov xati.
- D. Madhiya.

**II. 1981-yil Xitoyda maxsus qonun qabul qilingan. Bunga ko‘ra, o‘g‘il va qiz bolalar, albatta, tadbirkorlik kurslariga qatnashi shart.**

Berilgan matndan qaysi birliklarni rasmiy uslubda ham qo‘llash mumkin:

- A. Maxsus qonun qabul qilingan.
- B. O‘g‘il va qiz bolalar.
- C. Tadbirkorlik kurslari.
- D. Tadbirkorlik kurslariga qatnashi shart.



## Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Inson hayotining rasmiy hujjatlarga bog‘liqligi haqida fikringizni bildiring.
2. Elektron hujjatlar deganda nimani tushunasiz?
3. Rasmiy uslubda kasbiy terminlardan qay darajada foydalaniladi?
4. *Petitsiya* so‘zi nimani bildiradi?
5. Xalqaro munosabat doirasida qaysi tarixiy so‘z va iboralar qo‘llanishi mumkin?



## Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

**3.1-topshiriq.** Quyidagi so‘zlar orasidan rasmiy uslubga xoslarini aniqlang va ular ishtirokida so‘z birikmalari tuzing.

Guvoh, asal, fan-texnika, qaror, qidiruv, broker, tasdiqlamoq, auksion, elchi, hadya bermoq, shartnoma, birja, press-klub, majburiyat, bayonet, vizit, tiniq, jabrlanuvchi, xushvaqt, janobi oliylari, manzil, gulro‘, muntazir, da’vogar, mehmonxona, ijrochi, buyurmoq, durust, kelgusi, yuklatilsin.

**3.2-topshiriq.** Tuzgan so‘z birlikmalarining asosida „Axborot“ dasturiga xabar“ telemusobaqasida qatnashish uchun (aytaylik, telefoningizda) videonutq tayyorlang.

## 4-mavzu. ILMIY USLUB



**4.1-mashq.** Ilmiy matnni o‘qing va asosiy mazmunini so‘zlab bering.

### TASAVVUR VA TUSHUNCHA

Voqelikning inson ongida aks etish jarayoni – juda murakkab hodisa. Bunga hissiy (undan tasavvurlar hosil bo‘ladi) hamda mantiqiy bilish (undan bilim va tushuncha hosil bo‘ladi) orqali erishiladi. Ular shunday izchil va bosqichma-bosqich hodisalarki, voqealarni sezish, idrok etish, ular haqida tasavvur, bilim va, nihoyat, tushuncha hosil qilish jarayoni ketma-ket sodir bo‘ladi. Masalan, ma’lum bir film (aytaylik, „Kelinlar qo‘zg‘oloni“)ni tomosha qilayotganda voqealarni sezgi a’zolari – ko‘z va quloq faoliyatiga tayanib qabul qilamiz, ong va xotiramizda mavjud bo‘lgan axborot bilan qiyoslab idrok etamiz – tushunamiz. Shuning mahsuli o‘laroq, tafakkurimizda mazkur film haqida ancha mavhum, umumiyligi axborot (ma’lumot) hosil bo‘ladi, bu ayni shu film haqida bizning ongimizdagи tasavvurdir. Bu tasavvur manzarali voqelik sifatida ko‘z oldimizda gavdalanadi. Lekin bu manzaraviy tasavvur hali bilim yoki tushuncha emas. Tushuncha darajasiga ko‘tarilish uchun tasavvur munosabatlar tizimiga kirishib, tizimlashgan bilim darajasiga, so‘ngra bu bilim juz’iyliklardan, manzaraviylikdan xoli bo‘lishi, yuksak umumiylilik darajasiga ko‘tarilishi lozim. Filmning muallifi, yaratilish davri, obrazlari, sujeti, kompozitsiyasi, g‘oyasi, badiiy xususiyatlari, asar haqidagi fikrlar, ahamiyati (bu qatorni ancha davom ettirish mumkin) kabilalar haqidagi to‘liq va tizimli tasavvur hosil qilingach, muayyan bilim shakllandi, deyish mumkin. Tasavvurning yuqori darajasi (ya’ni to‘liq va tizimli tasavvur)da bilim tug‘iladi. Bilim asosida tushuncha shakllanadi.

Demak, borliq avval kuzatiladi, kuzatish natijasida tasavvur shakllanadi, tasavvur bilimlarni hosil qiladi, bilimlar tushunchaning vujudga kelishiga asos bo‘ladi.



**4.2-mashq.** Ilmiy matnni boshqa matnlardan farqlovchi belgilarni aniqlang.



**4.3-mashq.** Berilgan so‘zlardan ilmiy uslubga xoslarini ajratib ko‘chiring.

Biosfera, firma, ekologiya, ota-onasiga, yer, ma’rifat, tushunchasi, tajriba, uy, taom, ko‘rinadiki, shuningdek, deraza, sayr qilmoq, mardonasi, o’simlik, nahotki, ajoyib, faxrlanmoq, tizim, xarita, nur, sartarosh, harorat.

*Namuna:* biosfera,...



### Nazariy matn

Ilmiy uslub maxsus terminlar yordamida fanga doir fikrlarni bayon etishga mo‘ljallangan. Bu uslubda bo‘yoqdir so‘z va qo‘sishimchalar, iboralar, maqol va matallar qatnashmaydi. Ilmiy uslubda murakkab jumlalar, kirish va kiritmali qurilmalar ko‘p qo’llaniladi. Olimlar o‘z fikrlarini hamkasblari uchun ilmiy uslubda bayon etadilar. Ilmiy maqola, tezis (ma’ruza bayoni), dissertatsiya, monografiya kabilalar ilmiy uslub janralaridir.

Ilmiy fikrlar mutaxassis bo‘lmaganlar uchun ilmiy-ommabop shaklda yetkaziladi.



**4.4-mashq.** Matnni o‘qing va mazmunini og‘zaki bayon qiling.



### STENOGRAFIYA TARIXIDAN

Stenografiya – og‘zaki nutqni yozuvda qayd etishni maksimal darajada tezlashtirish maqsadida yaratilgan maxsus yozuv sistemasi. Stenografik yozuvning tezligi odatiy yozuv tezligidan 6–7 marta ortiq.

Stenografik yozuvni dastlab greklar yaratganlar. Grek stenografiyasining bizgacha yetib kelgan yodgorliklari eramizdan oldingi IV–III asrlarga oid. Stenografiyaning paydo bo‘lishi notiqlik san’atining taraqqiyoti va shu munosabat bilan nutqni tez yozish zaruratining yuzaga kelishi bilan bevosita bog‘liq. Yozuvning stenografik usuli, shuningdek, rimliklarga ham ma’lum bo‘lgan. Rim stenografiyasini keyinchalik Sitseronga kotiblik qilgan qul Tiron yaratgan (eramizdan oldingi I asr), u eramizdan oldingi 63-yilda Sitseronning senat kengashida fitnachi Katilinaga qarshi so‘zlagan mashhur nutqini o‘z yozuv sistemasi bilan yozib olgan; Rim stenografiyasi shuning uchun ham „Tiron notalari“ nomi bilan yuritiladi. Tiron notalaridagi har bir belgi to‘liq bir so‘z yoki so‘z birikmasini

ifodalagan. Shuning uchun ham bu stenografik yozuvda bir necha ming belgi bo'lgan. Bu esa uni to'liq esda saqlab qolishni qiyinlashtirgan. Shunga qaramasdan, bu yozuv Rim davlatida va undan tashqarida juda keng tarqalgan, maktablarda undan dars berilgan. (*N. Mahmudov. „Yozuv tarixidan qisqacha lug'at – ma'lumotnoma“*)



#### **4.5-mashq.** Test.

##### **I. Berilgan jumboqlarning javobini topib, matnlarning qaysi fan sohasiga xosligini aniqlang.**

1) Olmon yozuvchisi Erix Mariya Remark „Uch og‘ay-ni“ romanida unga „Uglevodlar, ohak, fosfor va temirning yer yuzida muvaqqat qorishmasi“ deb ta’rif beradi. Uning nomini aytинг.



*Javoblar: tuproq, odam, olam.*

2) 1960-yilning yanvarida yurtimizda joylashgan bu ikki „daryo“ tutashdi va 1964-yil fevralida hukumat qarori bilan bir-biridan ajratildi. Gap qaysi ikki „daryo“ haqida ketmoqda?



*Javoblar: Amudaryo va Sirdaryo, Qashqadaryo va Surxondaryo.*

3) Marsel Brionning yozishicha, Amir Temur G‘ilon shahrini bosib olgach, bu hududda bir kun ham qolmasdan, butun qo’shinni olib zudlik bilan shaharni tark etadi. Bu yerdagi „ofat“ hatto vabodan ham, eng kuchli dushmanidan ham xavfliroq ekanini aytadi. Shu „ofat“ning nomini ikki so‘z bilan aytинг.



*Javoblar: lazzatli taomlar, go‘zal ayollar.*

4) Abdulla Qahhorning otasi temirchi edi. Taxminan 1927-yillarda saraton paytida u bir amalni bajarmaganligi uchun masjid imomi tomonidan kofirga chiqarilib, do‘koni buzib tashlanadi. Abduqahhor qaysi ishni qilmagan edi?



*Javoblar: ro‘za tutmagan, zakot bermagan.*

- A) 1-kimyo, 2-geografiya, 3-tarix, 4-adabiyot.
- B) 1-biologiya, 2-,3-,4- tarix.
- C) 1-kimyo, 2-geografiya, 3-,4-tarix.
- D) 1-fizika, 2-geografiya, 3-tarix, 4-adabiyot.

## **II. Berilgan matndagi ajratib ko'rsatilgan so'zlar qaysi terminlar bilan almashtirilishi lozim?**

Timsohlar sudralib yuruvchilarning eng qadimgi guruhlaridan hisoblanadi.

Ular 300 ming yil ilgari paydo bo'lgan. Hozir yashab turgan timsohlar turkumi turli-tuman arxozavrлar kenja sinfining qoldig'i sanaladi. Timsohlar **shirin** suvlarda yashashga moslashgan, uzunligi 2–5 metr, hatto 10 metrgacha boradi. Ular hozirgi sudralib yuruvchilar orasida eng **baland** taraqqiy etgan **maxluqlardir**. Timsohlar tuxum qo'yib ko'payadi. Tuxum +31°C dan past bo'lganda urg'ochi timsoh, baland bo'lganda erkak timsoh paydo bo'ladi. Tuxumdan chiqqan timsohlarning 2–3 tasigina jinsiy jihatdan voyaga yetgan timsohga aylanadi. Timsohlar qimmatbahо **po'sti** va go'shti uchun ovlanadi. Ularning barcha turi Jahon Qizil kitobiga kiritilgan.

- A. Chuchuk, yuksak, hayvon, terisi
- B. Sho'r, yuksak, jonivor, qobig'i
- C. Mazali, yuqori, jonzot, po'stlog'i
- D. Chuchuk, yuksak, jonzot, terisi

 **4.6-mashq.** Berilgan so'zlarni fan sohalari bo'yicha jadvalga joylashting.

*Birikma, burun, devalvatsiya, QQS (qo'shimcha qiymat solig'i), til, qo'shma, ildiz, aksiya, yog'in, tangens, ijtimoiy, morfologiya, mizoj, mahraj, zov, qalamcha, sho'rxok, lizing, bosh, lab, qoldiq, relyef, sath, infuzoriya, bachki, to'qima, quyun, balans, tip, baholamoq, nutq, birja, tijorat.*

Tilshunoslik	Geografiya	Biologiya	Iqtisodiyot	Matematika
fonetika	materik	mikroskop	valuta	tenglama



## Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Ilmiy uslubning fan-texnika taraqqiyoti bilan qanday bog'liqligi bor?
2. Ilmiy nutqda fikr aniq bir shaxs tomonidan bayon qilinishi mumkinmi?
3. Ilmiy matnda qo'shma gaplarning qaysi turidan keng foydalilanadi?
4. *Kimning ilmdin rizq-u ro'zi bor, Ilm o'rghanishdan aslo etmas or baytini ilmiy uslubda bayon qiling.* Badiiy nutq va ilmiy nutq farqi yuzasidan o'z fikringizni bildiring.



## Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

**4.1-topshiriq.** Berilgan dialogik nutq asosida ilmiy matn yarating.

### XARIDORNI KUTIB OLİSH HAM SAN'AT

- Endiii... ba'zi injiq, ziqna, ezma xaridorlar odamni qonini so'rvo-radi-da.
- Ikkinchi og'zingdan bunday gap chiqmasin! Xaridorning injiqligi malol keladigan yuragi tor odam bo'lsang, savdoni yig'ishtirib, boshqa hunar qil. Xaridor injiq bo'ladimi, g'alchami, bechoraholmi, boyvachchalardanmi – barini iliq kutib ol, shirin muomala qil. Do'koningga kirgan xaridor o'zini xo'jayindek erkin his etsin. Magazin muzey emas. Xaridor istagan narsasini istagancha tekshirib olsin. Sen uning xizmatida bo'l, ammo shilqimlik qilib, mol olishga zo'rlama. Zo'rlasang, „Moli o'tmayotgandirki, qistayapti olgani“ deb shubha tug'iladi xaridorda. Ba'zi tortinchoq odamlar buyumga yaqinlashgani andisha qiladi, uzoqdan ko'zdan kechiradi, narxini so'rashga ham botinolmaydi, „So'rasam-da, olmasam, sotuvchining jahli chiqadi“, deb cho'chiydi. Binobarin, magazinga kirgan odamning oldiga darrov yugurib borma „Nima kerak?“ deb. Ha, hurkitvorma, o'ziga tashlab qo'y, aylansin, mollarni obdan ko'zdan kechirsin, bittasini oldida to'xtab senga qarasa, ana innaykeyin oldiga bor, butun vujudingni qulq qilib gapini eshit. (*Farhod Musajonov*)

### Bajarish tartibi:

- 1) sarlavhaga ilmiy shakl bering;
- 2) muhim jihatlarini aniqlang, dalillarni ajrating;
- 3) almashtirilishi zarur, tushirib qoldirish lozim bo‘lgan so‘zlarni belgilang;
- 4) tasvirlar ekansiz, voqeani baholang, biroq hissiy munosabatingizni bayon etmang.

**4.2-topshiriq.** Tayyorlagan matningizni „Ilmiy anjuman“ o‘yinida og‘zaki ma’ruza qilishga tayyorlang.

### Namuna:

Pul mablag‘larini saqlashga ixtisoslashgan ko‘plab muassasalar mavjud. Bunday korxonalar qatoriga omonat banklari, fond birjaları, pensiya jamg‘armalari, sug‘urta kompaniyalarini kiritish mumkin. Omonat deb bankka mablag‘ jamg‘arish va ko‘paytirish maqsadida ma’lum ustama haq – foiz evaziga pul qo‘yishga aytildi. Omonatning eng katta dushmani – inflatsiya. Inflatsiya mamlakatda o‘rtacha narx-navoning muttasil oshib borishi natijasida pulning qadrsizlanishi demakdir. Agar mamlakatda iste’mol tovarlarining narxi 3 marta ortsa, demak, aholining omonatlari ham shuncha ko‘p qadrsizlanadi. Shuning uchun kuchli inqiroz davrlarida omonatni pul ko‘rinishida saqlash iqtisodiy jihatdan to‘g‘ri emas. Yaxshisi, zudlik bilan kelajakda yuqori narxlarda sotish oson bo‘lgan tovarlarni sotib olish kerak bo‘ladi. („Iqtisodiy bilim asoslari“ darsligidan)

## 5-mavzu. BADIY USLUB

### **5.1-mashq.** Berilgan matnlarni o‘qing.

I. Arastu yoshi yetmishga yetganda barbat chalishni o‘rganibdi. Shogirdlari: „Oppoq sochingiz bilan barbat mashq qilgani uyalmaysiz-mi?“ – deb so‘rashsa, shunday javob beribdi:

– Davrada o‘tirgan odamlar bu hunarni bilgani holda men ko‘zimni mo‘ltillatib o‘tirsam, o‘shanda uyat bo‘lur edi. Har qanday ilm-u hunardan

xabardor bo‘lish, uni o‘zlashtirish yo‘lida tortish mumkin bo‘lgan barcha aziyatlarni bilish odamning fazilatidir. Johil kishigina buning ma’nosiga tushummaydi va foydasini bilmaydi. (*Muhammad Avfiy*)

*Barbat – to‘qqiz torli cholg‘u asbobi*

**II.** Talab va takliflarga binoan „O‘zbek tilining morfem lug‘ati“ (26163 ta so‘z) – to‘liq versiyada. Endi siz soatlab kitob titib, falon pulga uni sotib olmaysiz. Ushbu lug‘at mutlaqo bepul. Offlayn. Juda ham qulay. (*Internetdan*)

**III.** Mashhur Maugli haqidagi asarni eslaysizmi? Uning muallifi ingliz shoiri va yozuvchisi Redyard Kipling Nobel mukofotining adabiyot bo‘yicha eng yosh sovrindori bo‘lgan. U 1907-yilda 42 yoshida „kuzatuvchanlik, yorqin tasavvur, g‘oyalalar yetukligi va buyuk iste’dodi uchun“ ushbu nufuzli mukofotga munosib ko‘rilgan. Bunga qadar Redyard Kipling 4 roman, 13 tom hikoya, 3 tom bolalar hikoyalari, shuningdek, bir qator she’rlar va safar eslatmalarini yozishga ulgurgan. (*t.me:adabiyot\_olami*)

**IV.** Xaridorlar ham muayyan tovarni sotib olish uchun o‘zaro raqobat qilishadi. Bunday raqobat, ayniqsa, tovarning taklif miqdori unga bo‘lgan talab miqdoridan kam bo‘lganda yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Bozorda tovarning kam miqdorda taklif etilishi tovar taqchilligini yuzaga keltiradi. Tovarni sotib olish uchun xaridorlar navbat kutib qoladilar. Navbatlarning paydo bo‘lishi esa xaridorlarning o‘zaro raqobatidan dalolat beradi. Bunday raqobat ta’sirida narxlar oshadi, tovar sifati tushadi, xizmat ko‘rsatish esa yomonlashadi. („*Iqtisodiy bilim asoslari*“ darsligidan)

**V.** Bostirma tagida, bo‘yin-boshini kattakon eski sholro‘mol bilan tang‘ib, qo‘lida rapida, ikki yuzi tandirdan endi uzilgan kulchadek qizarib-bo‘g‘riqib non yopayotgan onasi uni:

– Ebi, o‘zimdi sahroyi ulimmi? Araz-durazing arib-tarqab keldingmi, bolam? – deya, yaxshi tanimagan bo‘lib chap kaftini peshanasiga soyabon qilgancha, kulimsirab qarshi oldi. – Ke, ke. Qizginalaring chopib-chopqillab yuribdimi? O‘zingdi tan-joning sog‘mi? Oyro‘zingdi vaqtি xushmi? Tiniq kampir qalay? O‘tirgandir keng yaylovda kengash qurib?

– Yaxshi, hammaginasi yaxshi, oy kulganday! – dedi Berdiboy sabrsizlik bilan. – Bu Sanamingiz o‘qishga ketarmish, deb eshitdikmi, apa? (*Erkin A’zam*)

 **5.2-mashq.** Ular orasidan badiiy matnni boshqa matnlardan farqlovchi belgilarni aniqlang va fikringizni qisqa jumlalarda yozma ifodalang.

 **5.3-mashq.** Berilgan so‘zlardan badiiy uslubga xoslarini ajratib ko‘chiring.

Fikrlamoq, xayolot, borliq, yashnagay, demak, jilmaymoq, zumrasha, rezonans, tenglama, paxmoq, ocherk, talmeh, boqiy, istiqbol, girtton, bo‘g‘in, mavjlanmoq, binobarin, dilkusho, bildirgi, talpinmoq, saxovat, hujayra, plazma, ag‘yor, nazorat qilmoq, to‘rtburchak, tovush, orombaxsh, faxr etmoq, tanqis, opoqi, yovqur.



### Nazariy matn

Badiiy uslub – uslublarning eng murakkabi. Unda muallif asarning go‘yaviy mazmuni va o‘z maqsadidan kelib chiqib turli uslub unsurlarini qorishiq holda qo‘llashi mumkin. Masalan, O‘ktam Usmonovning „Girdob“ romanida qishloq xo‘jaligiga oid terminlar, ilmiy ma’ruza (nutq) ko‘p uchraydi. Badiiy uslubning asosiy xususiyati – bo‘yoq dor til birliklaridan, ko‘chma ma’noli ifodalardan foydalanishning ustuvorligi. Bu uslubda jumlalarning qisqargan shakli, ritorik so‘roq gaplar, yig‘iq va to‘liqsiz, bo‘laklar o‘rni almashgan gaplar cheklanmagan holda qo‘llanadi.



**5.4-mashq.** Nazariy matnning asosiy mazmunini og‘zaki bayon qiling.



**5.5-mashq.** Testlarni yeching. Javobingizni izohlang.

I. Muhammad ibn Urva Yamanga voliy bo‘lib kirib borganida Yaman ahliga shunday xitob qilgan ekan: „Ey ahli Yaman! Mana bu mening ulovim. Agar chiqib ketayotganimda shundan ko‘p narsa olib chiqsam, demak, men „U“man!“ „U“ni toping.

- A. O‘g‘ri. B. Poraxo‘r. C. Xoin. D. Baxil.

**II. Agar dardni sezayotgan bo‘lsangiz, demak, tiriksiz. Agar boshqalarning dardi uchun joningiz achiyotgan bo‘lsa, demak, ... siz. (L. Tolstoy) Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring.**

- A. Rahmdil. B. Dardkash. C. Inson. D. Do‘st.



**5.6-mashq.** Matndagi ajratilgan so‘zlardan ko‘chma (majoziy) ma’noda qo‘llanganlarini aniqlang va izohlang.

Bir baliqchi bor edi. Kunlarning birida u ovlagan balig‘ining ichidan qimmatbaho **marvarid** topib oldi. Xursand bo‘lgan baliqchi marvaridni zargarga olib bordi. **Zargar** marvaridni ko‘rib:

– Bu bebaho-ku! Men do‘konimni, uyimni sotsam ham marvaridingni sotib olishga pulim yetmaydi. Sen buni podshohimizga olib bor, menimcha, u sotib olishi mumkin, – deb maslahat berdi.

Baliqchi saroya jo‘nadi. Ichkariga kirib, podshohga bo‘lgan voqeani so‘zlab berdi va qo‘lidagi marvaridni uzatdi. Podshoh qimmatbaho toshni olib, baliqchiga dedi:

– Men bu marvaridni anchadan buyon izlayotgan edim. Seni mukofotflash uchun o‘zimning **maxsus xazinamga** kirishingga ruxsat beraman. U yerda olti soat qolib, istaganingcha narsa olishing mumkin.

Baliqchi maxsus xazinaga kirdi-yu hayratdan qotib qoldi. Xazinaning ichi juda katta, uch qismdan iborat ekan: birinchi xona qimmatbaho toshlar, **oltin-kumushlar** bilan to‘la; ikkinchi xonada turfa xil **taomlar va ichimliklar** tayyorlab qo‘yilgan; uchinchisi – yotib dam olish uchun hozirlangan xona. Bularni ko‘rgan baliqchi o‘zicha: „Shuncha oltinni qanday olib ketaman? Avval yaxshilab ovqatlanib olsam, kuchga to‘laman, shunda ko‘proq oltin olib ketishimga imkon tug‘iladi“, – deb o‘yladi va taomlar hozirlangan xonaga kirib, berilgan vaqtning ikki soatini yeb-ichishga sarfladi. Keyin esa oltin-u javohirlar to‘la xonaga borayotganda parqu ko‘rpa-yostiqli **to‘saklar** solingan xonaga ko‘zi tushdi. Yana o‘zicha: „Ovqatlanib qornimni to‘ydirib oldim. Kel, endi biroz mizg‘ib olsam, yanada ko‘proq kuch to‘playman va mo‘l boylik olib ketaman. Shunday ajoyib to‘sakda uxmlay ketaveramanmi?“ – dedi o‘z-o‘ziga. Shunday qilib, u uxmlash xonasiga kirdi, cho‘zildi-yu darhol uxmlab qoldi.

Oradan biroz vaqt o‘tgach: „Ey ahmoq baliqchi, o‘mingdan tur! Muddating nihoyasiga yetdi. Bu yerdan chiqishga tayyorgarligingni ko‘r“, –

degan ovozni eshitdi. Qo‘rqib ketib: „Iltimos, menga yana ozroq muhlat bering, axir men boylik to‘plashga ulgura olmadim-ku!“ – dedi. Haligi ovoz: „Senga bu yerdan istagan narsangni olishing uchun olti soat berildi, sen esa hozir uyqidan turding. Endi oltin olmoqchimisan?! Nega shu olti soatning hammasini boylik yig‘ishga sarflamading? Keyin tashqariga chiqib, shu oltinlarga eng lazzatli taom, eng ajoyib ko‘rpa-to‘shaklar sotib olishing mumkin edi-ku?! Sen ahmoq, g‘ofil kimsa ekansan. Endi tashqariga chiq!“ – dedi.



**5.7-mashq.** Matndan chiqargan xulosangizni 3 – 4 jumla orqali bayon eting.



### Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Badiiy asar tili qachon adabiy til doirasidan chiqib ketadi?
2. Nasriy nutq bilan she’riy nutq o‘zaro qanday farqlanadi?
3. Quyidagi parchani o‘qing. Said Ahmadning ajratib ko‘rsatilgan fikriga munosabatingizni bildiring.
  - Abdulla Oripov bilan devor-darmiyon qo‘shni ekansiz. Ko‘rishib turasizlarmi?
  - Ha, albatta. Bog‘imizni gul dor panjara ajratib turadi. Unikiga shoirlar, menikiga nosirlar kelishadi. Dam olish kunlari unikida she’rxonlik, menikida askiya, latifago‘ylik bo‘ladi.
  - O‘rtadan o‘sha panjara olib qo‘yilsa bo‘lmaydimi?
  - Bo‘lmaydi. **Nazm bilan nasr o‘rtasida chegara bo‘lishi kerak.**



### Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

**5.1-topshiriq.** Quyida berilgan ilmiy matn asosida badiiy tasvir matni yaratting.

Bajarish tartibi:

- 1) sarlavhaga badiiy tus bering;
- 2) almashtirish, qo‘shish lozim bo‘lgan so‘zlarni aniqlang;
- 3) hissiy munosabat ifodalangan o‘rnlarni belgilang;
- 4) tasvirlar ekansiz, voqeani baholang, hissiy munosabatingizni bayon eting.

## ADASHGAN NOMLAR


Islandiya ingliz tilida „muz o‘lka“, Grenlandiya esa „yashil o‘lka“ degan ma’noni bildiradi. Qizig‘i shundaki, Islandiyada iqlim yumshoq, qishda harorat kamdan kam holatda 0 gradusga tushadi. Grenlandiya orolining 86 foizi esa muz bilan qoplangan.

**5.2-topshiriq.** Yaratgan matningizni badiiy o‘qish sinovida taqdim qilishga tayyorlaning.

### 6-mavzu. ESSE – IJODIY MATN



#### 6.1-mashq. Esse matnini o‘qing.



Kunlarning birida Ozod akaga tegajoqlik qilib so‘radim:

– Tanqidchining obro‘sisi nima bilan o‘lchanadi?

– Bilasizmi, bu savolningizga Rasul Hamzatovning quyidagi so‘zлari bilan javob berish mumkin. U shunday deydi:

1. Yomonni har doim yomon deb, yaxshini har doim yaxshi deb ayt.

2. Pashshadan fil yasama, lekin fildan pashsha yasashni xayolingga ham keltirma.

3. Kitobda yo‘q narsa to‘g‘risida emas, unda bor narsa haqida gapir.

4. O‘z fikringni asoslash uchun Belinskiydan boshlab, hamma ulug‘ kishilardan hadeb misollar keltiraverma. Agar shu fikr haqiqatan seniki bo‘lsa, uni o‘zingning aqling bilan isbotla.

5. Ravshan fikrni ravshan va tushunarli til bilan insho qil. Noaniq gaplarni asti yozma.

6. Shamolning yo‘nalishini ko‘rsatib turadigan pirpirak bo‘lma.

Agar har bir tanqidchi ustoz aytgan mana shu fikrlarga amal qilganida edi, tanqidchiligidiz yutuqlari yana ham ko‘paygan bo‘lardi.

Ozod akaning maqolalarida „dovon“, „cho‘qi“ iboralari tez-tez tilga olinadi. Ustoz bu so‘zlarни ramziy jihatdan ijodiy o‘sish, yuksalish ma’nolarida qo’llaydi. Bir dovonga chiqqan odam ikkinchisini, undan balandrog‘ini oshib o’tishni ko‘zlaydi. Tanqidchining o‘zi ham ijod dovonlari osha qutlug‘ niyatlar bilan yuksalib bordi. (P. Shermuhamedov)



 **6.2-mashq.** Esseda muallifning shaxsiy munosabati qaysi o‘rnarda yaqqol ifodalanganligini aniqlang. Matnga sarlavha toping.

 **6.3-mashq.** Essening asosiy mazmuni aks etgan fikrni toping. Muallif nima demoqchiligini bir jumlada ifodalang.



### Nazariy matn

ESSE (frans. essayi – tajriba, mashq; xomaki narsa) – adabiy, falsafiy, ijtimoiy, publitsistik va boshqa mavzularda yozilgan, muammolar tizimli, ilmiy tarzda emas, balki erkin shaklda talqin qilinadigan nasriy asar. Esse ifoda maqsadida biror muammoni qo‘yishiga ko‘ra ilmiy, uni ifodalash jihatidan badiiy uslubga xos. Zero, badiiy asarda, odatda, muammo qo‘yilmaydi, ilmiy asarda esa ta’sirchan ifodalardan foydalanish me’yor hisoblanmaydi.

 **6.4-mashq.** Esse haqidagi nazariy ma’lumot mazmunini og‘zaki bayon qiling.

 **6.5-mashq.** Testlarni yeching. Javobingizni izohlang.

### I. Berilgan matn mantiqan qaysi soha uchun tavsiya vazifasini bajarishi mumkin?

Og‘ir taqdiringizdan istaganingizcha shikoyat qilishingiz mumkin, biroq hammada ham qandaydir muammo bor. Qulay fursat hech qachon o‘zidan o‘zi kelmaydi, o‘zingiz uni yaratishingiz kerak bo‘ladi. Hech kim siz uchun qaror qabul qilmaydi. Biror reja tuzganingizda o‘z maqsadingizga

yaqinlashayotgandek bo‘lasiz. Agar rejalar qog‘ozda qolib ketsa, hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmaydi. Orzu ketidan aniq xatti-harakat bo‘lmasa, rivojlanishga doir o‘qilgan o‘nlab kitoblar ham foyda bermaydi. O‘zingizni moliyaviy yoki oilaviy shart-sharoitlar qurbanidek tutmang va buni oqlashga ham urinmang. Shunchaki yeng shimarib, anchadan beri ko‘zlagan maqsadingizni amalga oshiring.

- A. Huquqshunoslik.
- B. Psixologiya.
- C. Ekologiya.
- D. Iqtisodiyot.

**II. Deyl Karnegi unga shunday ta’rif beradi:** „U hech qancha turmaydi, ko‘p narsaga qodir emas. U hadya qilingan odam boy bo‘ladi, hadya qilgan odam esa kambag‘allahшиб qolmaydi. Uning davomiyligi bir lahza, ammo xotiramizda abadiy qoladi. Uni sotib olish, so‘rab olish, o‘g‘irlab olish behuda. Chunki u chin dildan taqdim etilgandagina qadrli. „U“ nima?“

- A. Ishonch.
- B. Nigoh.
- C. Tabassum.
- D. Diydor.



**6.6-mashq.** Essening asosiy xususiyatlarini tartib raqami bilan ajratgan holda yozib chiqing. Tinish belgilaringin qo‘llanishiga e’tibor qarating.



### Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Esseni murakkab janr deyish mumkin. Nega?
2. Esseni nega to‘laqonli ilmiy asar deb bo‘lmaydi?
3. „Ertalabgi xayollar“ xayoli“ badiasidan parchani o‘qing. Matnning mavzusi xususida munosabatingizni bildiring.

Adabiyotshunoslar oilasida tug‘ilganman. Esimni tanibmanki, uyda yozuvchi-shoirlarning ism-sharifi tilga olinadi, yozgan maqolasi-yu kimnidir „urgan-surgan“i muhokama qilinadi. G‘aybulla as-Salom, Najmiddin Komilov, Azim Suyun, Usmon Azim, Mahmud Sa’diyrlarning o‘zini tanimasam ham, ism-sharifini yoddan bilardim. Dadam ukam ikkimizni

shahar aylantirishga olib chiqib, o‘zлari „O‘zbekiston adabiyoti va san’ati“ gazetasi tahririyatida soatlarcha qolib ketardilar. Biz esa Mahmud Sa’diy degan bir „qora shaxs“ni yomon ko‘rib tashqarida kutib o‘tirardik. Kuni kelib o‘zim ham ana shu ajoyib ustozga shogird tushdim. Bitiruv malakaviy ishimga ilmiy rahbarlik qildilar, keyin magistrlik ishimda ham maslahatlar oldim. Soatlab yonlarida o‘tirdim. (*Shohruxbek Olim*)



## Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

**6.1-topshiriq.** Kichik esse yozing.

Bajarish tartibi:

- 1) yozishga arziydigan voqeа yoki hodisani toping;
- 2) muhim jihatlarini eslang, dalillarni aniqlang;
- 3) hodisa ro‘y berган vaqt, joyni ko‘rsating; qatnashchilarni qayd eting;
- 4) voqelikka munosabatingizni aniqlab oling;
- 5) tasvirlar ekansiz, voqeaga munosabatingizni ifodalashga e’tiborli bo‘ling.

**6.2-topshiriq.** Esse tanlovida badiiy o‘qishga tayyorlaning.

## NAZORAT ISHI. ESSE YOZISH

### 7-mavzu. NUTQ TURLARI



**7.1-mashq.** Yozma matnni o‘qing.

Boyazid Bistomiy hazratlari jinnixona yonidan o‘tayotganlarida bir tabibning hovonchada dori maydalayotganini ko‘rib:

- Behad gunohkorman,
- debdilar,
- shu kasalimga qarshi doring bormi?

Tabib boshini ko‘tarib ulgurmasdan, jinnixona panjarasidan qarab turgan bir xasta javob beribdi:

– Tavbaning tomiri bilan istig‘forning yaprog‘ini aralashtir. Qalb hovonchasida tavhid\* to‘qmog‘i bilan tuyib maydala. Insof elagidan o‘tkaz, ko‘z yosh bilan yo‘g‘ir, ishq tandirida pishir va bomdod bilan shom orasida ko‘proq tanovul qil. Ko‘rasan, xastaligindan asar ham qolmaydi!

Bistomiy hazratlarining ko‘zлari jiqla yoshga to‘lib debdilar:

– Yo Rabbim! Bu dunyo xastaxonasida ne-ne tabiblaring bor!

(„Hikmatli latifalar va nishonga urilgan so‘zlar“ kitobidan)



## 7.2-mashq. Og‘zaki nutqqa xos matnni o‘qing va tinglang.



– Buvi, siz rostdanam ko‘p narsalarni bilasizmi?  
 – Sersavolimdan o‘rgilay, ikkam saksonga qarab ketyapman, bolam. Tosh qattiqmi, bosh qattiq? Taqdirmi shapalog‘ini ko‘p yegan ko‘p narsani bilarkan. Bu bosh o‘lgur har narsani ko‘raverib, pishib ketgan, qoqindiq. Nimani so‘ramoqchiyding?

– Boya televizorda sigirni yetti xazinani biri ekanini aytishdi. Shunaqa xazina o‘zi nechta, buvi?

– Hay, qaqajonim-a, men aytay, sen qulog‘ingga quyvol, ho‘pmi? Birinchisi: sigir – ro‘zg‘orning baqqoli, ham qassobi; ikkinchisi: asalari – oilaning tabibi; uchinchisi: ipak qurti – qizlarning sepi; hah, nechanchisiga keldim, bolam?

– To‘rtinchisi, buvi, to‘rtinchisiga keldingiz.  
 – Barmog‘ing bilan sanab tur-da, bolam, sanoqda adashib ketmay. Ha... Shunaqib, to‘rtinchisi: obijuvoz – qozonning yog‘i; beshinchisi: tegirmon – qorinning belbog‘i; oltinchisi: o‘rmon – imorat suyagi, qozon olovi; yettingchisi: tovuq – ham obiyovg‘on, ham dori-darmon, bolam.

– Voy-bo‘, tushunmaydiganlarim ko‘p ekan-u, buvi.  
 – Yanagi safar aytib beraman qolganini, o‘rgilay, charchadim. Shomgacha picha mizg‘ivolay. Hali ayang kelganda uyg‘otarsan.  
 – Xo‘p, buvi, bemalol uxlavoling.

\* **tavhid** – Alloh bilan uyg‘unlashish (tasavvuf)



### 7.3-mashq. Yuqoridagi yozma va ogʻzaki nutqlarni qiyoslang.

*Qiyoslash tartibi:*

- 1) qoʻllangan soʻzlar;
- 2) qoʻllangan qoʻshimchalar;
- 3) gap qurilishi.



#### Nazariy matn

Ogʻzaki va yozma nutq tarkibida qoʻllaniladigan soʻzлari, qoʻshimchalari va gap qurilishi bilan bir-biridan farqlanadi. Yozma nutqdagiday gapirish yoki ogʻzaki nutqdagiday yozish toʻgʻri emas. Shuning uchun til oʻrganishda, ayniqsa, xorijiy tillarni oʻzlashtirishda bunga alohida eʼtibor qaratiladi.



### 7.4-mashq. Quyidagi jadvallar mazmunini ogʻzaki bayon qiling.

**1-jadval.**

Oʻzbeklarning dunyo mamlakatlarida joylashuvi	
Oʻzbekistonda	27 millionga yaqin
Afgʻonistonda	2.7 millionga yaqin
Tojikistonda	1.2 millionga yaqin
Qirgʻizistonda	796300 ga yaqin
Qozogʻistonda	493 800 ga yaqin
Turkmanistonda	500 000 ga yaqin
Rossiyada	300 000 ga yaqin
Pokistonda	70 000 atrofida
Turkiyada	50 000 dan ortiq
Saudiya Arabistonida	50 000 ga yaqin
AQSHda	20 000 atrofida
Xitoyda	12 400 ga yaqin

## 2-jadval

### Oilaviy tadbirkorlikning afzalliliklari va kamchiliklari

Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro ishonch hamkorlikdagi faoliyatning yuqori samadarorligini ta'minlaydi	Oilaviy munosabatlarning ish bilan bog'liq munosabatlarga salbiy ta'sirining mavjudligi
Har bir oila a'zosining aqliy va jismoniy imkoniyatlarini yaxshi bilish samarali mehnat taqsimotidan foydalanishga zamin yaratadi	Ayrim hollarda oila a'zolarining mutaxassis sifatidagi malaka va ko'nikmalarining yetarli bo'lmasligi
Tadbirkorlik faoliyatida oiladagi mavjud qo'shimcha resurs va imkoniyatlardan foydalanish natijaga ijobiyligi ta'sir ko'r-satadi	Oilaviy tadbirkorlikni yirik korxona shakllida tashkil etish imkoniyatining cheklanganligi
Oiladagi yoshlarning tadbirkorlik sirlarini o'rganib borishiga imkon yaratadi	
Oilaviy tadbirkorlikni meros qoldirish imkoniyati orqali avlodlarning kelajagini ta'minlaydi	

(„Tadbirkorlik asoslari“ darsligidan)

## 3-jadval

### Biznes-rejaning tuzilishi

Bo'lim	Mazmuni
1	<b>Rezyume</b>
2	<b>Taklif etilayotgan loyiha g'oyasi (mohiyati)</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>2.1. Umumiy boshlang'ich ma'lumotlar va sharoitlar</li> <li>2.2. Yangi tovar namunasining ta'rifi</li> <li>2.3. Tadbirkorlik faoliyati tajribasini baholash</li> </ul>
3	<b>Mahsulot sotiladigan bozorlarni baholash</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>3.1. Yangi tovar iste'molchilarining ta'rifi</li> <li>3.2. Raqobatdoshlarni baholash</li> <li>3.3. Raqobatdoshlarga nisbatan o'zining kuchli va ojiz tomonlarini baholash</li> </ul>

4	<b>Marketing rejasi</b> 4.1. Marketing maqsadlari 4.2. Marketing strategiyasi 4.3. Marketing rejasining moliyaviy ta'minlanishi
5	<b>Ishlab chiqarish rejasi</b> 5.1. Yangi tovar ishlab chiqaruvchisi 5.2. Talab qilinadigan ishlab chiqarish quvvatlari va ularning mavjudligi 5.3. Ishlab chiqarishning moddiy omillari 5.4. Ishlab chiqarish jarayonini ta'riflash
6	<b>Tashkiliy reja</b> 6.1. Korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli 6.2. Korxonaning tashkiliy tuzilmasi 6.3. Majburiyatlarning taqsimlanishi 6.4. Hamkorlar to'g'risida axborot 6.5. Biznes tashqi muhitining ta'rifi 6.6. Korxonaning mehnat resurslari 6.7. Boshqaruv tarkibi a'zolari to'g'risida ma'lumotlar
7	<b>Moliyaviy reja</b> 7.1. Daromad va xarajatlar rejasi 7.2. Pul tushumlari va to'lovlar rejasi 7.3. Korxona aktiv va passivlarining qo'shma balansi 7.4. Zararsizlikka erishish grafigi 7.5. Moliyalashtirish strategiyasi (mablag'lar manbalari va ularni sarflash) 7.6. Tavakkalchilikni baholash va sug'urta
8	<b>Illovalar</b>

(„Tadbirkorlik asoslari“ darsligidan)



**7.5-mashq.** Berilgan ilmiy matn parchalari asosida yuqoridaagi kabi jadval tuzishga harakat qiling.

1. 2017-yil 8-sentabr kuni Toshkent shahri markazida „O'zbekim“ milliy qadriyatlar festivali doirasida tayyorlangan megapalov Ginnesning rekordlar kitobiga kirdi. Taomning sof og'irligi 7360 kilogrammni tashkil

etdi. Palovni tayyorlash uchun rekord darajadagi masalliqlar: 1500 kg mol go'shti, 600 kg qo'y go'shti, 220 kg quyruq yog'i, 1900 kg guruch, 2700 kg sabzi, 220 kg piyoz, 440 litr o'simlik yog'i, 57 kg tuz, 100 kg no'xat, 190 kg mayiz, 5 kg zira, 2 kg murch, 1 kg kurkuma (zarchova – sariq tusli zanjabil ziravori) va 350 litr suv solindi. („Dunyo, siyosat, jamiyat“ to'plamidan)

2. „Mersedes“ avtomobili 40 ming dollar turadi. Vazni 2 tonnaga teng. Demak, uning har bir kilogramm og'irligi 20 dollarga to'g'ri keladi. Sport velosipedining bahosi esa 1500 dollarga teng. Vazni – 7 kilogramm. Demak, har bir kilosi 200 dollarga to'g'ri keladi. Xulosa qanday? Albatta, velosiped „Mersedes“dan 10 barobar qimmat turarkan.

3. 1989-yil Kanberrada (Avstralaliyada) asos solingen ATES (Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik tashkiloti)ga a'zo mamlakatlar hududidagi aholi dunyo aholisining 40% iga to'g'ri keladi va jahon YIMning 54% ni, tijoratning 44% ini tashkil qiladi. („Dunyo, siyosat, jamiyat“)



**7.6-mashq.** Berilgan so'zlarning qaysilari barcha uslublarda erkin qo'llanish imkoniyatiga egaligini aniqlang.

Bozor, zamon, e'tibor, yashamoq, burch, hujjat, mosuvo, dilafsho, bosh, tabiat, odam, jamiyat, nuqul, ibtido, jo'shqin, harakat qilmoq, tahsin o'qimoq, so'zamol, ota-ona, kompyuter, ayb, tushunmoq, non, nega, ulug'vor, kitob, agar, qurg'ur, doim, bahor.



### Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Og'zaki va yozma nutqning farqini qanday aniqlash mumkin? Fikringizni jadvalda ifodalang.

2. Nutq – bunyodkor kuch. Shu fikrni qanday izohlaysiz?

3. Alisher Navoiy „Mahbub ul-qulub“ asarining voizlikka (notiqlik san'atiga) bag'ishlangan 24-faslida shunday yozadi: „Va'z bir murshid va ogoh ishidur va aning nasihatini qabul etgan maqbul kishidur. Avval bir yo'lni bormoq kerak, andin so'ngra elni boshqarmoq kerak. Yo'lni yurmay kirgan itar va g'ayri maqsud yerga yetar. Voiz uldurki, majlisig'a

xoli kirgan to‘lg‘ay va to‘la kirgan xoli bo‘lg‘ay. Voizkim, bo‘lg‘ay olim va muttaqiy\* – aning nasihatidin chiqqan shaqiy\*\*. Ulki, buyurub o‘zi qilmag‘ay, hech kimga foyda va asar aning so‘zi qilmag‘ay“.

*Matnga tayangan holda ayting-chi, so‘zlovchining majburiyatlari nimalardan iborat? Fikringizni yozma ifodalang.*



## Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

**7.1-topshiriq.** Nuqtalar o‘rniga berilgan so‘zlardan moslarini qo‘ying va javobingizni izohlang.

1. Bir olim shunday degan ekan:

– Nodonga nodonligi tufayli til tekkiza ko‘rma! Aks holda sendan ibrat olib, seni ... o‘rnida ko‘radi. („Rivoyatlar“dan)

*ag‘yor, raqib, dushman*

2. Yunon donishmandi Diogendan so‘rashibdi: „Kimning ko‘zi o‘tkir?“ – ...ning ko‘zi, – javob beribdi Diogen, – chunki u senda yo‘q narsani ham ko‘radi.

*baxil, hasadgo‘y, ziqna*

3. – Katta daryolar ... oqadi.

– Sen daryoni ko‘rmagansan-ku?

– Men shunday odamlarni ko‘rganman.

*ohista, sokin, sekin*

4. Kecha aqlli edim – dunyoni o‘zgartirmoqchi bo‘ldim. Bugun ...-man – o‘zimni o‘zgartiryapman. (*Rumiy*)

*dono, oqil, bilimdon*

**7.2-topshiriq.** Matndagi nomuvofiq so‘zlar o‘rniga berilgan so‘zlardan moslarini qo‘yib ko‘chiring.

\* **Muttaqiy** – taqvodor;

\*\* **Shaqiy** – baxtsiz, o‘zboshimcha.

Olamda eng birinchi ma'lumotlar saqlash uchun mo'ljallangan mustahkam disk (sodda qilib aytganda, fleshka) 1956-yilda ijod qilingan va IBM 350 deb atalgan. Og'irligi 1 tonnadan ortiq, buyukligi shkafdek kelgan, xotira kengligi esa 5 me gabaytnigina tashkil etgan. Bu kashfiyot o'sha davming eng yirik texnologik zafarlaridan biri bo'lgan. (@itspecuz)

*dunyo, qattiq, nomlangan, kattaligi, javon, hajmi, ixtiro, yutuq*

## MUSTAHKAMLASH DARSI



**1-topshiriq.** Matnni o'qing.

**Ofis**da kompyuter buzilib qoldi. Ustani chaqirishdi. **Usta** kelib, **kompyuterni** tuzatib ketdi.

Bu qanday bo'lganini ofisdag'i **xodim** hikoya qilib beryapti: „Usta keldi. Kompyuterga diqqat bilan tikilib turdi, nimadir deb **shivirladi**, o'tiradigan kursimni o'n marta aylantirib, kompyuterimni **ozgina** surdi, yana nimadir deb pichirladi va ketdi. Mana, ishlayapti. Haqiqiy **sehrgar** ekan“.

Ustaning hikoyasi: „Kompyuterni tuzatib berish uchun chaqirishdi. O'sha kompyuterni ishlatadigan xodim joyida **tek** o'tirolmaydigan, **doimo** kursisini aylantirib o'tiradigan yigit ekan. Kompyuter simi stulning oyog'iga o'ralashib qolibdi. Men yigitga eshittirmasdan uni **rosa** so'kdim, simni **kursi** oyog'idan bo'shatib, kompyuterni nariroqqa surib qo'ydim. Chiqib ketgan simni uladim va yana bir marta **so'kinib**, u yerdan chiqib ketdim“.

**2-topshiriq.** Bir vaziyatga turli tomondan baho berish mumkinligi to'g'risida mulohazalaringizni 2–3 jumlada yozma bayon qiling.

**3-topshiriq.** Hikoyaga qanday sarlavha qo'yish mumkin?

**4-topshiriq.** Matn qaysi uslubga xos ekanligini aniqlang va fikringizni asoslab bering.

**5-topshiriq.** Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni jadvalga to'g'ri joylashtiring.

Badiiy uslub	Rasmiy uslub	So‘zlashuv uslubi

**6-topshiriq.** Kompyuterdan to‘g‘ri foydalanish qoidalari yuzasidan bilganlaringizni o‘rtoqlashning.



### Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar



**7-topshiriq.** Boshqotirmalarda yashiringan maqollarni toping.



**8-topshiriq.** Turli manbalardan nutq uslublariga namunalar topib yozing.

## 8-mavzu. TIL BIRLIKARINI TANLASH IMKONIYATI



**8.1-mashq.** Matn bilan tanishing.

Qadim zamonda Abdusalom ismli halol inson o‘tgan ekan. Uning yakka-yu yagona farzandi bo‘lib, dilbandini juda yaxshi ko‘rar, yer-u ko‘kka ishonmas ekan. Kunlar, yillar o‘tib, bola pahlavon yigit bo‘libdi. Kunlarning birida u otasiga maslahat solibdi:

– Ey ota, endi men nima kasb qilay?

Otasi:

– O‘g‘lim, „Bo‘ynidan bog‘langan it ovga yaramas“, degan gap bor. Endi sen bir hunar yoki kasbni tanla va shunga mehr qo‘y, – debdi.

Shunda o‘g‘li:

- Eng yaxshi kasb o‘g‘rilik bo‘lsa kerak, – degan ekan, otasi:
- Mayli, o‘g‘lim, o‘g‘rilik bo‘lsa, o‘g‘rilik-da. Qo‘shnimizning qo‘ynini o‘g‘irlab ko‘r-chi, – debdi.

O‘g‘li qo‘shni xonadondagi bitta katta qo‘chqorni o‘g‘irlab olib kelibdi. Otasi xursand bo‘libdi va:

- O‘g‘lim, zo‘r ish qilding, bir hafta uydan chiqmay shu qo‘yni maza qilib yeymiz, – debdi.

Xullas, bir hafta astoydil maishat qilishibdi. Qo‘yni pishirib yeb bo‘lishgach, o‘zlarini tarozida tortishibdi. O‘g‘il bir haftada uch kiloga ozibdi, ota esa to‘rt kiloga semiribdi. O‘g‘il hayron bo‘lgan ekan, otasi kulib debdi:

– Ey nodon o‘g‘il! Bilib qo‘y, sen o‘g‘irlagan qo‘yning pulini men bir kun oldin qo‘shniga berib qo‘yanman. Shundan men semirdim. Ko‘rdingmi, harom luqmada halovat yo‘q, yeganing o‘zingga yuqmaydi, shuning uchun halol kasb tanla. Shunda u dunyoying ham, bu dunyoying ham obod bo‘ladi. (@onalar\_kanali)



**8.2-mashq.** Matndan so‘zlashuv uslubiga xos birliklarni aniqlang. Hikoya mazmunidan chiqargan xulosangizni yozma ifodalang.



**8.3-mashq.** Quyida berilgan so‘zlardan mosini nuqtalar o‘rniga qo‘yib chiqing.

## AYYORONA IXTIRO

Amerikalik ... elektrotexnik Tomas Edison muntazam ravishda nimalarnidir ixtiro qilib yurishi bilan mashhur edi. Bir kuni uning dala hovlisida mehmon bo‘lgan do‘sstaridan biri hovliga kiraverishdagi kichkina ...ning ochilishi qiyin bo‘lganligidan nolidi.

- Uni ochish uchun bor kuchimni ...imga to‘g‘ri keldi, – dedi u.
- Tushunarli, – dedi Edison, – lekin kuchingiz bekor ketgani yo‘q. Siz o‘sha eshikni ochish bilan ...dagi suv idishga o‘ttiz ... suv ko‘tardingiz.

*buyuk, taniqli, darvoza, eshik, ishlatish, sarflash, kuch, quvvat, chelak, tom, litr, tonna*



## Nazariy matn

Til taraqqiyotining biror davrida so‘z, ibora yoki qo‘sishmcha ortiqcha bo‘lmaydi, mabodo bo‘lsa, u tezda nutq sahnasidan tushib ketadi. Ammo har bir qo‘sishmcha, so‘z va iboraning qo‘llanish o‘rnini qat’iy. Ayrim so‘zlar barcha uslubda cheklanmay qo‘llanilsa, ayrimi faqat bir uslubga xos bo‘ladi. So‘zlovchi tildan erkin foydalanadi, ammo til ifodalarini tanlashda muayyan majburiyatga ham ega. Unda til ifodalarining qay birini qachon qo‘llash kerakligi haqidagi malaka shakllangan.



**8.4-mashq.** Qavs ichidagi so‘zlardan uslubga mosini tanlab, gaplarni o‘qing.

*Namuna:* Bilganlaringni (bildir, anglat), ammo aql berishga harakat qilma. – Bilganlaringni anglat, ammo aql berishga harakat qilma.

1. Men hayotimga kunlar qo‘sishni emas, kunlarimga hayot qo‘sishni ... (xohlayman, tilayman, orzu qilaman, niyat qilaman). (*Ayman Yog‘iy*)
2. Yaxshilik – yomonlikni ...dir (yo‘qatmak, qaytarmak, tark etmak, rad qilmak). (*Jaloliddin Rumiy*)
3. Kishi o‘zini yaxshilik haqidagi ...ga emas, ezgu ishlar va fazilatlarga o‘rgatmog‘i kerak (va’z, nasihat, pand, suhbat). (*Demokrit*)
4. Yaxshiliklarning eng ...si sadaqadir (ahamiyatli, foydali, kerakli, e’tiborli). (*Abu Ali ibn Sino*)
5. Yaxshilikka yaxshilik eltgay, xolos, Yaxshilik birlan kishi topgay ... (xalos, ixlos, najot, erk).
6. Ko‘rdimki, eng yaxshi do‘sit ilm ekan, aqlni esa yaxshiliklarga ...da ko‘rdim (chorlash, chaqirish, dav’at qilish, undash). (*Najmiddin Kubro*)
7. Yaxshilikni shaxsiy ...ni ko‘zlamay, faqat yaxshilik bo‘lsin, deya qilmog‘imiz lozim. (foyda, manfaat, muvaffaqiyat, boylik)
8. Tabiat – ... va go‘zallikning bevosita ifodasi (ezgulik, yaxshilik, ulug‘vorlik, buyuklik). (*Asqad Muxtor*)



**8.5-mashq.** Gaplardagi uslubiy, tinish belgilari bilan bog‘liq xatoliklarni aniqlang va ularni tuzatib yozing.

1. Hozir kuyovimga, telefon qilaman, qamoqdan bo‘saganimizda Dyun bilan uchovimiz tushgan sur’atni olib keladi. (*Said Ahmad*)
2. O‘zing bilasan – biz erkaklar palov damlashga ayollarga nisbatan o‘zimizni ustasi farang sanaymiz. (*Sunnatilla Anorboyev*)
3. Bu voqeа ikkovimizning gurkirab palak ota boshlagan beg‘ubor o‘smir qalbimizni hayajonga solgan, o‘rtamizdagи sirli suhbat mavzusiga aynalib qolgan edi.

(*Odil Yoqubov*) 4. Karl yagona yashar, onasi yetti yil burun vafot etgan, otasi taniqli etnograf Gerhard Myuller, koʻp vaqtini arxeologik safarlarda oʻtqazar, nega bir nemis oilasi oʻzbek mahallasida turib qolganini hech kim bilmasdi. (*Uchqun Nazarov*) 5. Yangi rahbar sinalmagan otni sirtidan oʻtib, obroʼsini tushirgisi kelmadi shekilli, shaytonga hay berib, alamini ichiga yutdi. (*Shodmon Otabek*) 6. Suqrot bir boy bilan yoʻlga chiqqan ekan. Yoʻlda, qaroqchilar shu oʻrtada izgʻib yuribdi, degan xabarni eshitib qolibdi. Boy:

- Obbo, tangri urdi! Ular meni tanib qolsa, nima boʼladi? – desa, Suqrot:
- Obbo, xudo urdi! Ular meni tanimay qolsa, nima qilaman? – debdi.



**8.6-mashq.** Matn mazmunini ogʻzaki bayon qiling. Oʻz munosabatingizni bildiring.

Kasal yotgan onamga menga Davlat mukofoti berilganini aytishganda shunday degan ekan: „Yaxshi xushxabar, ammo oʻgʻlingiz yetimlarga, faqirlarga yordam berdi, deb aytishsa, bundan koʻproq xursand boʻlardim. Oʻgʻlimga aytinlar, mukofot pulini qaysidir ovulga suv olib kelish uchun bersin. Uni duo qilishadi. ... Qayerda buloq topilsa, u yerda soʻqmoq ochiladi. Yangi soʻqmoqdan yangi yoʻl ochiladi“. (*Rasul Hamzatov*)



**8.7-mashq.** Testlarni yeching. Javobingizni izohlang.

1. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri faqat badiiy uslubga tegishli?  
A. Nigoh. B. Boqish. C. Qarash. D. Nazar.
2. Uslubiy xoslangan soʻzlar qatorini toping.  
A. Binobarin, xullas  
B. Fido boʻlmoq, gapirmoq  
C. Tenglama, daftар  
D. Arz, osmon
3. Qaysi sinonimik qatorda „ortiqcha“ soʻz bor?  
A. Bemahal, bemavrid, bemalol, bevaqt  
B. Choʻloq, oqsoq, lang  
C. Sarf, chiqim, xarajat, xarj  
D. Chora, iloj, tadbir, imkon, ep, yoʻl, amal.



**8.8-mashq.** Matnni o‘qing. O‘z xulosangizni 3 – 4 jumlada bayon eting.



### O‘QISH – O‘SISH DEMAK

Abituriyent – hayotini o‘zgartirish uchun yo‘lga chiqqan shaxs. Talaba bo‘lmoqchimisan, unda, albatta, o‘qi. Inson uchun doimo harakatda bo‘lmoq tiriklik belgisidir. Shunday ekan, yodingda tut:

1. Hech qachon vaqtim yo‘q, dema. Xohish bo‘lsa, vaqt topiladi. Dunyoni boshqarayotgan mashhurlarning sutkasi senikidan ortiq emas.
2. Hech qachon eslab qololmayman, dema. Xotirangni bo‘ysundir: inson istasa, hammasini yodida saqlaydi.
3. Hech qachon tushunmadim, dema. Tushunish qobiliyati va ong berilgan yagona tirik jon sensan. O‘zingni hayvonlarga teng tutma.
4. Hech qachon ertaga, dema. Bugunni ertaga topa olmaysan. Ertaning ham o‘z ishi bor. Vaqtini qadrла. Yo‘qotsang, topolmaysan. Uni sotib ham ololmaysan.
5. Barcha chalg‘ituvchi vositalardan voz kech. Texnika seni emas, sen uni yaratgansan – unga qul bo‘lma.

Har qanday zamonda kitob o‘qigan insonlar film tomosha qilgan odamlar ustidan yetakchilik qilganlar. Tanla: boshqarasammi, bo‘ysunasanmi? O‘zingga ishon. Odam o‘ziga ishonmay turib boshqalarni ishontira olmaydi. Senga berilgan imkonni qadrла. Orzu qilma, maqsad qo‘y. Fikrlar dunyoni boshqaradi, sen ana shu fikr egasi bo‘l.



### Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Nutq jarayoni yana qaysi fan sohalari tomonidan o‘rganiladi?
2. So‘z qo‘llashda doim ham uslubiy me’yorlarga amal qilinadimi? Nega?
3. Yozma ishlarda til birligini tanlashda qanday xatoliklarga yo‘l qo‘yish mumkin?
4. Quyidagi so‘zlarning asosiy ma’nolarini izohli lug‘atdan aniqlab lug‘at daftaringizga ko‘chiring: *ang‘iz, beshbel, tashrif, yelvizak, ko‘lanka, sha’n*.



### Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

**8.1-topshiriq.** Berilgan har bir jumлага mazmuni bir xil, shakli har xil uchtadan so‘roq gap tuzing.

*Namuna:* Italiyalik adib Dantening „Ilohiy komediya“ asarida bobokalonimiz al-Farg‘oniy nomi tilga olingan.

1. *Italiyalik adib Dantening „Ilohiy komediya“ asarida qaysi bobokalonimiz nomi tilga olingan?*
2. *Italiyalik adib Dantening qaysi asarida bobokalonimiz al-Farg‘oniy nomi tilga olingan?*
3. *Bobokalonimiz al-Farg‘oniy nomi tilga olingan „Ilohiy komediya“ asari qaysi adibiga tegishli?*

1. Qurg‘oqchilik yil bo‘yi davom etadigan ba’zi mamlakatlarda odamlar so‘rashganda bir-biriga sog‘liq emas, yomg‘ir tilashadi. 2. Jinoynatchining jinoyatini bo‘yniga qo‘yishda barmoq izlaridan foydalanish amali dunyoda ilk marta 1902-yil Daniyada paydo bo‘lgan. 3. Har oy to‘lganda Amazonka daryosidagi to‘lqinlar oqimga qarshi harakatlanib, ularning qudrati va tezligi shu kunlari bir necha yuz barobarga ortadi. 4. Kabutar havoda ming chaqirim parvoz qilib, manzilni aniq topib boradi.

**8.2-topshiriq.** Quyidagi so‘zlarni qaysi uslub xususiyatlarini ifodalashiga qarab jadvalga joylashtiring.

Zormanda, saxovatpesha, marketing, ariza, ilg‘or, aytmoq, ishonch bildirmoq, murosasiz, narx, bahavo, qizg‘anchiq, zafar quchmoq, amr etmoq, shartnoma, bobillamoq, peshqadam, obod aylamoq, shapaloq, vaysamoq, reklama, barkamol, tashabbus, ohista, e’lon, boy bo‘lgur, ijara, fidokorona, bolapaqir, savil, himmatli, nazarkarda, teorema.

*Namuna:*

So‘zlashuv uslubi	Ilmiy uslub	Publitsistik uslub	Rasmiy uslub	Badiiy uslub
zormanda	marketing	ilg‘or	ariza	saxovatpesha

## II FASL. SO‘ZDAN SO‘ZNING FARQI BOR

### 9-mavzu. QANDAY SO‘ZLAR O‘ZARO BOG‘LANMAYDI?

Fikrat – daryo, g‘aflat ko‘lmakdir,  
Daryo – hayot, ko‘lmak o‘lmakdir.

(Erkin Vohidov)



**9.1-mashq.** Qavs ichidagi so‘zlardan mosini tanlab, matnni o‘qing.

#### UMR SHUNDAY KECHADI

Bir guruh ulfatlar tijorat maqsadida chet (*el, yurt, shahar, o‘lka*)ga borishdi. Ular gavjum shahardagi sakson qavatli (*mehmonxona, bino, ofis*)-ning yetmish beshinchi qavatiga joylashishdi, chunki bundan pastda joy yo‘q edi. Yuqorida shaharni tomosha qilish qulayligini o‘ylab, shu qavatda qolishga (*rozi, majbur*) bo‘lishdi. „Ammo shuni eslatib qo‘yishim lozimki, – deya ularni ogohlantirdi mehmonxona xodimi, – ichki tartibimizga ko‘ra, kech soat o‘n birdan ertalabki yettigacha **lift** ishlamaydi. Shuning uchun soat o‘n birgacha xonangizga chiqib olishni unutmang“.

Ulfatlar birinchi va ikkinchi kunlari aytilgan vaqtgacha ishlarini tugatib, xonalariga ko‘tarilib olishdi. Ammo uchinchi kuni ko‘ngilochar (*bazm, tomosha, o‘tirish, konsert*)da uzoqroq qolib ketishdi. Mehmonxonaga qaytishganida soat o‘n birdan o‘n daqiqa o‘tgan edi. Xizmatchilardan liftni ishlatib berishni (*iltimos, talab, da’vo, iddao*) qilishdi, lekin foydasi bo‘lmadi: lift avtomatik ravishda o‘char ekan. Pastda qolishning ham iloji yo‘q, yetmish beshinchi qavatga **zinapoya** orqali piyoda chiqish esa azob. Shunda bittasi:

– Kelinglar, sekin suhbatlashib chiqib ketaveramiz. Avvalgi yigirma besh qavatda (*latifa, qo‘sniq, askiya, topishmoq*) aytamiz, hazil-huzul qilamiz. Keyingi yigirma besh qavatda esa qo‘rqinchli (*voqe, hodisa, xabar, vaziyat*)lardan so‘zlaymiz. Qarabsizki, xonamizga yetib olganimizni

ham (*bilmay, ko'rmay, eshitmay, o'ylab*) qolamiz, – dedi. Bu gap ham-malariga ma'qul keldi.

Darhaqiqat, qiziq-qiziq hangamalar bilan dastlabki yigirma besh qavat ancha tez (*bosib o'tildi, chiqildi, egallandi, ishg'ol etildi*). Keyin jiddiy voqealarning, mardlik qissalarining navbatni keldi. Ulfatlar ikkinchi bosqichni ham amallab ortda qoldirishdi. So'nggi yigirma besh qavatni g'am-g'ussaga (*to'la, boy, chalingan, to'yingan*) hikoyalar, yurakni ezadigan alamlı rivoyatlarni aytib, ming (*mashaqqat, azob, qiyinchilik, nadomat*) bilan bosib o'tishdi. Nihoyat, sillalari qurib, hansirab, tillari osilib, **eshik** oldiga yetib kelishdi. Shunda ulardan biri o'sha (*kun, voqeа, hodisa, vaziyat*)ning eng musibatli qissasini aytdi: „**Kalit** pastda qolib ketibdi!“

Yuqorida o'qiganingiz bir majoziy hikoya edi. E'tibor bersak, insonning hayoti ham mazkur ulfatlarning safariga o'xshab ketadi.

 **9.2-mashq.** Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning majoziy ma'nosi bo'yicha o'z fikr-mulohazalaringizni bildiring.

 **9.3-mashq.** Matn tarkibidagi ajratib ko'rsatilgan usluban g'aliz so'zlarni mosi bilan almashtiring.

## VAQT QADRI

Qadim **davrda** bir olim quyosh soatini ixtiro qilibdi va uni maydonga o'matibdi. Shahar ahli bu soatdan foydalanishni o'rganganlaridan keyin **umr**lari tartibga tushib, ishlari va topish-tutishlarida baraka paydo bo'libdi.

Oradan yillar o'tib, olim **halok bo'libdi**. Shahar aholisi quyosh soatini olimdan qolgan **esdalik** sifatida saqlab qolish maqsadida atrofini o'rab, ustiga chiroyli gumbaz qurishibdi. Qurilishni tugatib qarashsa, gumbaz ostiga quyosh nuri tushmaganligi uchun soat vaqtini **aniqlamay** qo'yibdi. Odamlar o'zları bunyod etgan **binoni** qaytadan qurgilari kelmay, uni shu holicha qoldiribdilar.

Oradan kunlar, haftalar, oylar **kechibdi**. Odamlar soatni unutib, endi bu yerga kelmay qo'yishibdi. Kunlarida ham, ishlarida ham **unum** qolmabdi: ular vaqtning qadrini esdan chiqarishgandi.

Berilgan soʻzlar: zamon, hayot, vafot etibdi, yodgorlik, koʻrsatmay, inshoot, oʻtibdi, baraka.



### Nazariy matn

Jumla tarkibidagi soʻzlar oʻzaro bogʻlanishi uchun ular orasida uslub, mantiq va grammatik jihatdan moslik boʻlishi kerak.

Qiyoslang:

- 1) *Qargʼa sayradi* (uslubiy nomoslik) – *Qargʼa qagʼilladi* (moslik).
- 2) *Otasini suyandi* (grammatik nomoslik) – *Otasiga suyandi* (moslik).
- 3) *Shomda oy boʼzardi* (mantiqiy nomoslik) – *Tongda oy boʼzardi* (moslik).



**9.4-mashq.** Qavs ichidagi birliklardan eng qulayini tanlab soʻz birikmalari tuzing. Bunda nimaga asoslandingiz? Fikr bildiring.



Tong (shamoli, nasimi, yeli), omonat (dunyo, olam, borliq), tushda (tomosha qilmoq, koʻrmoq, nazar solmoq), doʼstlarni (mukofotlash, taqdirlash, olqishlash), (odamni, koʼchatni, kunni) oʼtqazmoq.



**9.5-mashq.** Quyidagi birikmalarning bogʻlanishida qaysi jihatdan nomuvofiqlik mavjud? Jadvalni toʼldiring.

- 1) uch kundan oldin ketmoq;
- 2) kuzdagʻi boychechak;
- 3) vaqtan foydalanish;
- 4) odimlayotgan ilon;
- 5) samolyotda yelmoq;
- 6) gulni barglari;
- 7) mevani ekmoq;
- 8) belkurak bilan chopmoq;
- 9) uyga dam olmoq;
- 10) suv ichida choʼmilmoq.

Mantiqiy jihatdan notoʻgʼri bogʼlangan	Grammatik jihatdan notoʻgʼri bogʼlangan



**9.6-mashq.** Testlarni yeching. Javobingizni izohlang.

### I. Qaysi gapda soʻzlar bogʻlanishidagi moslik buzilgan?

- Titroqni bosishga chiranganidan peshanasi va yuzlarida sovuq ter tomchilari paydo boʻldi. (*X. Do’stmuhammad*)
- Momoqiz oʼrogʼini yerga qadab, roʼmolini boshiga yelvagay qilib oʼradi. (*T. Murod*)
- Zarkosani etaklari ancha tekis, yilqilarni yozda boqish uchun juda bop yaylov edi. (*M. Safarov*)
- U oʼziga kelganida mashinaning qizil chiroqlari uzoqlashgan, yoʼl chekkasida toʼplanib turgan odamlar allaqachon tarqalib ketgandi. (*M. Tillayev*)

### II. Nuqtalar oʻrniga mos qoʼshimchalarni qoʼyib gapni toʼldiring.

Jigarrang jemper kiyib, kichkina qora sherst roʼmoli... dahani... bogʼlab olgan novcha, qotma bir ayol ostona... kira solib u bilan quchoqlashib koʼrishi. (*S. Zunnunova*).

- ning, -ni, -dan;
- ni, -dan, -dan;
- ni, -ga, -dan;
- ga, -ni, -dan;



**9.7-mashq.** Hikmatlarni oʼqing. Ular orasidan „ortiqcha“larini, yaʼni boshqalari bilan bogʼlanmaganlarini qoldirib, vaqtini qadrlash borasida bildirilgan fikrlarni ajratib yozing.

- „Ertaga“ degan soʻz ikkilanuvchan odamlar va bolalar uchun oʼylab topilgan. (*I. Turgenev*)
- Oʼzingni oʼzgartirish qanchalar mushkul ekanini oʼylab koʼr, shunda boshqalarni oʼzgartirishga shunchalar ojiz ekaningni anglaysan. (*Volter*)
- Bir xil yilni 75 marta yashab qoʼyib, uni umr deb atamang. (*Robin Sharma*)
- Sen uchun bir kunning ketishi bir qismning ketishi demakdir. (*Hasan Basriy*)
- Imkoniyat hayotda bir marta berilmaydi, hayotning oʼzi bir bor beriladi. (*Najib Mahfuz*)

6. Bu gulshan ichraki yo‘qdir baqo guliga sabot,  
Ajab saodat erur qolsa yaxshiliq birla ot.

(*Alisher Navoiy*)

7. Tilingda so‘zlaganiningni qalbingda ham so‘zla, ammo qalbingdan kechirmaganiningni aslo tilingga chiqarma.

(*Rumiy*)

8. Ba’zida bir nafas olgulik muddat,  
Ming yulduz so‘nishi uchun yetgulik.

(*G’. G’ulom*)



## Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. So‘zlarning mantiqiy bog‘lanishi deganda nima nazarda tutiladi? Mantiqiy va grammatik jihatdan bog‘lanmagan so‘z birikmalariga misol keltiring.

2. *Gapirmoq, vaysamoq, va’z qilmoq, bayon qilmoq, hikoya qilmoq* fe’llari ishtirokida turli nutq uslublariga xos gaplar tuzing.

3. Quyidagi so‘zlarning asosiy ma’nolarini izohli lug‘atdan aniqlab, lug‘at daftaringizga ko‘chiring: *abdolvash, barvasta, degustator, yelvagay, ziqna*.



## Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

**9.1-topshiriq.** Matnni nuqtalar o‘rniga qavs ichida tavsiya etilgan fe’llardan mosini qo‘yib o‘qing. Undagi asosiy g‘oyani 3 – 4ta jumlada bayon qiling.

### YARIM SOAT

Ekran bir-ikki lipillab turdi-da, chiq etib o‘chdi-qo‘ydi. Kompyuter qarshisida muk tushib ishlayotgan xodimlar baravar uh tortib yuborishdi.

- Voooy, saqlamagandim!
- O‘lsin-a, oozgina qolgandi!
- Eh, yana tugatolmadim!
- Uff, shu yetmay turuvdi...

Haftada olti kun, ertadan kechgacha ekranga ... (*mixlanib, qadalib, tikilib*) ishlashga ... (*ko‘nikib, odatlanib, o‘rganib*) qolgan xodimlar bir zum nima qilarini bilmay serrayib qolishdi-yu, bekorchilikdan asta bir-birlariga so‘z qota boshlashdi.

- Masturaxon, bugun judaa ochilib ketibsizmi? Yangi ko‘ylagingiz buncha yarashibdi?
- Voy, yangiligi qoptimi, Salimaxon, bir haftadan beri kiyib kelaman-ku...
- Nafisa, qizing yaxshimi? O‘qishga ... (*kirdimi, joylashdimi, qabul qilindimi*)?
- Yo‘q, ozgina ball yetmabdi, uch kundan buyon xonadan chiqmay yig‘lab yotibdi.
- Nig‘matvoy, ha, bu... ko‘rinmaysiz?
- Iye, aka, har kuni shu yerdaman-ku!
- Akbar aka, kecha ayangizni ko‘rgandim, sog‘indim, bir xabar olmaydi ham bu bola, dedilar.
- Yaxshi eslatdingiz, Saidaxon, o‘zimam bir ... (*qo‘ng‘iroq qilaman, telefonlashaman, sim qoqaman*) deb yurgandim, hoziroq ... (*gaplashaman, xabarlashaman, so‘zlashaman*).
- Ha, aytgancha, Salim akaning ancha mazasi yo‘qmish, bir ... (*xabar olsak, ko‘rib kelsak, yo‘qlasak*).
- To‘g‘ri ... (*aytasiz, gapirasiz, so‘zlaysiz*), albatta, borish kerak.

Yarim soat. Yarim soatgina vaqt yetarli bo‘ldi mehr, oqibat, hamjihatlik, yaqinlik uchun. Nega zamonaviy texnologiyalarning „t“ harfi, Internetning „i“ harfi yetib bormagan kichik-kichik qishloqlarda mehr-oqibat kuchliyu, tobora ... (*taraqqiy etib, rivojlanib, yuksalib*) borayotgan katta-katta shaharlarda odamlar ham borgan sari begonalashib, oqibat ko‘tarilib boryapti ekan, degan savolga javob topilgandek bo‘ldi shu yarim soatda...

**9.2-topshiriq.** Jadvaldagi so‘zlarni ketma-ketlikda joylab, yashiringan o‘zbek xalq maqollarini toping. Bu maqollarni bir mavzu ostiga birlashtiring.

*Namuna:* Ertalabgi ish – ko‘ngilni qilar xush.

1	2	3	4	5
O‘tgan	ish	ko‘ngilni	berar	xush
Oldin	vaqt	hosilga	qilar	yaxshi
Kechning	otlangan	yo‘qolgan	nasibasi	barakat
Barvaqt	xazinasidan	manzilga	oltindan	borar
Ertalabki	harakat	ertaning	oldin	qimmat

## 10-mavzu. SINONIM SO‘ZLAR USLUBIYATI



**10.1-mashq.** Matnni o‘qing va uning asosiy mazmunini bir jumlada bayon qiling.

### DEVON ORZUSIDA...

Navoiy ko‘pdan buyon xayolini band etib, lekin tinch vaqt topolmaganidan orqaga tashlab kelayotgan orzusi – katta devon tuzishga kirishdi.

U g‘azallarni umrining poyalariga qarab – bolalik, yigitlik, o‘rta yoshlik, nihoyat, qarilik kabi to‘rt faslga bo‘lishni ma’qul ko‘rdi va qog‘ozlarni bir-bir ko‘zdan kechirib ayira boshladi. G‘azallar behad ko‘p, ulardan butun yashalgan umrning qaytmas nafasi gurullaydi. Hammasining bir tarixi bor, maskani bor. Mana, Mashhaddagi tashlandiq hujrada xasta-g‘arib yasharkan, o‘n olti-o‘n yetti yoshlarida yozgan g‘azallari... Mana bu esa Samarqandga kelgan kunlarda Xo‘ja Fazlulloh Abullays xonaqohidagi hujrada bitilgan misralar. Mana, ko‘ngilning toza, sirli hayajonlaridan ko‘ksi to‘lib, maktabdan qaytish bilan bir burchakka tanho tiqilib aytgan ilk g‘azallari. Bularni mehribon onasiga o‘qib berganda, u qanday suyungan, bag‘riga bosib qanday o‘pgan edi; bu bo‘sанинg mehrini shoir go‘yo o‘z yuzida shu damda tuyganday bo‘ldi.

Otasi G‘iyosiddin Kichkina bu o‘ychan, xayolchan o‘g‘ilchaning ilk mashqlarini o‘qib, hayajon bilan uni quchoqlamaganmidi? Sovg‘alar keltirmaganmidi? Bu g‘azallar yillarning qa‘ridan jonli, iliq xayollarni, xotiralarni uyg‘otdi. Navoiyning ko‘z oldidan o‘zining bolaligi o‘tdi. U kichkina Alisherni ko‘rdi. Ancha vaqt xayollar, xotiralar sehrida qoldi. Yuragida hasrat qaynab ketdi. Bu umr tongini sog‘inish edi, chaqaloq onasining qo‘lida turib, to‘lin oyga qo‘l uzatgani kabi behuda, lekin ma’nodor hasrat edi... (Oybek)



**10.2-mashq.** Berilgan gaplarda nuqtalar o‘rniga *bormoq* va *ketmoq* fe’llaridan mosini qo‘yib ko‘chiring.

*Namuna:* Beshigimning oldidan qabrim oldigacha yo‘l,  
Men... bir kuni, navolarim, zorim qolur. (*M. Yusuf*)

Beshigimning oldidan qabrim oldigacha yo‘l,  
Men ketarman bir kuni, navolarim, zorim qolur.

(M. Yusuf)

1. To‘riqni ko‘pkarilarga boqdi, ko‘pkarilarga shayladi. Chavandozlar bilan olislardagi ko‘pkarilarga ... di. (*T. Murod*)
2. Bu kunlarda uning qalami shunday g‘avg‘o ko‘tardiki, Hirotda qayerga ... sangiz, Sultonali haqida eshitasiz. (*Oybek*)
3. Dunyodan ne-ne ulug‘ zotlar, ne-ne allomalar o‘tmagan, ularning birortasi ham „Men bundayadolatsiz zamonda tug‘ilishni istamayman“, deb ortiga qaytib ... gan emas. (*Sh. Boshbekov*)
4. Sen ... ding-u yangroq sahnim Befayz, benur, bo‘shab qoldi. (*Mirtemir*)



**10.3-mashq.** Oybekning „Navoiy“ romanidan olingan parchani o‘qing. Ifodalangan fikr yuzasidan mulohaza bildiring.

„Jang maydoni yigitlarga husn bag‘ishlaydi. Yigit uchun mardlik, qahramonlikdan o‘zga ulug‘roq, oliyroq bir fazilat bormi?“ – dedi Navoiy.

1. Ushbu ko‘chirma gapli qo‘shma gapni o‘zlashtirma gapga aylantiring. Muallif gapining kesimi qanday o‘zgarishga uchradi?
2. Gapda qanday sinonim so‘zlar uchradi? Sinonimlar qatorini davom ettirishga harakat qiling.



**10.4-mashq.** Nuqtalar o‘rniga *aytmoq* va *demoq* fe’llaridan mosini qo‘yib ko‘chiring.

1. Aziz shogirdim! Hozir ... moqchi bo‘lgan so‘zlarimni aql chig‘irig‘idan o‘tkazib, tafakkur elagida saralab, diqqat qulog‘ing birla eshitib, yuragingga joylaginki, bundan ko‘p va xo‘p manfaatlar topgaysan. („Farzandnomalar“dan)

2. O‘n to‘rt kunlik oyday farishta bo‘lib, Shirin tushlarimni suvlarga ... dim. (*O. Hojiyeva*)

3. Yog‘och mixga ... di: „Meni yaralading!“ Mix: „Boshimga tushgan zarbalarning og‘irligini bilganingda edi, meni kechirarding“, – ... di.

4. Hovonchaga ... m: „Nomig ko‘p baland,  
... , kimdan chekasan bunchalar faryod?“  
... di : „Ne til bilan ... ay, ey Sa’diy,  
Zarbni o‘z yorimdan yeypman umrbod!“

(Sa’diy Sheroziy)



## Nazariy matn

Sinonim birliklarning ma’nosи yaqin bo‘lsa-da, ammo bir xil emas. Ular ifoda bo‘yog‘iga ko‘ra farqlanadi. Ba’zilarida bo‘yoq kuchli, boshqasida kuchsiz (*bo’sh – latta*), ba’zilarida ijobiy, ayrimlarida salbiy (*kulmoq – tirjaymoq*) bo‘ladi. Sinonimlar uslubiy xoslanganlik jihatidan ham o‘zarо farqlanadi. Sinonimlar birikuvchilarni ham tanlaydi. Masalan, *stolning yuzi* deyish mumkin, ammo *stolning basharasi* deb bo‘lmaydi. Ayrim sinonimlik munosabati barqaror (*kishi – odam – inson*), ayrimlari nutqiy (*go’zal – oy – gul*) hisoblanadi.



**10.4-mashq.** Nazariy matn mazmunini tushuntirib bering.



**10.5-mashq.** Testlarni yeching. Javobingizni izohlang.

1. Qaysi qatorda „ortiqcha“ sinonimlar berilgan:

- A. Qizil, ol.
- B. Gulgun, arg‘uvoni.
- C. Arg‘uvoni, qirmizi.
- D. Zard, axtar.

2. Boshqotirmadagi nuqtalar o‘rniga sinonimlar qatoridan maqbulini qo‘yib, rasmdagi yashirin jumlanı yakunlang.



- A. boqar;
- B. qarar;
- C. nazar solar;
- D. termular;



**10.6-mashq.** Nuqtalar o‘rniga *olmoq* va *qabul qilmoq* fe’llaridan mosini qo‘ying.

- O‘zbekoyim burchakda bola ko‘tarib o‘tirgan Zaynabdan chaqaloqni ... (ol, qabul qil)ib, uni jomni to‘kib kelishga buyurdi. (*A. Qodiriy*)
- Bemor ko‘zini ochib, qizchasini yoniga tortdi va pichirladi: – Xudo qizimning saharlari qilgan duosini dargohida ... di. (*A. Qahhor*)
- Suv tutayin senga billur buloqlardan, Og‘ushimga ... ay seni musli ko‘klam. (*O. Hojiyeva*)
- Hazratim, bergen o‘gingizingni bebahoh gavhar o‘rnida ... urmiz. (*P. Qodirov*)
- Yig‘ilishda bu masala yuzasidan qaror ... ingandan keyin, ikkinchi masalaga o‘tildi. (*A. Qahhor*)
- Bu qasidam senga, xalqim, oq sut-u tuz hurmati, Erkin o‘g‘lingman, ..., o‘zbegin, jon o‘zbegin. (*E. Vohidov*)
- Usta Olim otning jilovidan qo‘lini ..., hovlining etagiga sudradi. (*A. Qodiriy*)



**10.7-mashq.** She’riy parchadagi sinonim so‘zlarni aniqlang va ularning ma’no nozikligini izohlang.

Bu mo‘ysafid Hotamtoy emas,  
Valiy emas, keksa nuroni.  
U olamga berib turgan dars –  
O‘zbeklarning toza iymoni.

(*F. Hayit*)



### Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

- Qaysi nutq uslubida sinonim so‘zlar uslubiy bo‘yoqsiz qo‘llanadi?
- Barqaror sinonimlar nutqiy sinonimlardan qanday farqlanadi?
- Sinonimlarning uslubiy xususiyatlari badiiy uslubda qanday ahamiyatga ega?
- Quyidagi baytda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar o‘zaro sinonim bo‘la oladimi? Ularning qo‘llanishiga munosabat bildiring:

Aytdi: „Ey bechora, qilding na uchun **tarki vatan**?“  
Men dedim: „**G‘urbatda furqat** bor ekan taqdirda!“

(*Furqat*)



### Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

- 10.1-topshiriq.** Nuqtalar o‘rniga *afsuslanmoq*, *pushaymon* bo‘lmoq, *o‘kinmoq* fe’llaridan mosini tanlang.

1. Otasi jahl ustida shundoq qilayotganini, zum o‘tmay ...ishini, butun umidlari shu qizidan ekanligini biladi. 2. Negadir tezda o‘z hukmimdan qaytdim-da, yana u yoqqa borishga ahd qildim. Agar shunday qilmasam, keyin umr bo‘yi ...ib yurishim menga ayon bo‘ldi. 3. Men Asalning oldiga borishga yana bir bor urinib ko‘rmay, shoshma-shosharlik qilib ketib qolganim uchun ko‘pdan beri ich-ichimdan ...ib yurar edim. (Ch. Aytmatov)

**10.2-topshiriq.** Gaplardagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardan sinonimik qator tuzing va ularning uslubiy qo‘llanish doirasini aniqlang. Ma’no nozikligiga e’tibor qarating.

1. **Gangib qolgan** Mahkam o‘zini uquvsizgina mudofaa qilardi. (P. Qodirov) 2. Yodgor shamoldan gandiraklaganday **dovdirab** borarkan, kuzda bo‘lgan majlisni esladi. (O‘. Hoshimov) 3. Lekin xirmonda qolib, qo‘li ishdan qoldi deguncha Jamila o‘tirgani joy topolmay **kalovlanib** qolardi. (Ch. Aytmatov) 4. O‘rtalaridagi sirdan dasturxonching xabar-dorligidan hayron bo‘ldi, o‘zini bilmaslikka olib **talmovsiradi**. (R. Fayziy) 5. To‘xtab turib yana tuproqni tashlab, bir tarafga qochib, cho‘chib, yaqosini ushlab, lahadga qarab, **obdirab...** hoy, hoy, hoy, bay, bay, dedi. (H.H.Niyoziy)

## NAZORAT ISHI. TEST

### 11-mavzu. ANTONIM SO‘ZLAR USLUBIYATI



**11.1-mashq.** Matnni o‘qing. Unda zid juftliklarning qaysi sinonimlari qo‘llanilganligini aniqlang.

### MAHMUD G‘AZNAVIY VA AYOZ

Bir kuni Mahmud G‘aznaviy ovga chiqdi. Bir jayronning ortidan quvar ekan, hamrohlardan ancha uzoqlashib ketdi. Nihoyat, bir uyni ko‘rdi. Horg‘in, terlagen, suvsagan holda o‘sha uyga yaqin borib suv

so‘radi. Qarshisiga yosh Ayoz chiqdi. Sulton Mahmudning qiyofasidan obro‘li, martabali zot ekanini fahmladi va hurmat bajo keltirib dedi:

– Sultonim, jaziramada qolibsiz. Nafasingizni rostlab, salqinda dam olib turing. Shu atrofda suvi muzdek va zilol bir chashma bor. Otam haligina o‘scha yerga ketdilar, hademay keladilar. Sizga o‘scha suvdan berayin, – dedi.

Ayoz kambag‘al bo‘lsa-da, shirinso‘z va odobli yigit edi. Tevarak-atrofning go‘zalligidan, odamlar hayotidan gapirib, ancha payt hukmdorni chalg‘itib turdi. Yigit suhbat asnosida bir kosa tiniq, sovuq suv olib keldi. Sulton suvni miriqib ichdi va tan-u joni xiyla rohatlanganini aytdi, chidayolmay:

– Otangning uzoq chashmadan suv olib kelishini aytgan eding. Vaholanki, suvni uydan olib chiqding, buning sababi nimada?

Ayoz javob berdi:

– Podshohim, bu yerga kelganingizda issiqdan tanangiz qizib, juda charchagan va terlagan edingiz. Sizni gappa solib biroz sovishingizni, teringiz qurishini kutdim, afv eting, hazrati oliylari.

Sulton Mahmud bu yoshgina yigitchaning farosatiga, iliq muomalasiga qoyil qoldi. Oиласидагиларнинг розилигини олиб, уни сарояга келтириди. Айознинг оғолидаги чориг‘и, егнидаги арzon по‘стинини ячиб, унга қимматбахо ко‘ylaklar киydirdi va xizmatiga oldi.



### **11.2-mashq.** Berilgan so‘zlardan moslarini topib gaplarni tugallang.

1. Biz qanchalik ... bilsak, shunchalik ... taxmin qilamiz. (*G. Shou*)
2. ... chehra ortida ... qalb borligini bilib bo‘lmaydi. (*Koreys xalq maqoli*)
3. ... ehsondan qochar, ... mehmondan qochar. (*O‘zbek xalq maqoli*)
4. Dushmaningga yengilganing uning ...ligidan emas, sening ...-ligingdan dalolatdir. (*U. Xayyom*)

*Tavsiya etiladigan so‘zlar:* baxil-xasis, kam-ko‘p, dono-nodon, go‘zal-xunuk.

**11.3-mashq.** Nutq uslublariga xos sifat antonim so‘zlar tanlang va ularni berilgan jadvalga to‘g‘ri joylashtiring.

*Namuna:* zaif fikr – asosli fikr, kuchli fikr, yorqin fikr.

1. Zaif fikr – (asossiz, asosli, kuchli, baland, yorqin).
2. Vafodor yigit – (bevafo, sotqin, xiyonatkor, sadoqatli, jafokor, munofiq).
3. Oson jang – (qiyin, mushkul, oddiy, o‘ng‘ay, og‘ir, mashaqqatli, dushvor).
4. Chiroyli yozuv – (xunuk, qo‘pol, tasqara, beo‘xshov, sovuq, ko‘rkam).
5. Zerikarli uchrashuv – (qiziqarli, qiziq, ajoyib, antiqa, g‘aroyib, allambalo).
6. Qoloq jamoa – (ilg‘or, zaif, zarbdor, peshqadam, yetakchi, karvonboshi, kuchsiz).
7. Harakatchan xodim – (sovuccon, beg‘am, serharakat, ishyoqmas, urinchoq, loqayd, tanbal).
8. Sodda yigit – (yuvosh, qo‘ydek, ayyor, munofiq, muttaham, anoyi).
9. Qorong‘i g‘or – (yorug‘, nurli, charog‘on, oydin, ravshan, nrafshon).

Birikmalar	Uslublar			
	so‘zlashuv uslubi	publitsistik uslub	badiiy uslub	ilmiy uslub



### Nazariy matn

Antonim so‘zlarning har biri sinonimiga ega bo‘lishi mumkin: *aka (birodar) – uka (ini)* kabi. Bu ularning turli uslubga xosligidan kelib chiqadi. Sinonimlar va antonimlar o‘zaro zich bog‘langan. Til birliklarining uslubiy xoslanganlik qonuniyati sinonimlar va antonimlarni o‘zaro bog‘lab turadi.



**11.4-mashq.** Nazariy matn mazmunini tushuntirib bering.



**11.5-mashq.** „Mahmud G'aznaviy va Ayoz“ matni asosida test.

**I. Ayoz kambag‘al, biroq shirinso‘z, baodob yigit edi. Shu gapdagi ajratilgan so‘zning zidi ishtirok etgan javobni belgilang.**

A) Maorif mudiri Xizirov Elmurodning talabiga qarshi qo‘pol gapirdi. (*P. Tursun*)

B) Yo‘lchi yerning tosh bag‘rini yorib, to‘nka qo‘poradi. (*Oybek*)

C) Shirin so‘z – qaymoqli ayron. (*O‘zbek xalq maqoli*)

D) Go‘ringda to‘ng‘iz qo‘pkur zolim mingboshi ikkita qilichday bolamni mardikorga jo‘natdi. (*M. Ismoiliy*)

**II. Sulton Mahmudning qiyofasidan obro‘li, martabali zot ekanini fahmladi. Ushbu gapdagi sifatlarning antonimi ishtirok etgan javobni aniqlang.**

A) Ko‘p o‘tmay Abdurahmon madrasa ahli orasida ham beobro‘ bo‘lib qoldi. (*A.Qodiriy*)

B) Bu muloyim tog‘ yigitining o‘sha kungi so‘zлari beozor qizning yuragida tug‘yon qo‘zg‘adi. (*T.Rasulov*)

C) Yo‘ldan urdi qaysi bir makkor? Ochig‘ini so‘zlagil, beor! (*H. Olimjon*)

D) Tun bo‘yi beorom to‘qiganim ul – tivist ro‘mol emas, kechir, onajon. (*G.Jo‘rayeva*)

**III. Loyqa xayolotlar chashmaday tindi, Pok-pokiza yurak – bir qatra simob. (G.G‘ulom) Ushbu she’riy parchadan ajratib ko‘rsatilgan so‘zning antonimini matndan toping.**

A) qimmatbaho; B) shirinso‘z; C) yosh; D) zilol

**11.6-mashq.** Antonim so‘zlarning har biriga berilgan so‘zlardan sinonimlar toping va chiziqning ikki tomonidagi sinonimlarni salbiy/ijobiy bo‘yog‘ining ortib/kamayib borishi asosida tartiblang.

Yaxshi – yomon, ho‘l – quruq, xavfli – xavfsiz, xursand – xafa, toza – iflos.

Namuna:

<i>Yaxshi, tuzuk, durust, soz, ajabtovor</i>	<i>Yomon, bo'limg'ur, yaramas, rasvo</i>
--	--

**Berilgan so‘zlar:** durust, nam, xavotirsiz, yaramas, tuzuk, xatarsiz, rasvo, soz, qo‘rqinchli, xatarli, qoq, tinch, bo‘limg‘ur, shalabbo, burishiq, tahlikali, ajabtovor, g‘amgin, musaffo, masrur, irkit, ozoda, ivirsiq, beg‘ubor, xushvaqt, isqliqi, xushnud, ma'yus.


 **11.7-mashq.** She’riy parchani o‘qing. Unda ishtirok etgan antonim so‘zlar ro‘yxatini tuzing.

## INSON

Sobit-u sayyorada  
Inson o‘zing, inson o‘zing.  
Mulki olam ichra bir  
Xoqon o‘zing, sulton o‘zing.

Sobit o‘z ma’vosida,  
Sayyor fazo dunyosida,  
Koinot sahrosida  
Karvon o‘zing, sarbon o‘zing...

Bu yorug‘ dunyo nadur?  
Koshonadur, vayronadur,  
Senga mehmonxonadur,  
Mehmon o‘zing, mezbon o‘zing.



Bunda oq birla qaro,  
Zulmat, ziyo, shoh-u gado  
Jang qilurlar doimo,  
Ul yon o‘zing, bul yon o‘zing.

Sen balo, ham mubtalo,  
Xayr ila kin, rost-u riyo,  
Fitnagar olam aro  
Fatton o‘zing, qurban o‘zing.

Gohiadolat bog‘ida,  
Piri adovat gohida,  
O‘z diling dargohida  
Shayton o‘zing, g‘ilmon o‘zing.

Xormisan yo gulmisan,  
Tojdormisan yo qulmisan,  
Chug‘zmisan, bulbulmisan,  
Nolon o‘zing, xushxon o‘zing...

Sen hilol, yulduz, salib,  
Tavrot, Zaburdin yuksalib,  
Boymisan yoki g‘arib,  
Komron o‘zing, yakson o‘zing...

(Erkin Vohidov)



## Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Badiiy uslubda antonim so‘zlar qanday san’atni hosil qiladi?
2. Xalq og‘zaki ijodining qaysi janrlarida antonim so‘zlardan unumli foydalilanildi?
3. Berilgan matndagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zning antonimini o‘z ma’nosida qo‘llab ko‘ring. Uslubiy bo‘yoq dorlik xususiyati haqida fikringizni bildiring.  
Luqmoni Hakimdan:  
  - Xastaga nima yediraylik? – deb so‘rabdilar.
  - **Achchiq** so‘zdan boshqa nima yedirsangiz, yediravering, – debdi Hakim.



## Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

**11.1-topshiriq.** Tavsiya etilgan so‘zlardan qatordagi barcha so‘zga zid bo‘la oladigan so‘zni toping.

1. Kasal, betob, bemor, xasta
2. Keyin, so‘ng, innaykeyin, ba’daz
3. Notinch, bezovta, besaranjom, alg‘ov-dalg‘ov
4. Chaqqon, epchil, chechan, abjir

*Tavsiya etilgan so‘zlar:* nimjon, sog‘lom, baquvvat; avval, oldin, so‘ngra; dolg‘ali, sertashvish, osuda; lapashang, noshud, tezkor.

**11.2-topshiriq.** „Kim ko‘p topadi?“ sharti asosida ajratib ko‘rsatilgan antonim so‘zlar juftining har biri uchun sinonimlik qatorini tuzing.

*Namuna:* yoshlik – navqironlik, qarilik – keksalik, mo‘ysafidlik, nuroniylik

**Yoshlikda** bilgani – toshga yozgani,  
**Qarilikda** bilgani – muzga yozgani.

Hunarli er xor bo‘lmas,  
**Do‘s-t-dushmanga** zor bo‘lmas.

Yolg‘on aytib **foyda** ko‘rsang,  
 Oxiri **zarar** toparsan.

## 12-mavzu. OMONIM SO‘ZLAR USLUBIYATI



**12.1-mashq.** Tuyuqlarni o‘qing (tinglang). Omonim so‘zlarni topib, qaysi ma’noda qo‘llanganini aniqlang.

Yo rab, ul shahd-u shakar yo labdurur,  
 Yo magar, shahd-u shakar yolabdurur.  
 Jonima payvasta novak otqali  
 G‘amza o‘qin qoshig‘a yolabdurur.

Olmani sundi nigorim, „ol“, dedi  
 Olma birla bu ko‘ngulni „ol“, dedi  
 So‘rdim ersa olmasini rangini  
 Ne so‘rarsen, olma rangi „ol“, dedi

Yo qoshingdin necha bir o‘q ko‘z tutay,  
 Otki, o‘trusiga oning ko‘z tutay.  
 Necha ko‘rgach o‘zga mahvashlar qoshin,  
 Yangi oy ko‘rgan kishidek ko‘z tutay.

(Alisher Navoiy)

**12.2-mashq.** Gaplardagi ajratilgan so‘zlarning omonimlarini topib yozing.

- Agar birovning tashvishi seni ham tashvishga solsa, bilki, hali **tabiating** toza ekan.
- Yovuz odam ko‘mirga o‘xshaydi: yuzingni

**qora qiladi, o'tda kuydiradi.** 3. Bizning **maqom**imiz ishq, usulimiz odobdir. Eshigimizni emas, ko'nglimizni cherta olgan, marhamat, kelsin! 4. Insonni **yosh** emas, boshidan kechirganlari, xatolari, iztiroblari, og'riqlari ulg'aytiradi. (*Shams Tabriziy*)

*Tavsiya etiladigan so'zlar:* fe'l, sajiya, xulq, xil'at; yomonotliq qiladi, qoraytiradi, kasri tegadi, nuqsi uradi, yomon qilib ko'rsatadi; daraja, bosqich, yo'l, usul; yil, umr, hayot.

*Namuna:* tabiat – fe'l, sajiya, xulq, xil'at.

**12.3-mashq.** Quyida berilgan gaplarda qanday omonim so'zlar qo'llanganligini aniqlang.

1. Kiyik ovlarga chiqqanda 4–5 kunlar kimsasiz kamarlarda yotib, pistirmalarda tunab, yolg'izlikka mutlaqo o'rghanib ketgan Omon mernan xotinsiz uyiga ham ko'nikdi. – Men ketay deb, tez yetay deb bog'ladim belga kamar. (*Cho'pon*) 2. Urdi Hasan dovulni, qattiq tortib aylini. („*Ravshan*“ *dostoni*) – Yolg'izlik qursin, yolg'izlikka qorong'i tunda shabada ham dovul bo'lib tuyular ekan. (*A.Yo'ldoshev*) 3. Dutorning nozik torlaridan chiqqan „*Navo*“ kuyi o'z nolasiga tushunguvchi Otabekdek yigitlarga juda muhtoj edi. (*A.Qodiriy*) – Ipak mato rang-barang noziklar, yarqiroq pistonlar bilan bezatilgan edi. (*Oybek*) 4. Qarg'a „*qag*“ etadi, o'z vaqtini chog' etadi. (*Maqol*) – Kechdi qancha intizor chog'lar, Vasling menga bo'lindi nasib. (*A.Oripov*)

*Namuna:* vaqt, xushnud; ingichka, munchoq; nog'ora, shamol; tasma, g'or.



### Nazariy matn

Omonim so'zlar, odatda, lug'atlardagina (nutq tarkibiga kirmagan holatda) omonim bo'lib turadi. Ular shaklan bir xil bo'lsa-da, bitta so'z emas. Omonim so'zlarning har biri nutqda biror grammatik shakllarni qabul qiladi va shundagina ularning qaysi ma'noni ifodalashi ayon bo'ladi. Agar shunday bo'lmasa, omonimlarning ma'nosini anglab bo'lmay qolar va bu ayrim fikrni tushunishda chalkashliklarni keltirib chiqarar edi.

She'riyatda omonim so'zlar turkiy tuyuq janri uchun xizmat qiladi.



**12.4-mashq.** Nazariy matn mazmunini uqing va tushuntiring.



**12.5-mashq.** Testlarni yeching. Javobingizni izohlang.

1. Quyidagi qaysi qatorda ot (ism), ot (hayvon), ot (fe'l) so'zlarining noto'g'ri tavsifi berilgan:

- A) bir xil shaklga ega bo'lgan uchta so'z;
- B) bir xil shakldagi alohida ma'noga ega bo'lgan so'zlar;
- C) o'zaro omonim so'zlar;
- D) bir xil shaklga ega bo'lgan ko'p ma'noli so'z.

2. Quyidagi so'zlarning qaysi biri o'tmishda pul birligi ma'nosini ifodalagan omonim so'z?

- A) chelak; B) paqir; C) moyana; D) maosh.



**12.6-mashq.** Ajratib ko'rsatilgan omonim so'zlarning ma'nolarini izohlang. Ular o'rниga berilgan so'zlardan sinonimlar tanlang.

*Namuna:* may – bahorning so'nggi oyi; may – sharob, chog'ir, boda, mast qiluvchi ichimlik...

Har yili bahorning so'nggi oyi oxirlarida bog‘ chetidagi gilosning shig‘il pishganini chug‘urchiqlar ovozidan bilamiz. – Xarobot aro kirdim oshuftahol, boda istarga ilgimda singan safol.

1. Har yili **may** oyining oxirlarida bog‘ chetidagi gilosning shig‘il pishganini chug‘urchiqlar ovozidan bilamiz. (*A. Muxtor*) – Xarobot aro kirdim oshuftahol, **May** istarga ilgimda singan safol. (*Alisher Navoiy*)

2. Belimga bir **balo** bo'ldimi? Nima zaril edi, Ochil akaga achchiq qilib, shuncha yuk ko'tarib... (*O'. Hoshimov*). – Tog‘ang **balo** ekan, Kimsan. Kelin bo'lmish Ra'noxon ikki jahoning biri. (*O'. Hoshimov*)

3. **Qiyig'**imni bog‘lamadi **qiyiq** ekan, boqsam, ko‘zi sho‘x-u qoshi quyuq ekan. (*T. To'la*) – Deraza oynalariga turli shaklda **qiyiq** qog‘ozlar yopishtirilgan. (*Oybek*)

4. Agarda sen biz tomonga kelmasang, Temur, bilib qo'yki, xotunlaring uch **taloq** bo'lgay. Agar seni yenga olmay chekinsam ortga, unda mening xotunlarim bo'lsin uch taloq. (*A. Oripov*) – Taning darmonga

chanqoq, Bo'lsa kamqonlik, charchoq, Og'risa jigar, **taloq**, Yana yegin ismaloq. (K. Turdiyeva)

5. Nazarimda, yuragimning urishini butun **dunyo** eshitayotgandek edi. (O'. Hoshimov) – Men dunyoga kelib, **dunyo** orttirdim. (A. Muxtor)

6. O'ng qoshi ustidagi kichkina **ortiq** ham quruq qolmadi, tiniq yuzda „mama men“ deb o'z rassomini quvontirdi. (Oydin) – Darrov hovlini o'z bahosidan ancha **ortiqqa** olibdi. (A. Qahhor)

7. Dunyo ekan... ishq degan **savdo** Bormi faqat mening boshimda?! (E. Vohidov) – Bir kuni qaynatasi Yodgorga maslahat soldi: „Qachongacha qishli-qirovli kunlardayam loy changallab yurasiz? **Savdoga** kiring – savdoda gap ko'p“. (O'. Hoshimov)



## Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Omonim so'zlar ko'p ma'noli so'zlardan qanday farq qiladi?
2. *Illoining yog'ini yalagan, qo'li egri, terisi qalin iboralarida omonimlik xususiyati mavjudmi?*
3. Qochirim, kinoya, so'z o'yinlarini yuzaga keltirishda omonim so'zlardan qay tarzda foydalaniladi? Misollar ayting.
4. Alisher Navoiy qit'asidan keltirilgan misralardagi tajnis san'atini izohlang:

*Anda har bayt necha ma'ni ila  
Bayt emaskim, g'arib xonadurur.*



## Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

**12.1-topshiriq.** Berilgan omonim so'zlarni so'z turkumlari bo'yicha tasniflang.

Bosma – bosma; kez – kez; ilmoq – ilmoq; chog‘ – chog‘; sazo – sazo; qir – qir; tuman – tuman; yara – yara; qil – qil; shira – shira; savag‘ich – savag‘ich; uch – uch; tom – tom; oshiq – oshiq.

*Namuna:* bosma (fe'l) – bosma (sifat)

**12.2-topshiriq.** Quyidagi she'rlarni yodlang va omonim so'zlarning ma'nolarini ayting.

Meni behol aylagan yor oydurur –  
 Kim, oning vasli menga yoroydurur.  
 Gar visoli bo'lmasa, ketar yerim  
 Yo Xuroson, yo Xitoy, yo Roydurur.

(Bobur)

G‘am yuki to qomatim yo qilmadi,  
 Ohim o‘tig‘a falak yoqilmadi,  
 Qilmadi rahmi mango, xud o‘zgaga  
 Bilmadimkim, qildimu yo qilmadi.

(Ogahiy)

Qariganda halovat kerak,  
 Arzir men ham tin olsam yengil.  
 Lekin bunga yurmaydi yurak,  
 Ko‘ngil desam, ko‘nmaydi ko‘ngil.

(E. Vohidov)

## MUSTAHKAMLASH DARSI

**1-topshiriq.** Matnni o‘qing.

### NOSHUKURLIK BALOSI

Mo‘g‘ul imperatori Chingizzxonning nabirasi Xulagu **Bag‘dodni** qo‘lga olib, shaharni boshdan oyoq talon-taroj qiladi. Bu **qirg‘inbarotda** 400 ming kishini qatl ettiradi. Bir necha asrlik masjidlar, saroylar, kutubxonalar Xulagu navkarlari tomonidan yakson qilinadi.

Shahar tashqarisiga qarorgoh qurdirgan zolim hukmdor bu yerning eng katta olimi bilan ko‘rishmoqchi bo‘ladi. Tabiiyki, hech qaysi olim Xulagu bilan uchrashishga talabgor bo‘lmaydi. Shunda Qozixon ismli yosh olim hukmdor qarshisiga chiqadi. U o‘zi bilan bittadan tuya, echki va xo‘roz olib boradi. Yigitning boshidan oyog‘igacha qarab chiqqan Xulagu yosh olimga:

– Qarshimga olib chiqish uchun qidirib-qidirib seni topishdimi? – deydi.

- Agar mendan kattarog‘ini kutayotgan bo‘lsang, u tashqarida turibdi,
- tuyani ko‘rsatadi Qozixon.
- Agar sen soqolli olimni tilasang, u ham bor; ovozi o‘tkiri kerak bo‘lsa, unisini ham olib kelganman,
- deb echki va xo‘rozga ishora qiladi.

Xulagu ro‘parasida turgan Qozixonning oddiy odam emasligini sezib,unga savol beradi:

- Ayt-chi, meni sening yurtingga kim va qanday sabab yetaklab keldi?
- Yosh olim juda og‘ir gapni aytibdi:
- Seni bu yerga bizning **a‘mollarimiz** yetaklab keldi. Shukur qilishni unutib, **kayf-safoga** berildik. Maqom, mavqe va dunyo ortidan quvdik. Alloh bergen ne’matlarini qaytarib olish uchun seni yubordi.

Shundan so‘ng Xulagu keyingi savolini beribdi:

- Yaxshi, meni bu yerdan kim ketkiza oladi?
- O‘zligimizga qaytib, bizga ato etilgan ne’matlarning **qiymatini** bilib, **tavba** qilsak, bir-birimiz bilan tortishishdan voz kechsak, ana o‘sha payt sen bu yerda turolmaysan! – deb javob beribdi Qozixon.

Xulagu yosh olimning aqliga tan berib, uni omon qoldirgan ekan.

Matn mazmunidan kelib chiqib, quyidagi savollarga javob bering.

1. Rivoyat nima uchun „Noshukurlik balosi“ deb atalgan?
2. Unga yana qanday sarlavha qo‘yish mumkin?
3. Matnda qaysi uslub xususiyatlari ustun?
4. Rivoyatdagi „Xulagu“ timsoli bilan xalqimiz orasida yuradigan „Xulaguning iti“ („Xalakaning iti“) iborasi orasida bog‘liqlik bor-yo‘qligini tarix fani o‘qituvchingiz yordamida aniqlang.



**2-topshiriq.** Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning izohini tayyorlang.



**3-topshiriq.** Berilgan fikrlarning qaysi biri hikoyat mazmunining xulosasini ifodalaydi:

1. Inson bolasi o‘ziga berilgan ne’matlarning qadriga yetishi zarur;
2. O‘zligini unutgan xalqdan Alloh ham yuz o‘giradi;
3. Nizo-tortishuvlarsiz g‘alabaga erishish mumkin.
4. Tavba va shukronalik bilan istaganingga erishasan.



**4-topshiriq.** Quyidagi so‘zlarning matndan antonimlarini toping.

Yodda saqlamoq, bunyod etmoq, g‘amxo‘r, ichkari, keksa, qochmoq.



**5-topshiriq.** Quyidagi so‘zlarning sinonimik qatorini yarating:

Payt, ato etmoq, hukmdor, qarorgoh, dunyo, quvmoq.



**6-topshiriq.** Matndan omonim so‘zlarni aniqlang.



## Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar



**7-topshiriq.** Boshqotirmada yashiringan maqolni toping.



**8-topshiriq.** „Noshukurlik balosi“ matni mazmunini ravon so‘zlab berishga harakat qiling.

## 13-mavzu. PARONIM SO‘ZLAR USLUBIYATI



**13.1-mashq.** Matn bilan tanishing. Nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi paronim so‘zlardan mosini tanlang.

### FOJIA NIMA?

Hayotimizda biz ko‘rmagan yoki bilmagan turli ... (hil, xil) voqeal-hodisalar, jumladan, fojialar ... (ham, xam) yuz berib turishi mumkin. Hayotni tekis, silliq yo‘llardan iborat, deb o‘ylash xatolik, ... (yana, ya’ni) nodonlikka yaqin bo‘lgan fojiadan boshqa narsa emas. Shunday dahshatli hodisa ham sodir bo‘lishi mumkinki, bundan ba’zilar: „Endi bu ... (yog‘,

yoq)ini davom ettirishdan ma’no yo‘q“ ... (qabil, qabul)ida umidsizlikka tushadilar. Yo‘q, bu noto‘g‘ri! Siz katta xato qilyapsiz. Buyuk davlat arboblaridan biri: „To‘qson to‘qqiz foiz mag‘lubiyatga uchraganiningizda ham kurashni aslo to‘xtatmang“, degan ekan.

1914-yilning dekabrida, o‘z davrining ... (nufusli, nufuzli) olimi Tomas Edison oltmis yetti yoshga to‘lganida, uning laboratoriysi butunlay yonib ketadi. Bu falokat olimga ... (naq, naqd) uch yarim million markaga tushadi. Laboratoriya bor-yo‘g‘i 400 ming dollarga sug‘urta qilingan edi, ... (xolos, xalos). Hammasidan ham og‘iri – butun amaliy-ilmiy tadqiqot va tajribalar yonib ... (kul, ko‘l) bo‘lgandi. Uning ... (ilk, ilik) ilmiy maqololari, ... (so‘ngi, so‘nggi) kitob va qo‘lyozma esdaliklari ham kuyib ketgan edi. Xullas, uning hayoti davomida erishgan barcha yutuqlari barbod bo‘lgan, yo‘qotishlari ... (qimmat, qiymat) cheksiz edi.

Xotini Edisonni laboratoriya narirog‘idan topadi. U yong‘inni kuzatganicha xotirjam turardi. Shu holatda xotinini yoniga chorlaydi. Ayoli Edisonga yaqinlashganda u kulimsirab shunday degan ekan:

– Sen mana bunga yaxshilab qara. Bunday manzarani hech qachon qayta ko‘rolmaysan. Bu fojia kelajakda buyuk ezgulikni baxsh etadi... . (Oxir, Axir, Oxur), hozir bizning ... (sahv, saxv)-u xatolarimiz yonyapti! Xudoga shukurki, endilikda biz hammasini yangidan boshlash imkoniyatiga egamiz.

Bordi-yu, siz moddiy-ma’naviy yo‘qotishlardan esankirab qolsangiz va mag‘lubiyatlariningiz ... (alam, a’lam) qilsa, yuqoridagi parcha o‘zingizni tutib olishingiz uchun ... (ruh, rux) beradi, motivatsiya beradi. Ayni vaqtida, ishni boshidan, yangichasiga boshlash uchun imkoniyat tug‘iladi.



**13.2-mashq.** Matn mazmunini og‘zaki bayon qiling. Har qanday qiyinchilikning bir hikmati bo‘lishi mumkinligiga duch kelganmisiz? Fikringizni yozma shaklda ifodalang.



**13.3-mashq.** Berilgan paronim so‘zlarning ma’nosini izohlardan tanlang.

Jodi – jodu, ariq – oriq, bad – ba’d, adl – adil, artish – archish, tambur – tanbur, tib – tip, tarif – ta’rif.

*Tavsiya qilingan izohlar:* afsun, sehr; xashak qirqadigan asbob; suv oqadigan joy; ozg‘in; yomon, yaramas; keyin, so‘ng; adolat, odillik; tik, egilmagan; tozalash; po‘stlog‘idan ajratish; vagonning kiraverishdagi bo‘lmasi; dastasi uzun musiqa asbobi; qat’iy baho (to‘lov)lar tizimi;

ijobiy xislatlari maqtaladigan; tabobat, davolash; bir turdag'i narsalarning muhim belgilarga ega bo'lgan namunasi, shakli, modeli.

*Namuna: qurt* (hasharot turi) – *qurut* (suzmaning quritilgani)

 **13.4-mashq.** Berilgan gaplardagi nuqtalar o'rniga qavs ichidagi paronimlardan mosini qo'yib gaplarni ko'chiring.

*Namuna:* Biriga yuz **Xito** mulki xirojin aylasang isor,  
Xatosiz qasdi joning qilg'usidir, gar **xato** qilsang.

(Alisher Navoiy)

1. Odam tushgan ... (choh, chog')ni uning o'zi qazigan bo'ladi.  
(*Nepal xalq maqoli*)

2. ... (Ushshoq, ushoq) ham non. (*Norveg xalq maqoli*)

3. Nokasdan ... (qarz, qars) olsang, ... (uxlash, uplash)ga qo'ymaydi.  
(*Ukrain xalq maqoli*)

4. Do'stsiz boshim – ... (tuz, tus)siz oshim. (*O'zbek xalq maqoli*)

5. Mard jonini fido qilsa, qochoq ... (issiz, izsiz) yo'qolar. (*Chuvash xalq maqoli*)

6. Bug'uni uradigan odam uning ... (shoh, shox)laridan qochib qutula olmaydi. (*Dolgan xalq maqoli*)

7. Og'zini ... (bod, bot) ochadigan kishi ko'p yo'qotadi. (*Shved xalq maqoli*)

8. Kichkina teshikdan kirgan nur ham xonani ... (yoriq, yorug') qiladi. (*Yapon xalq maqoli*)



### Nazariy matn

Odatda, og'zaki nutqda talaffuzi bilib-bilmay aralashtiriladigan so'zlar paronimlar deyiladi. Ba'zan ular yozma nutqqa ham ko'chib, nutqiy g'alizlikni yuzaga keltiradi, jumla ma'nosiga putur yetkazadi. Demak, paronim so'zlar savodxonlikka kuchli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ularning maxsus lug'atlari yaratilgan.

Paronim so'zlarning talaffuzida ehtiyojkorlik shart.



**13.5-mashq.** Nazariy matn mazmunini og'zaki bayon qiling.



### 13.6-mashq. Testlarni yeching. Javobingizni izohlang.

1. **Qaysi qatordagi gapda paronimlarning qo'llanishi bilan bog'liq xato mavjud va mazkur gap qaysi nutq uslubiga xos?**

- A) Ot chopsa, gumburlar tog'ning darasi.
  - B) Majlisda kamchiliklar birma-bir sanalib, ularni tezda bartaraf etish kerakligi qayt etilsin.
  - C) Butun qishloq ahli hasharga chiqib, jonbozlik ko'rsatdi.
  - D) Yaxshiga yondash, yomondan qoch, bolaginam.
2. **Nuqtalar o'rniغا zarur so'zni tanlab qo'ying:** *Yaxshi odamlar tez kasalga chalinadi, yomon odamlarga, aksincha, ... ham urmaydi. (O'. Umarbekov)*
- A) qora-qaro; B) bola-balo; C) davo-da'vo; D) bod-bad.



### 13.7-mashq. She'riy parchalarni o'qing. Ulardagi paronim so'zlar ifodalagan ma'nolar va vazifalarni tushuntiring.

1. Ishimda unum yo'q, Aytishga unim yo'q.
2. Adl bo'lsang, adil qomatim dol bo'lmas.
3. Abrash otni avrash kerak, o'g'lonim.
4. Otajonlar ishlab hech tolmasin,  
Otalini otaliqqa kuni qolmasin.
5. Onajon, og'zingiz oshga tekkanda tishingiz sinmish,  
Bu kun g'am lashkari manim ko'ksima xanjarin summish.  
Tomirda qonlarim to'nmish, tilim lol, ko'zlarim tinmish.  
E voh, ne ko'rgilik kun bu, uzun kunmish, kunim tunmish.
6. Quyonning qavmi tovushqon, sug'urga yumron tug'ishqon,  
Tulkiman tozi quvushqon, tishlari takir-takirlab.

(H. Husan)



### Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Nima uchun paronim so'zlarni farqlay olish barcha nutq uslublari uchun o'ta muhim sanaladi?

2. Teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlarda paronimlarni noto'g'ri qo'llash bilan bog'liq holatlarga duch kelganmisiz?

3. Alisher Navoiyning „Nasoyim ul-muhabbat“ asaridan olingan hikoyatni o'qing va u xususida xulosa chiqaring. Matndagi ajratilgan so'zlarning paronimlarini toping.

Ismoil Dabbos dedikim, Haj niyatida safarga chiqib, Sherozga yetishdim. Bir masjidga kirdim. U yerda shayx Mo'minni ko'rdimki, o'tirib xirqasiga yamoq solardi. Salom qildim. Mendan so'radi:

– Nima niyating bor?

Dedim:

– Haj niyatim bor.

Dedi:

– Onang bormi?

Dedim:

– Bor.

Dedi:

– Bor, qaytib onang xizmatiga bor!

Bu so'z menga **xush** kelmas edi. Dedi:

– Nega to'lg'onasan? Men boshyalang, oyoqyalang, yolg'iz va ozuqasiz **ellik** marta haj qilganman. Barchasining savobini senga **ato** qildim. Sen onangning ko'ngil shodligini menga ber!



## Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

**13.1-topshiriq.** Quyidagi paronim so'zlardan tegishlisini tanlab nutq uslublaridan birida 10–15 ta gapdan iborat matn yarating.

*Tavsiya etiladigan so'zlar:* juda–judo, xiyla–hiyla, xol–hol, qism–qisim, qari–qa'ri, toblanmoq–tovlanmoq, abzal–afzal.

**13.2-topshiriq.** Berilgan paronim so'zlar asosida boshqotirma tuzishga harakat qiling.

Alpoz – alfoz, amr – amir, diplomat – diplomant, bal – ball, bedona – bedana.

## 14-mavzu. KO'HNA SO'ZLAR USLUBIYATI



**14.1-mashq.** Matnni o‘qib yoki tinglab, mazmunini tushuntirib bering.



### HUKMNOMA

O‘tkir xanjarini beliga osib, oyboltasini ko‘targan jallod qushbegining hukmiga **muntazir** edi. Qushbegining o‘ng tomonida qo‘rboshidan tortib shahar **a'yonlari**, qarshisida Otabek, **qutidor**, Ziyo shohichi va uning og‘li Rahmat – gunohkorlar va ularning orqasida **muhofiz** yigitlar.

Qushbegi o‘zining yozilib qo‘ylgan **hukmnomasini** qo‘liga olib o‘qishga hozirlandi: „Menkim, Marg‘ilon hokimi O‘tabboy qushbegi, o‘z hukmmimni **xoqon** ibni xoqon janobi oliy Xudoyorxon ismi shariflaridan eshitdiraman. ...E’timodlik bir kishining **shahodatiga** binoan toshkandlik Yusufbek hojining og‘li – Otabek, bu kunda xonimizg‘a qarshi bosh ko‘targan Aziz **parvonachi** va o‘z otasining vakolatlari bilan Marg‘ilon kelib, bu yerdagi fuqarolarni ham xon janobig‘a qarshi **oyoqlandirmoqchi** bo‘lg‘an. Otabekning bu harakati **ululamir** bo‘lg‘an janobga **bog‘iyliq** bo‘lib, uni, ya’ni Otabek Yusufbek hoji og‘lini o‘lim jazosi bilan jazolashni **taqozo etadir**. Ikkinchi, Otabekka yo‘lda ko‘makchi bo‘lib yurgan Marg‘ilon fuqarosi Mirzakarim qutidor ham shu jazoga sazovor tutiladir. Ziyo **shohichi** bilan o‘g‘li Rahmat bu **bog‘iyliq**dan xabardor bo‘laturib, vaqtida hukumatka ma’lum qilmag‘anlari uchun bir yildan **zindon** jazosiga mahkum bo‘lurlar!“ (A. Qodiriy. „O‘tkan kunlar“)



**14.2-mashq.** Matndagi ko‘hna so‘zlarning ma’nosini tushunishga harakat qiling va berilgan so‘zlardan ularga muqobilini tanlang.

*Tavsiya etiladigan so‘zlar:* a’yon, qutidor, muhofiz, hukmnoma, shohichi, e’timod, xoqon, shahodat, parvonachi, oyoqlandirmoqchi, ululamir, zindon, bog‘iyliq, qo‘rboshi.

Izohlari: 1) oyoqqa turg‘izmoq; 2) biror hodisa yuzasidan beriladigan guvohlik; 3) qattiq ishonish; 4) hukm hujjati; 5) Qo‘qon xonligida pullarni qabul qilib oluvchi, saqlovchi, xon xazinasiga topshiruvchi saroy amaldori; 6) tungi mirshab yoki mirshablar boshlig‘i; 7) hukmdorga yaqin turgan

*baland martabali kishilar; 8) himoya qiluvchi qo'riqchi; 9) ipak savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxs; 10) turkiy xalqlarda hukmdorlarning eng olyi unvoni; 11) hukmdor farmonini bituvchi kotib; 12) amirlarning ulug'i; 13) mahbuslar saqlanadigan yer ostidagi qorong'i joy; 14) isyonkorlik.*

*Namuna:* jallod – o'lim jazosini ijro etuvhi; qushbegi – amir va xon saroyida bosh vazir yoki vazirga teng amaldor; muntazir – orziqib kutish.

 **14.3-mashq.** Misralarda keltirilgan inson tana a'zolari nomlarining ko'hna ifodalarini hozirgilari bilan almashtirib, ularning ro'yxatini tuzing.

Garchi mumkin yo'q vale bir qatla kirsang **ilgima**,  
Borsa bosh, **aldin** chiqarmoq o'zga ne imkon seni.

(Alisher Navoiy)

**Xat** – binafsha, **zulf** – sunbul, **jism** – nasrin, **chehra** – gul,  
Ne rayohin birla topmish zeb husning gulshani.

(Husayniy)

Ko'z bila qoshing yaxshi, **qabog'**ing yaxshi,  
Yuz bila so'zing yaxshi, **dudog'**ing yaxshi,  
Eng bila menging yaxshi, **saqog'**ing yaxshi,  
Bir-bir ne deyin, boshdin ayog'ing yaxshi.

(Alisher Navoiy)

Ikladi maning **azaq**  
Ko'zmazib o'g'ri tuzaq.

(Mahmud Koshg'ariy)

Ishq aro yuz ming malomat o'qiga bo'ldim nishon,  
Bir kamon **abro'**da tuzlukdin nishone topmadim.

(Alisher Navoiy)

Yo'q qutulmoqliq manga, ul ofatijon **dastidin**,  
Qasdima qoshlar kamon, payvasta **mujgonlar** xadang.

(Furqat)

Raqiblarga qilur **la'ling** tabassum,  
Qonimmi g'ussadan toshurmog'ing ne.

(Atoyi)

Ayitqil ey, so'zi yomon jafokor,  
**Qarog'**lari qaroqchi, o'zi ayyor.

(Xorazmiy)

*Namuna:* ilig – panja; dast – qo'l.

### Nazariy matn

Til tirik ekan, unda doimo yangilanish va eskirish sodir bo'lib turadi. Ayrim so'zlar ifodalaydigan narsa va hodisalar iste'moldan chiqsa, ular bilan bog'liq so'zlar ko'hna so'zlar qatoridan joy oladi. Ba'zilari o'mniga yangi so'z kelib, uning o'rmini egallaydi – avvalgi so'z iste'moldan chiqadi.

So'zlar umumiste'moldan chiqsa ham, badiiy asarlarda davr ruhini berish uchun qo'llanaveradi. Tarixga oid tadqiqotlarda ham iste'moldan chiqib ketgan so'zlar ishlatiladi.



**14.4-mashq.** Nazariy matn mazmunini og'zaki bayon qiling.



**14.5-mashq.** „Hukmnoma“ matni asosida test.

1. Nasriy parchada „Bog'iyliq“ so'ziga sinonim bo'lgan fe'lni toping.
  - A) taqozo etmoq;
  - B) oyoqlandirmoq;
  - C) mahkum bo'immoq;
  - D) sazovor tutilmoq.
  
2. XIX asr o'ttalarida Qo'qon xonligida faoliyat yuritgan amaldorlar nomi to'g'ri qayd etilgan javobni belgilang.
  - A) qushbegi, parvonachi, qo'rboshi, qutidor
  - B) mirshab, shohichi, xoqon, qushbegi
  - C) qutidor, fuqaro, amir, muhofiz
  - D) qushbegi, parvonachi, jallod, ululamir.
  
3. „Ishonchli“ so'ziga sinonim bo'lgan so'z ishtirok etgan gapni belgilang.

A) Marg‘ilon fuqarosi Mirzakarim qucidor ham shu jazoga sazovor tutiladir.

B) Ziyo shohichi vaqtida hukumatka ma’lim qilmag‘ani uchun zindonga mahkum bo‘lur.

C) Otabek otasining vakolati bilan bu yerdagi fuqarolarni oyoqlan-dirmoqchi bo‘lgan.

D) E’timodlik bir kishining shahodatiga binoan Otabekning bog‘iylig‘i ma’lum bo‘lgan.

 **14.6-mashq.** Matnni o‘qing. Unda alohida ko‘rsatilgan so‘zlarni ikki guruhga ajratib yozing.

- 1) *iste’moldan chiqib, o’rnida boshqa so‘z qo’llaniladigan so‘zlar: ...*
- 2) *iste’moldan chiqib, o’rnida boshqa so‘z qo’llanilmaydigan so‘zlar: ...*

Majlisni **munoqashachilikdan** qutqarib, do‘stona ruhlantirish uchun Navoiy suhbat mavzusini o‘zgartirib yubordi. U soxta bir **qalandar** haqidada mazmunli, maroqli bir hikoyacha aytib berdi. **Mudarris mavlono** Fasihiddin so‘fiyona, ma’nodor bir hikoyacha so‘yladi. **Tib** olimi esa Ibn Sino to‘g‘risidagi afsonalardan birini aytdi. Naq yarim kechada odamlar uy-uylariga tarqalarkan, Navoiy Sultonmurodni to‘xtatdi.

– Hirotning eng peshqadam **muarrixlari** va iste’dodli **tolibi ilmlari** sizdan dars olmoqni orzu qiladilar. Ilmn ni xalqqa beringiz, **tatabbu** va **tafakkur** bilan ilmni kengaytirmoqqa harakat qilingiz. Ilm ko‘mig‘lig‘ xazina emas, jonli daraxtdir. O‘smsg‘i, gullamog‘i, meva bermog‘i kerakdir.

## Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Ko‘hna so‘zlardan ko‘proq qaysi uslub talabiga ko‘ra foydalанилди?
2. Diniy adabiy manbalarda keng qo’llanадиган ко‘hna so‘zlarga misollar keltiring.
3. „Qisasi Rabg‘uziy“ („Rabg‘uziy qissalari“)dan olingan parcha bilan tanishing. Matn tabdiliga qiyoslab, iste’moldan chiqqan so‘zlarni aniqlang. Ayting-chi, anjirning „jazolanishi“ dan qanday xulosa chiqarish mumkin?

Xabarda andog‘ kelur, anjir yig‘ochi Odam va Havvog‘a besh yaburg‘oq berdi. Tong otmishdan kezin ul besh yaburg‘oqdan birin kiyik

yedi – yipor bo‘ldi, birin sigir yedi – anbar bo‘ldi, birin aru yedi – asal bo‘ldi, birin qurt yedi ipak bo‘ldi, birin odam yerga tikdi – yung bo‘ldi. Qiyomatg‘a tegi o‘g‘lonlarina kafan bo‘ldi.

**NUKTA.** Anjir yig‘ochi Odamga yaburg‘oq bermishi uchun tengri azza va jalla bazirladi. Qamug‘ yemish uch turluk turur, kimining tishi yinur olma, amurd mengizlik, kimining ichi yinur tishi yinmaz yang‘oq, bodom mengizlik, kimining toshima yinmaz, ichima yenmaz qag‘un, xarbz mengizlik. Ammo anjirning toshi ham yinur, ichi ham yinur.

### (Tabdili)

Xabarda kelurki, anjir daraxti Odam va Havvoga besh yaproq berdi. Tong otgandan keyin o‘sha besh yaproqning birini kiyik yedi – ifor (mushk) bo‘ldi. Birini sigir yedi – anbar bo‘ldi. Birini ari yedi – asal bo‘ldi. Birini qurt yedi – ipak bo‘ldi. Birini Odam yerga ekdi – yung bo‘ldi. Qiyomatga qadar farzandlariga kafan bo‘ldi.

**NUKTA.** Olloh taolo Odamga yaproq bergenligi uchun anjir daraxtini jazoladi. Ma’lumki, barcha yeguliklar uch turli bo‘ladi: birining tashi yeyilur – olma, nok kabi, birining ichi yeyilur – yong‘oq, bodom singari, birining tashi yeyilmas, ichi yeyilur – qovun, tarvuz kabi. Ammo anjirning tashi ham yeyilur, ichi ham yeyilur.



### Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

**14.1-topshiriq.** Berilgan ko‘hna so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing yoki badiiy asarlardan shu so‘zlar qo‘llangan parchalarni toping.

*Zavraq, makruh, andalib, ankabut, bakovul, zayja, tahayyur, g‘addor.*

*Namuna:* Ul kirib zavraqig‘a ayladi azm,  
Bo‘lub ul kema ahli qatlig‘a jazm.

*(Alisher Navoiy)*

**14.2-topshiriq.** Matndagi ajratilgan so‘zlarning mos izohini topib lug‘at tayyorlang.

– Taqsir, men Buxoro **saltanati** elchisimen, – tilga kirdi Tomish yasama tabassum bilan. – Siz **sultonlik** unvonini olganingizni eshitib, janob Burhoniddin o‘z xohishi bilan **iste’fo** berdi. Buxoro **ashroflari**

tiladikim, siz shahri muazzamga yuzlansangiz, **sabil qolgan taxtni** muborak ilgingizga olsangiz...

– Janob, elchimen deysiz, elchiga jangovar qo'shin ne hojat? – istehzo bilan so'radi Shamsiddin Mahbubiy.

Tomish o'zini shundoq vazmin tutdiki, bir mo'yi ham qimirlamadi. Ichida esa xato qilganini tan oldi. Agar qo'shinni bunaqa oti ovoza, keti darvoza qilib yetaklab kelmaganida, aksincha, yo'ltagi biron to'qaydami, jar-chuqurdami, pistirmaga qo'yganida, ...payt poylab, **cherik** panadan quyundek otilib chiqardi-yu, taxtni egallash uchun Buxoroga oshiqayotgan battolni halqadek o'rardи. (*A. Dilmurod. „Mahmud Torobiy“*)

*Namuna:* saroy to'riga o'rnatilgan hashamatli o'rindiq; mamlakat, davlat; amir, shoh, xon; qo'shin, lashkar; sabil (arab) – egasiz, qarovchisiz qolgan; o'z ixtiyori bilan voz kechdi; *sharif* so'zining ko'pligi – azizlar, hurmatli zot.

## NAZORAT ISHI. MATN YARATISH

### 15-mavzu. O'ZLASHMA SO'ZLAR USLUBIYATI



**15.1-mashq.** Matnni ifodali o'qing. Asosiy fikr ifodalangan gapni aniqlang.

## YUNESKO

1945-yil 16-noyabr. London. Ikkinchи jahon urushi tugagandan keyin **fashistik** Germaniyaga qarshi tuzilgan ittifoqdosh davlatlar ta'lim vazirlarining **konferensiyasida** BMTning ta'lim, ilm va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti – **UNESCO** (United Educational Scientific and Culture Organization) tuzildi. YUNESKO insoniyatning **intellektual** va axloqiy hamkorligini ta'minlashga qaratilgan faoliyatini qo'llab-uvvatlash bilan yangi jahon urushlarining oldini olishni bosh maqsad qilib qo'ygan edi. Konferensiyada ishtirok etgan 37 davlat vakillari tomonidan YUNESKO Ustavi tasdiqlandi. Bu **Ustav** 1946-yil 4-noyabrdan kuchga kirdi.

Ayni kunda YUNESKOning **Bosh assambleyasi** Parij shahrida joylashgan va uning a'zolari soni 195 davlatdan iborat. Doimiy budjeti 653 million AQSH **dollarini** (2011-yil), **budgetdan** tashqari mablag'i

500 million AQSH dollarini tashkil etadi. Ingliz, ispan, rus, fransuz, xitoy va arab tillari YUNESKOning rasmiy tillari hisoblanadi. Tashkilot davlatlar o'rtaida maorif, fan, madaniyat, axborot **texnologiyalari** va **kommunikatsiyalari** sohasida hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro ta'lif standartlarini joriy etish, turli innovatsion loyihalarini amalga oshirish, savodsizlikka qarshi kurash, milliy madaniyatlarni o'rganish, **geologiya**, **okeanografiya**, **biosfera**, **gender** tengligi sohalaridagi muammolarni bartaraf qilish bo'yicha faoliyat yuritadi. Tinchlikni va xavfsizlikni mustahkamlash, inson huquqlarini qadrlash masalalari ham YUNESKOning kun tartibidagi muammolardir.

O'zbekiston **suveren** davlat sifatida 1993-yil 29-oktabrda YUNESKOga a'zo bo'lib kirgan va 1994-yilda mazkur nufuzli xalqaro tashkilot tarkibida Respublika Milliy **komissiyasi** tashkil etilgan.

(„Dunyo, siyosat, jamiyat“dan)



**15.2-mashq.** Matnda ajratib ko'rsatilgan xalqaro doiraga xos so'zlarning muqobillarini tanlang.

*Tavsiya etilgan so'zlar:* aqliy-ma'naviy; mahorat va usullar majmuyi; bosh yig'ilish; mustaqil; nizom; majlis; yer tuzilishi haqidagi fan; okeanlar haqidagi fan; irqchilik mafkurasi; yerning tirik organizmlar targalgan qismi; jins; pul birligi, me'yor-o'Ichov; alohida vakolatli guruh; umumxalq hokimiyati; aloqa turi; muayyan vaqt uchun tasdiqlangan daromad va xarajatlar yig'indisi.



**15.3-mashq.** Gaplardagi ajratilgan o'zlashma so'zlarga quyida berilgan qatorдан o'zbekcha muqobil tanlang. Qaysi so'zlar aslidek qo'llanilmoqda?

*Namuna:* Dang'illama uchastka. O'rtada fontan. – Dang'illama hovli. O'rtada favvora.

1. Dang'illama **uchastka**. O'rtada **fontan**. 2. Tilla **magazinni** o'margansiz. 3. Men tomonda qonun. Mana **ZAGS** qog'ozi. 4. Oq **xalat** kiygan **doktor** kirib keladi, **sumkadan** bahaybat **shprisni** chiqarib, **ukol** qilishga tayyorlanadi. 5. Mehmonxonada emas, **student** qizlar yotoqxonasida. 6. Bu dunyodan nasibam uzilib turibdi-ku, **spravka** deydiya. 7. Men Qilichbek emas, **militsiya** leytenant Anvar Maqsudovman. (E. Vohidov. „Oltin devor“)

Tavsiya etilgan so‘zlar: hovli, maydon; talaba; do‘kon; favvora; maxsus ust kiyim; ma’lumotnomma; porshenli tibbiyot asbobi; sanchish; yukxalta; FHDYB (fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish bo‘limi); ofitser unvoni; jamoat tartibini qo‘riqlash bo‘limi.



### Nazariy matn

Boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlar tilga butunlay singib ketishi ham (*kitob, fe'l, mantı, stol, shkaf*), ba’zilari singishmay turishi ham mumkin (*restavratsiya, anonim, suflyor*). Shunga ko‘ra, to‘la o‘zlashgan (*kitob, daftor, stansiya*), nisbatan o‘zlashgan (*vokzal, aeroport*) va o‘zlashayotgan (*skaner, skotch*), o‘zlashmagan so‘zlar (*ministr, oblast, rayon*) farqlanadi. Ularning barchasini shartli ravishda o‘zlashma so‘zlar deymiz.

So‘zlashuvga xos o‘zlashma so‘zlar, ko‘pincha, kitobiy uslubga xos bo‘lmaydi. Ilmiy uslubda o‘zlashma so‘zlar, asosan, termin sifatida ko‘p qo‘llaniladi.



**15.4-mashq.** Nazariy matn mazmunini og‘zaki bayon qiling.



**15.5-mashq.** Qaysi o‘zlashma so‘zlar xato yozilganligini lug‘atdan tekshiring.

Keytchup, kakos, koktell, kasting, shokolad, pepsi-kola, marafon, dendrapark, grossmeyster, greypfrut, kreativ, organayzer, pirotexnika, sotsiologiya.



**15.6-mashq.** Testlarni yeching. Javobingizni izohlang.

**1. Berilgan she’riy parchadagi inglizcha jumlaning tarjimasini toping.**

Mening yurtim bugun endi  
Jahon birlan tutashgandir,  
Tutash taqdir, tutash ruhdir,  
Tutash jondir, tutash qondir.  
Nedir xat porlaguvchi  
Poytaxt darbozasi uzra,  
Bu yurtga xush kelibsiz,  
Marhabo, „Welcome to Tashkent“dir.

(E. Vohidov)

- A) Toshkentga keling.
- B) Toshkentga marhamat!
- C) Toshkentga xush kelibsiz!
- D) Toshkent sizga muntazir.

**2. Hozirgi o‘zbek tilidagi *bekat* so‘zi yevropa tillarida qay tarzda ishlatalmoqda?**

- A) piket.
- B) paket.
- C) banket.
- D) piknik.

**3. Internet manbalaridan foydalanib, tarixiy vazn o‘lchov birliklarini aniqlang.**

- A) pud, paysa
- B) botmon, arshin
- C) gaz, tosh
- D) farsah, qadoq

 **15.7-mashq.** Berilgan so‘zlarning ma’nosini izohli lug‘at yordamida toping va ular qaysi tildan o‘zlashganligini aniqlang.

*Namuna:* intonatsiya (lot.) – ohang; kafe (fr.) – tamaddixona.

Intonatsiya, ma’rifat, zirotat, rafiq, surriyot, maxluq, fath, za’faron, shiypon, tamaddun, kafe, mujgon, ruxsor, sartarosh, mehrob, gardun, oftob, lag‘mon, eksport, inventar, barg, vilka, teleskop, duet, fastvud, market, chikken, grill, xobbi, salfetka, reklama.

 **15.8-mashq.** Berilgan gaplardagi ajratilgan so‘zlarga muqobil birliklar tanlang.

*Namuna:* rioyat – hurmat-e’tibor, ...

1. Har kimki atog‘a ko‘p **rioyat** qilg‘ay,  
O‘g‘lidin anga bu ish **siroyat** qilg‘ay.
2. Vatan tarkini bir nafas aylama,  
Yana ranji **g‘urbat** havas aylama.  
Shahekim anga **adl** bunyod o‘lur,  
Natija bukim, **mulki** obod o‘lur.
3. Na **farxunda axtardurur** ul kishi  
Ki, toat yigitlikta bo‘lg‘ay ishi.

(Alisher Navoiy)

Tavsiya etiladigan so‘zlar: baxt-saodatli; ichiga o‘tish, ta’sir qilish; hurmat-e’tibor qilish; g‘am-g‘ussa, xafalik; mamlakat;adolat; yulduz.

## Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Fan-texnika taraqqiyoti o‘zlashma so‘zlar soni va sifatiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
2. Barcha olinma so‘zlar tilimizga to‘liq o‘zlashishi kerakmi?
3. O‘zlashma so‘zlarning muqobilini topish, ommalashtirish va nazorat qilish ishlarini yurtimizda qaysi tashkilot olib boradi?
4. Quyida berilgan juftlikdagi o‘zlashma so‘zlar o‘rning o‘zgarishi natijasida gap mazmunida qanday o‘zgarish yuz berayotganini izohlang.

*Tushdan so‘ng fermaga traktorda yuk olib borgan Anvar shaharga tezda qaytish uchun yo‘lga chiqdi. – Tushdan so‘ng shaharga yuk olib borgan Anvar fermaga tezda qaytish uchun traktorda yo‘lga chiqdi.*

## Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

**15.1-topshiriq.** Matnlardagi ajratilgan o‘zlashma so‘zlarni izohlang.

1. **E’zozlar**, ardoqlar uchun tashakkur,  
Asli siz oftobim, men ziyoisman.  
Tonglaringiz kulsin **dorilomon**, hur,  
Baxtim shul – o‘zbekning Zulfiyasiman.  
*(Zulfiya)*

*Namuna:* e’zoz (arab.) – hurmat, izzat-ikrom, avaylash, qadrlash.

1. **Raqqosa** tizzalarini bukib bargikaram **shohidan** tikilgan belbog‘ ustiga cho‘kadi. Sochlari **shaloladay** belbog‘ uzra to‘kiladi. Beqasam nimchalarida sadaf tugmalari yulduzday yonadi. Uning majnuntolday egilgan qaddiga hamma mahliyo. Ana, egila-egila uning boshi belbog‘ **kashtalariga** tegadi... Raqqosa asta-asta silkinib o‘midan turadi va himmat qilib belbog‘ yoyganga **ta’zim bajo keltiradi**. (*O. Hojiyeva*)

2. **Garchand** bitta yurakka Ollo bo‘lib o‘taman,  
Vahki, g‘am **sahrosida** bir oh bo‘lib o‘taman.  
Yorab, o‘ylabmidim men, **dunyoyi dun** oralab,  
Shuncha ko‘zyosh, qonlarga **guvoh** bo‘lib o‘taman.

*(H. Xudoyberdiyeva)*

**15.2-topshiriq.** Berilgan rasmlar uchun topishmoq tuzing. Bu so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini aniqlang.

*Namuna:* Pomidor (ital. „oltin olma“) – qizil rangda tuguncha, ichi to‘la kulchacha.



### 16-mavzu. DUNYO TILLARI VA O‘ZBEK TILI. O‘ZBEK TILI KOMPYUTER TILI BO‘LA OLADIMI?



**16.1-mashq.** Matnni o‘qing.

#### DUNYO TILLARI HAQIDA QIZIQARLI MA’LUMOTLAR

Dunyoda so‘z jihatidan eng badavlat til arab va ingliz tillari hisoblanadi. Ingliz tili hisobida ikki yarim milliondan ortiq, arab tili hisobida esa uch yarim milliondan ortiq lug‘at boyligi bor. O‘zbek tili zaxirasi taxminan 1 400 000 – 1 600 000 atrofida so‘zga ega ekan. Bu ma’lumotlar, albatta, ijtimoiy sohalarga nisbatan olingan, xolos. Tilshunoslik fanidan ma’lumki, qaysi tilda sinonimlar – ma’nodosh so‘zlar ko‘p bo‘lsa, o‘sha til eng boy til; shuningdek, qaysi tilda shakldoshlar – omonim so‘zlar ko‘p bo‘lsa, o‘sha til kambag‘al tillar sirasiga kiradi, deya yuritiladi. Masalan, shimoliy qutbda yashaydigan eskimos qabilasiga mansub millat tilida „qor“ so‘zining 20 xil sinonimi mavjud. Arab tilida esa „cho‘l“ so‘zining 100 dan ortiq varianti bor.

Yer kurrasi bo‘ylab eng keng tarqalgan til esa ispancha hisoblanadi. Ispan tilining bu qadar ommalashib ketishiga, avvalo, mashhur sayyoohlar, dengiz qaroqchilari va ispaniyalik mustamlakachilar sabab bo‘lib qolgan. Hatto AQSHning 50 ta shtatidan 23 tasida davlat tili ispan tili hisoblanadi. (M. Bobojonov)

## 16.2-mashq.

Matndagi so‘zlarni to‘rt guruhga ajratib yozing.

- A) turkiy so‘zlar;
- B) arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar;
- D) fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar;
- E) rus tili orqali kirib kelgan so‘zlar.



### Nazariy matn

Barcha tillar yashab qolish darajasi nuqtayi nazaridan quyidagicha tasnif qilinadi:

1) xavfsizligi ta’minlangan tillar: ingliz, xitoy, ispan, nemis, yapon, fransuz, arab tillari; 2) ehtiyyottalab tillar: belorus, yoqut, chechen, tuva tillari; 3) o‘lim xavfiga yaqinlashayotgan tillar: chukot, karel, qalmiq, udmurd tillari; 4) o‘lim xavfiga duch kelgan tillar: aleut, ters-saam, itelmen tillari; 5) O‘layotgan tillar: ayn tili, yuka(gir) tili, ubix tili.

Tillarning xavfsizligi alifbo-imloga, ko‘p sonli so‘zlashuvchilarga va davlat tili maqomiga egalik hamda axborot-kommunikatsiyalar sohalari, Internet tili ekanligi bilan ta’minlanadi.



**16.3-mashq.** Berilgan matnni o‘qing. Nazariy ma’lumot va matn asosida test topshiriqlari tuzing.

### GLOBALLASHUV: TILLAR TARAQQIYOTI VA TANAZZULI

Birlashgan Millatlar Tashkiloti o‘tgan asrda rasman 2976 tilni qayd etgan bo‘lsa-da, sohaning yetakchi mutaxassislari hozirgi paytda jami 6809ta til mavjud ekanligini ta’kidlashmoqda. 2005-yilda tuzilgan YUNESKO ro‘yxati 6912 tilni qamrab oladi.

Dunyodagi eng katta tillar olinadigan bo‘lsa, statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 200 tilning har birida 1 milliondan ortiq, 70 tilning har birida 5 milliondan ortiq, faqat 13 tilning har birida 50 mlndan ortiq kishi muloqot qiladi.

Til moddiy, ma’naviy merosni saqlash va boyitishning eng kuchli vositasi hisoblanadi. YUNESKO hisob-kitobiga ko‘ra, mavjud 7 mingga yaqin tilning yarmi joriy asrda o‘zining oxirgi sohiblaridan ajralishi mumkin. Ba’zi farazlarga ko‘ra, asr oxiriga kelib mavjud tillarning 95 foizi o‘lik tilga aylanadi. Har oyda dunyo miqyosida ikkitadan til o‘layotganligi – dahshatli hodisa!

YUNESKOning 2017-yil 15-iyundagi xabariga ko‘ra, o‘lim yoqasida turgan 2,5 ming tildan 15 tasi Markaziy Osiyo xalqlariga to‘g‘ri keladi. Jumladan, Markaziy Osiyo arablari tili, Buxoro-Samarqand yahudiylari tili, Markaziy Osiyo lo‘lilari (paryo) tili O‘zbekiston hududidagi o‘layotgan tillardir. O‘lik tilga aylanayotgan tillarni saqlab qolish insoniyat oldidagi o‘tkir muammolardan. Shuning uchun 1999-yil 17-noyabrda YUNESKO Bosh Anjumani 21-fevralni Xalqaro ona tili kuni (Международный день родного языка, International mother language day) sifatida e’lon qilib, 2000-yilning fevralidan boshlab bu sana har yili lisoniy, madaniy taraqqiyot va ko‘p tillilikni ta’minlashga ko‘mak berish maqsadida nishonlab kelinadi.

Til nega o‘ladi? Chunki odamlar undan foydalanmay qo‘yishadi, keng qo‘llanishdagi va „obro‘li“ tillarga ustuvorlik berilishi natijasida bolalar bu tilda ta’lim olmaydi.

Tillar ham odamlarga o‘xshaydi: yonma-yon yashaydi, bir-biriga ta’sir qiladi, o‘zgaradi – rivojlanadi. Ammo taraqqiyot tezlashishi natijasida dunyoning yagona axborot makoniga aylanib borishi tillar taqdirida ham katta rol o‘ynaydi. Masalan, o‘tgan ming yillikda dunyo tillarining 500tasi o‘lik tilga aylangan bo‘lsa, oxirgi yuz yillikda esa 1000 ta til tarix qa’riga singib ketdi.

Yuqorida aytilganidek, tillar xavfsizligi alifbo-imlo, ko‘p sonli so‘zlashuvchilarga egalik, davlat tili maqomi va axborot-kommunikatsiyalari sohalari, Internet tili ekanligi omillari bilan ta’minlanadi. Bular tillar yashovchanligi uchun yaxlit mezondir. Albatta, bizning ona (o‘zbek) tilimizning ham o‘z alifbo va imlosiga, davlat tili maqomiga egaligi, 30 milliondan ortiq so‘zlashuvchisi borligi kishini xushnud qiladi. Biroq achchiq bo‘lsa-da, ta’kidlash kerakki, uning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Internet tili darajasiga ko‘tarilmayotganligi va, ayniqsa, bu borada hech qanday na nazariy, na amaliy va na tashkiliy ishlar olib borilmayotganligi uning ham mazkur xavfdan butkul xoli emasligini ko‘rsatadi.

*Baxtiyor Mengliyev,  
filologiya fanlari doktori, professor*



**16.4-mashq.** Berilgan ma’lumotlar bilan tanishib chiqing va u haqda fikringizni bildiring.

1. Barcha alifbolarda bugungi kunga qadar saqlanib qolgan eng qadimiy harf „O“ harfidir. 2. Fors tilidan kelib chiqqan „pijama“ va „chemodan“ so‘zlarining o‘zagi bir xil: „pi-joma“ va „jomadon“. 3. Qadimgi Misrda o‘rikni „quyosh tuxumi“ deb atashgan. 4. „Saxara“ arab tilida „sahro“ deganidir. 5. Esperanto xalqaro sun’iy tilini yaratishga 1887-yilda varshavalik shifokor Lazar Zamendof asos solgan. 6. „Ermitaj“ so‘zi fransuz tilida „yolg‘iz qolish joyi“ degan ma’noni bildiradi.



### 16.5-mashq. Testlarni yeching. Javobingizni izohlang.

**I. Berilgan fikrdagi o‘zlashma antonim so‘zlarni toping:** *Jamiyatga optimistlar ham, pessimistlar ham hissa qo’shami. Optimist samolyotni o‘ylab topgan bo‘lsa, pessimist parashutni ixtiro qilgan. (B. Shou)*

- A. Samolyot – parashut
- B. Optimist – pessimist
- C. O‘ylab topgan – ixtiro qilgan
- D. Bu gapda antonim so‘zlar yo‘q

**II. O‘zbek tilidan boshqa tillarga o‘zlashgan so‘zlarni aniqlang.**

- A. Kurash, utyug, chala
- B. Lag‘mon, shiypon, palov
- C. Hokim, sultanat, podsho
- D. Yonbosh, chala, omad



**16.6-mashq.** Matndan informatika sohasi terminlarini aniqlang. Kompyuter tilshunosligida qo‘llanadigan o‘zbekcha so‘zlar ro‘yxatini tuzing.

*Namuna:* gipermatn, diskurritkich, sichqoncha...

O‘zbek tadqiqotchilari tomonidan „Leksik tahlil muhiti“ dasturi yaratildi. Bu dastur „Server – Mijoz“ texnologiyasiga asoslangan, uni global tarmoq (www)da yoki lokal tarmoqda qo‘llash mumkin. Dasturiy tizimni ishlab chiqishda dasturlash tili sifatida Webga yo‘naltirilgan tillar: PHP, Java Skript, HTML, Jgueri, Ajax, CSS dan biri tanlab olinadi, ma’lumotlar bazasi uchun esa MySQL dan foydalaniladi. Tizim foydalanuvchiga uch til (ingliz, rus, o‘zbek)da leksik ma’lumotlarni qidirish, izlab topish va ma’lumotlarning kerakli qismiga tez o‘tish imkonini beradi.



## Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Berilgan turkiy so‘zlarning boshqa tillarga o‘zlashish sabablari va ularning lug‘aviy ma’nosini o‘qituvchингiz yordamida toping: *tovarish, karandash, utyug, Baykal, Yenisey, bekat*.

*Namuna:* tovarish – ikki qismdan iborat turkiycha (tovar+esh) so‘z, qadimda karvonlardagi mol (tovar)ni manzilga yetkazib berishda yo‘ldosh (esh) tushunilgan – safardagi hamroh.

2. *Poliglotlik* so‘zining ma’nosini aniqlang va uning ahamiyatini tushuntiring.

3. Quyidagi SMS xabarni imlo jihatidan tuzatib yozing. Yozishma madaniyati xususida o‘z munosabatingizni bildiring.

*Sava! Tuzumsan iwla qaley bugn oqwga borasami borsen maniyam bor qildrb qoy vawe iwm kop tezro javop yoz*



## Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

**16.1-topshiriq.** Rasul Hamzatovning „Mening Dog‘istonim“ asaridan olingan parchani o‘qing. Muallif nima demoqchi? Uning fikrlariga qo‘shilasizmi?

**Belgiya.** Dunyo shoirlarining **anjumani**. Turli mamlakat va turli millat shoirlari yig‘ilgan. Men ham borman. Hammasi o‘z xalqi, uning madaniyati, she’riyati haqida gapiradi. Shunaqa vakillar ham bor edi: londonlik venger, parijlik eston, san-fransiskolik polyak... Ne iloj, taqdir ularni o‘z ona yurtlaridan yiroqqa, necha tog‘-u dengizlardan nariga uloqtirgan bo‘lsa, ular gunohkormi? Hammasidan meni bir shoir hayratga soldi. U shunday dedi:

– Janoblar, siz bu yerga turli mamlakatlardan kelgansiz. Siz turli millat, turli xalqlarning vakillarisiz. Bu yerda hech bir mamlakat, hech bir xalqning vakili bo‘lmagan – yolg‘iz men. Men hamma xalqlarning, hamma mamlakatlarning vakiliman. Men she’riyatman. Men butun olamga teng nur sochuvchi oftobman. Men hamma o‘lkalarga teng yog‘uvchi yomg‘irman. Men dunyoning hamma yerida teng gullaguvchi daraxtman.

Shu so‘zлarni aytib, **minbar**dan tushib ketdi. Ko‘plar qarsak chaldi. Men o‘yga cho‘mdim: uning so‘zлari to‘g‘ri, biz, shoirlar, dunyo oldida

**burchlimiz.** Lekin o‘zining tog‘lariga butun vujudi bilan band bo‘lmagan odam olamning vakili bo‘la oladimi? Bunday odam o‘z yurtini tashlab ketgan, begona yurtda uylangan va qaynanasini ona deb yurgan bevatanga o‘xshaydi. ... Sendan, kimsan, deb surishtirganda, sen **pasport**ingni ko‘rsatasan. Unda hamma narsa yozig‘liq. Agar biror xalqdan, kimsan, deb surishtirsa, u pasport sifatida o‘z vakilini, olimini, shoirini, **bastakorini**, **arbobi**nini, lashkarboshisini ko‘rsatadi.

Har bir odam dunyoga kelganda shu narsani bilishi kerak: u dunyoga o‘z xalqining vakili bo‘lmoq uchun kelgan. Har daqiqa ana shu vazifani bajarmoqqa shay bo‘lmog‘i kerak. (*R. Hamzatov*)

**16.2-topshiriq.** Matndagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning izohini tayyorlang.

**16.3-topshiriq.** Quyidagi fikrga munosabat bildiring.

*Shunaqa vakillar ham bor edi: londonlik venger, parijlik eston, san-fransiskolik polyak...*

### **17-mavzu. ISH QOG‘OZLARI BILAN ISHLASH (tavsifnomा, tilxat, ishonchnoma, bildirishnomा)**



**17.1-mashq.** Tavsifnomा matni bilan tanishing.

Toshkent viloyati Piskent tumanidagi 41-UO‘TMning 10-, „B“ sinf o‘quvchisi Ismatov Sherjahonga berilgan

#### **Tavsifnomা**

Ismatov Sherjahon Akmal o‘g‘li 2008-yildan buyon Toshkent viloyati Piskent tumanidagi 41-UO‘T mакtabida ta’lim-tarbiya olib kelmoqda. O‘tgan yillarda davomida Ismatov Sherjahon barcha umumta‘lim fanlaridan belgilangan Davlat ta’lim standartlari talablarini to‘liq bajarmoqda. Mazkur o‘quvchi o‘zining bilim olishga bo‘lgan qiziqishi va ishtiyoqi bilan sindfa ajralib turadi. Barcha fanlarni talab darajasida

o‘zlashtirayotgan Sh.Ismatov, ayniqsa, ingliz tili va tarix fanlarini chuqur o‘rganishga harakat qilmoqda. Ta’lim-tarbiya olish barobarida Sherjahon Yoshlar ittifoqi maktab kengashining a’zosi sifatida ma’naviy-ma’rifiy tadbirdorda ham faol ishtirok etib, o‘zining tashabbuskorlik va tashkilotchilik qobiliyatini namoyon qilib kelmoqda. Ingliz tili bo‘yicha viloyat fan olimpiadasida II o‘rinni egallab, ta’lim muassasamiz sha’nini respublika bosqichida himoya etayotir.

Sherjahon Ismatov badiiy adabiyotga beqiyos mehr qo‘yanligi sababli 2019-yil tuman miqyosida o‘tkazilgan „Yosh kitobxonlar“ bellashuvining g‘olibi sifatida viloyat anjumanida ham ishtirok etdi hamda „Zukko kitobxon“ yo‘nalishida Faxriy yorliq va 20 nomdag‘i badiiy asarlar to‘plamini qo‘lga kiritdi.

Ismatov Sherjahon Akmal o‘g‘li ayni vaqtda o‘z imkoniyatlarini ishga solib ingliz tili bo‘yicha mutaxassis bo‘lib yetishish maqsadida tinmay o‘qib izlanmoqda.

Maktab direktori (imzo)

Murodova Dilorom Yusupovna

10-,B“ sinf rahbari (imzo)

Atoyeva Saodat Mirdadayevna

 **17.2-mashq.** Tavsifnomaning tarkibiy qismlari sxemasini tayyorlang, imlosiga diqqat qarating.



### Nazariy matn

Rasmiy ish hujjatlari qat’iy qolip asosida yoziladi. Shaxsning nutqiy madaniyati ushbu qoliplarni bilishi va unga rioya qilishi bilan belgilanadi.

Rasmiy ish hujjatlariga erkin, ijodiy yondashish mumkin emas. Shu jihatni bilan ular boshqa uslub janrlaridan farq qiladi.



**17.3-mashq.** Nazariy matn mazmunini og‘zaki bayon qiling.



**17.4-mashq.** Berilgan ishonchnoma namunalari bilan tanishib chiqing.

## Ishonchnoma

Men, Xolmatova Feruza Niyozovna, qizim Anvarova Laylo Fayozbek qiziga OATB Xalq banki kassasidan mening 2020-yil aprel oyidagi pensiyamni olishiga ishonch bildiraman.

2020-yil 5-aprel

(imzo)

Xolmatova F. N.

## Ishonchnoma

Men, Andijon viloyati Qo‘rg‘ontepa tumani Bobur ko‘chasidagi 30-uyda yashovchi fuqaro Yo‘ldoshev Xudoyor Davron o‘g‘li, ushbu ishonchnoma orqali Andijon shahri Qo‘rg‘ontepa tumani Lolazor ko‘chasidagi 4-uy 12-xonadonda yashovchi Yo‘ldoshev Xondamir Xudoyor o‘g‘liga menga qarashli 60 490 FBA raqamli „Spark“ rusumidagi yengil avtomashinani haydab yurishiga vakolat beraman.

2020-yil 20-may

(imzo)

Yo‘ldoshev X. D.



**17.5-mashq.** Testlarni yeching. Javobingizni izohlang.

**1. Qaysi ish qog‘ozida hech qanday tinish belgisi qo‘llanilmaydi?**

- A. SMS-xabarnoma
- B. Telegramma
- C. Taklifnama
- D. Telefonogramma

**2. Bidirishnama ifoda maqsadiga ko‘ra qaysi hujjatga yaqin turadi?**

- A. Tushuntirish xati
- B. Hisobot
- C. E’lon
- D. Kafolat xati



**17.6-mashq.** Tilxat matni bilan tanishib chiqing. Ayting-chi, tilxat qanday maqsadda yoziladi? Siz ham tilxat yozganmisiz?

## Tilxat

Men, Omonboyeva Zebiniso Samar qizi, kutubxonachi Mirkamolova Naziradan 10- „A“ sinf o‘quvchilari obuna bo‘lgan quyidagi gazeta va jurnallarni tarqatish uchun qabul qilib oldim:

- „Kitob dunyosi“ gazetasi – 5 dona
- „Ma’rifat gulshani“ gazetasi – 4 dona
- „Sinfdosh“ jurnali – 4 dona

2020-yil 20-may (imzo) Omonboyeva Z.



**17.7-mashq.** Bildirishnomani o‘qing. Shu asosda o‘zingiz ham shunday hujjat matnini tayyorlang.

Bo‘stonliq tumani 12-maktab  
Yoshlar ittifoqi kengashi raisi  
Shukurov Komrondan

## Bildirishnomma

2020-yilning 10-mart kuni bizning „Bunyodkor“ guruhimiz tomonidan hududda tashkil etilgan „Yoshlar bog‘i“ga 20 tup archa, 10 tup kashtan, 10 tup magnoliya manzarali daraxt ko‘chatlari o‘tzazildi.

2020-yil 10-mart (imzo) Shukurov K.



## Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Ish qog‘ozlarining o‘ziga xos uslubiy xususiyatlarini sanab ko‘rsating.
2. Nima uchun hujjatlar dastlab qoralama nusxada tayyorlanadi?
3. Yurtimizda qanday elektron hujjat bazalari yaratilgan? Ularning ro‘yxatini tuzing.

4. Quyidagi so‘zlarning asosiy ma’nolarini izohli lug‘atdan aniqlab, lug‘at daftaringizga ko‘chiring: *notarius, oftobchuvoq, poynov, kadar, sug ‘urta*.

## Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

**17.1-topshiriq.** Drabbl (mitti hikoya) namunasi bilan tanishib, o‘z mulohazangizni yozing.

Bir kuni detektiv asarlari bilan dunyoga mashhur Artur Konan Doyl yirik bankirlarga hazil telegramma jo‘natadi: „Hammasi ayon, tezda yashirining“.

Ertasi kuni xabar jo‘natilgan 12 nafar bankirning barchasi Londondan juftakni rostlaydi... (*t/me: adabiyot olami*)

**17.2-topshiriq.** Badiiy adabiyotni targ‘ib qiluvchi qiziqarli va original reklama tayyorlang.

## NAZORAT ISHI. TEST

## YIL DAVOMIDA O'TILGANLARNI TAKRORLASH

**1-mashq.** Matnni o'qing.

### IKKI XIL MUKOFOT

Anushervon hukmronligi davrida ikki **darvesh** uning saroyiga kelibdi va ulardan biri baland **tovush** bilan:

– Yovuzlik ko'rmayin desang, **yovuzlik** qilma, – debdi.

Ikkinchisi:

– Yaxshilik qilgan kishi hamisha yaxshilik ko'rgay! – debdi.

Anushervon amri bilan birinchi-siga ming dinor, ikkinchisiga ikki ming dinor berishibdi. Bu holni ko'rgan **mulozim** va **nadim**lar podshoh-dan: „Ikkalasining ham so'zi bir ma'noni ifodalaydi-ku, nega ikki xil mukofot berdingiz?“ – deb so'rashibdi.

Anushervon shunday javob beribdi:

– Biri yomonlikni **madh etdi**, ikkinchisi yaxshilikni. Yaxshilar bilan do'st-u hamsuhbat bo'lishdan yaxshi va yomonlar bilan **hamnishin**-u hamtovoq bo'lishdan yomon ish bormi dunyoda? (*Muhammad Avfiy*)



**2-mashq.** Hikoyat mazmunini qanday tushundingiz? O'z xulosangizni bir jumlada bayon eting. Hayotiy kuzatishlaringizdan kelib chiqib, kimadir qilingan yaxshiliklarga misol ayta olasizmi?

**3-mashq.** Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosini izohli lug'at yordamida aniqlang.

**4-mashq.** *Madh etdi, hamtovoq so'zlarining ma'nodoshini qo'llab, oxirgi xatboshini o'qing.* Mazmunda qanday o'zgarish sodir bo'ladi?

**5-mashq.** Eslab ko‘ring: „Yaxshilik qilgan kishi hamisha yaxshilik ko‘rgay“ fikri kimning qaysi ruboisiyiga hamohang? O‘sha ruboiyni yoddan aytib bering.

**6-mashq.** Maqollarni davom ettiring.

1. Yomonga yaqin yoursang, ...
2. Yomon bilan yurdim, qoldim uyatga, ...
3. Ikki yomon qo‘silsa, ...  
Ikki yaxshi qo‘silsa, ...
4. Iting yomon bo‘lsa, ...,  
Oting yomon bo‘lsa, ...,  
Qo‘sning yomon bo‘lsa, ...  
Fe’ling yomon bo‘lsa, ...
5. Yaxshi bilan sirdosh bo‘lsang yaxshilik bilan unasan, ...
6. Yaxshini ko‘rib fikr qil, ...
7. Yaxshining yaxshiga ortar himmati, ...
8. Yaxshining bolasi to‘rga tortar, ...

### Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

**1-topshiriq.** Matn bilan tanishing.

Yaqinda yoshlari o‘rtasida ijtimoiy so‘rov o‘tkazilib, ulardan „Baxtiyor hayotning poydevori nima?“ – deb so‘raldi. Ularning ko‘pchiligi hayotda baxtli bo‘lish uchun ko‘p pul va mashhurlik kerakligini aytdilar.

Harvard universiteti xuddi shu savolga javob topish uchun 1938-yildan buyon so‘rovlari o‘tkazib keladi. Bugungacha izlanishlarda 700 kishining hayoti o‘rganilgan. Uning natijalari yoshlarning javoblariga zid kelmoqda. Ma’lum bo‘lishicha, inson keksaygani sayin uning baxti uchun mol-dunyo ahamiyatsiz bo‘lib borar ekan. So‘rovda ishtirok etganlar insonning turmush o‘rtog‘i va farzandlari bilan ahil-inoq yashashi baxtli hayotning siri ekanini aytishgan. Shu bilan birga, har bir kishi o‘z baxtini oilasidagi o‘rni va do‘satlari bilan aloqalari qanchalik mustahkam ekaniga qarab belgilari ekan. Yaqin do‘srlarning bo‘lishi ham baxt ekan.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, inson yoshi ulg‘aygani sayin ikki omil uning baxtiyorligiga katta salbiy ta’sir ko‘rsatar ekan. Bulardan biri tamaki

chekish bo'lsa, ikkinchisi spirtli ichimlik iste'molidir. Tamaki chekish va spirtli ichimlik iste'moli odamda juda ko'plab kasalliklarning paydo bo'lishiga, tushkunlikka sababchi bo'ladi. Ayniqsa, oilalar buzilishining bosh sababchisi aynan spirtli ichimliklar ekan. Qolaversa, insonning hayotda baxtli bo'lishi uning qanchalik aqli yoki boy bo'lishida emas, balki oilaviy muhitga bog'liq ekan. Oиласида baxtli inson, iqtisodiy yoki ijtimoiy ahvoldidan qat'i nazar, hayotda o'zini baxtiyor hisoblar ekan. Ayting-chi, Siz uchun nima muhim: baxtmi yoki pul? (*Sh. Sattorov. „Biz g'alaba qozonamiz“*)

## **2-topshiriq.** Matnga mos sarlavha tanlang.

1. Baxtli hayot poydevori.
2. Baxtli hayot omillari.
3. Yoshlar baxtni qanday tushunadi?
4. So'rovlар natijasi.

**3-topshiriq.** „Pul va mashhurlik baxtli hayotning asosi bo'la oladimi?“ mavzusida debat uyushtiring. O'z qarashlaringizni quyida berilgan fikrlar asosida himoya qilishga urining.

- insonning turmush o'rtog'i va farzandlari bilan yaxshi aloqalari, yaqin do'stlarning borligi, sog'lom bo'lishi – oilaviy baxt asosi;
- spirtli ichimliklar va tamaki chekish insonni sog'lig'idan ayiradi, uning tushkunligiga sabab bo'ladi, tinch hayotini buzadi;
- yoshi kattalarning fikricha, mol-dunyo va boshqa narsalar yosh o'tgani sayin ahamiyatini yo'qotadi. Keksalar yoshlardan ko'ra ko'proq hayotni ko'rgan va tajribaga ega;
- hayotda pul ham ma'lum darajada qiymatga ega, chunki uning vositasida orzularingga erishasan;
- pul ba'zan odamiylik rishtalarining uzilishiga sababchi bo'ladi;
- puling bo'lsa, hammaga yoqasan;
- ko'pchilik pul to'plash uchun o'z sog'lig'ini yo'qotadi, keyin sog'li-g'ini tiklash uchun pul sarflaydi;
- pul oilaviy farovonlikni ta'minlaydi;
- baxtsizlik muammosi pulga ehtiyojmandlikdan kelib chiqadi.

**4-topshiriq.** Hayotda kimgadir kerak ekanligingizni his qilganmisiz? O‘z mulohazalaringizga tayanib, baxtli hayot formulasini tuzing.

## TO‘G‘RI QAROR

Bir rassom chiroyli rasm chizdi. Tepasiga „Kim bu rasmda biror kamchilikni ko‘rsa, qizil qalam bilan belgi qo‘ysin“, – deb yozdi va uni ko‘pchilik yig‘iladigan joyga ilib qo‘ydi. Biroz vaqtidan so‘ng xabar olsa, rasm belgilar ko‘pligidan loladay qizarib ketibdi. Rassom xafa bo‘lib, o‘z ijod mahsulidan voz kechmoqchi ekanini ustoziga aytdi.

– Yo‘q, – dedi ustoz, — yaxshisi, sen iborangni o‘zgartirib, „Kim rasmida kamchilik ko‘rsa, iltimos, uni tuzatsin“, – deb yozib qo‘y.

Rassom shunday qildi. Buni qarangki, oradan bir necha kun o‘tsa-da, rasmida hech qanday qizil belgi yo‘q edi.

– Ko‘rdingmi? – deb jilmaydi ustoz. – Bu hayotda xato topadigan odamlar juda ko‘p, ammo shu xatoni tuzatadigan – isloh qiladiganlar juda oz.

– Kim nima desa, desin. Hayotda o‘z tartibingni o‘rnat. Tartib sening muqaddas maqsading bo‘lsin va doim olg‘a boshlasin. Sen bu maqsad yo‘lida astoydil harakat qil, chunki tartib hamma narsaning majmuasidir. Tabiatning mavjudligi asosida ham tartib yotadi. Hayot pillapoyalardan yuqorilar ekansan, umring mazmuni xayrli ishlarda ekani va uni tartib bilan go‘zallashtirish mumkinligi yodingda tursin.

(Pifagor)

## MUNDARIJA

### I FASL. USLUBLAR JILOSI

1-mavzu. Nutq uslublari.....	3
2-mavzu. Publitsistik uslub.....	7
3-mavzu. Rasmiy uslub.....	12
4-mavzu. Ilmiy uslub.....	16
5-mavzu. Badiiy uslub.....	21
6-mavzu. Esse – ijodiy matn..... Nazorat ishi. Esse yozish .....	26 29
7-mavzu. Nutq turlari..... Mustahkamlash darsi.....	29 36
8-mavzu. Til birliklarini tanlash imkoniyati.....	37

### II FASL. SO‘ZDAN SO‘ZNING FARQI BOR

9-mavzu. Qanday so‘zlar o‘zaro bog‘lanmaydi?.....	43
10-mavzu. Sinonim so‘zlar uslubiyati..... Nazorat ishi. Test.....	49 53
11-mavzu. Antonim so‘zlar uslubiyati.....	53
12-mavzu. Omonim so‘zlar uslubiyati..... Mustahkamlash darsi.....	59 63
13-mavzu. Paronim so‘zlar uslubiyati.....	65
14-mavzu. Ko‘hna so‘zlar uslubiyati..... Nazorat ishi. Matn yaratish.....	70 75
15-mavzu. O‘zlashma so‘zlar uslubiyati.....	75
16-mavzu. Dunyo tillari va o‘zbek tili. O‘zbek tili kompyuter tili bo‘la oladimi?.....	80
17-mavzu. Ish qog‘ozlari bilan ishlash..... Nazorat ishi. Test..... Yil davomida o‘tilgancharni takrorlash.....	85 89 90

81.2 O'zb-922  
O-58

**B. Mengliyev va b.**

**Ona tili.** 2-qism. [Matn]: Umumiy o'rta ta'lif maktablarining 10-sinfi uchun darslik / Baxtiyor Mengliyev, Sharofat Toshmirzayeva, Saodat Atoyeva, Saida Majidova, Dilfuza Mannopova. – Toshkent: „O'qituvchi“ NMIU, 2020. – 96 bet.

ISBN 978-9943-22-458-2

UO'K 811.512.133(075.3)

KBK 81.2 O'zb-922

**Baxtiyor Mengliyev, Sharofat Toshmirzayeva, Saodat Atoyeva,  
Saida Majidova, Dilfuza Mannopova**

## **ONA TILI**

2-qism

Umumiy o'rta ta'lif maktablarining 10-sinfi  
uchun darslik

„O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent – 2020

Muharrir N. Rustamova  
Badiiy muharrir Sh. Toshturdiyev  
Texnik muharrir N. Niyozmuhamedova  
Musahhish Z. Inyaminova  
Kompyuterda sahifalovchilar: M. Akbarova, Sh. Sobirova

Nashriyot litsenziyasi AA № 0040. 10.12.2019. Original-maketdan  
bosishga ruxsat etildi 23.07.2020. Bichimi 70×90<sup>1/16</sup>. Kegli 12 shponli.  
Calisto gamiturasи. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog'izi.  
Shartli b. t. 7,02. Hisob-nashriyot t. 6,0.  
Adadi 517569 nusxa. Buyurtma №96–20.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining „O'qituvchi“  
nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 206, Yunusobod tumani,  
Yangishahar ko'chasi, 1-uy.  
Shartnomalar № 20–20.

## Ijaraga berilgan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

Nº	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

**Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sindf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:**

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mayjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.